

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2020 Vol.1

www.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR**O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ilyos Ismoilov

TAHRIR HAY'ATI

Zaynobiddin Abdirashidov

Karl Rayxl (Germaniya)

Baxtiyor Nazarov

Kamol Abdulla (Ozarbayjon)

Yusuf Chetindog' (Turkiya)

Nodirxon Hasanov (Turkiya)

Isa Xabibeyli (Ozarbayjon)

Naim Karimov

Teymur Kerimli (Ozarbayjon)

Eunkyung Oh (Koreya)

To'ra Mirzayev

Boqijon To'xliyev

Qosimjon Sodiqov

G'aybullha Boboyorov

Onal Kaya (Turkiya)

Kimura Satoru (Yaponiya)

Aftondil Erkinov

Rashid Zohidov

Otobek Jo'rabyoyev

Baxtiyor Abdushukurov

Sarvinoz Sotiboldiyeva

Dilnavoz Yusupova

Elchin Ibrohimov

(Ozarbayjon)

Nodirbek Jo'raqo'ziyev

MUNDARIJA**MATNSHUNOSLIK****Qosimjon Sodiqov**

Kul Tigin va Bilga xoqon bitiglari: matnlarning o'qilishi va talqinlari

3

Shermuhammad Amonov

Ahmad Tabibiy ijodi va uning "Munisu-l-ushshoq" devoni nusxalari

22

Dildora Xujanova

Mahmud Zamaxshariy "Al-qistos fi ilm al-aruz" asarining Berlin va Istanbul nusxalari qiyosi

43

TILSHUNOSLIK**Rixsittilla Alimuhammedov**

Qadimgi turkiy asarlarda matn ikki tilliligi

64

Odina Mahkamova

XIX asr oxiri XX asr boshlarida leksikografiya rivoji va unda "Lug'oti salos"ning o'rni

80

ADABIYOTSHUNOSLIK**Abdulhamid Qurbanov**

San'atga aylangan taxallus

108

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ilyos Ismailov

EDITORIAL BOARD

Zaynabiddin Abdirashidov

Karl Rechl (Germany)

Bakhtiyor Nazarov

Kamol Abdulla (Azerbaijan)

Yusuf Cetindag (Turkey)

Nodirkhon Khasanov (Turkey)

Isa Khabibeyli (Azerbaijan)

Naim Karimov

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Tura Mirzaev

Bakijan Tukhliev

Kasimjan Sadikov

Gaybullah Babayarov

Onal Kaya (Turkey)

Kimura Satoru (Japan)

Aftandil Erkinov

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bakhiyar Abdushukurov

Sarvinoz Sotiboldieva

Yusupova Dilnavoz

Elchin Ibrahimov (Azerbaijan)

Nodirbek Jurakuziev

CONTENTS**TEXTOLOGY****Kasimjan Sadikov**

The Inscriptions On The Gravestones Of
Kultegin And Bilga Khan: Reading And Interpretation
Of The Texts 3

Shermuhammad Amanov

The Creative Works Of Ahmad Tabibiy And His Divan's
Copies Which Was Named "Munisu-l-Ushshoq" 22

Dildora Khujanova

The Comparison Of The Two Copies Of Mahmud
Zamakhshariy's Work "Al Qistos fi Ilm al-Aruz"
Brought From Berlin And Istanbul 43

LINGUISTICS**Rikhsitilla Alimuhammedov**

The Issue Of Bilingualism In Texts In The Historical
Turkic Works 64

Odina Mahkamova

In The Late Nineteenth And Early Twentieth Centuries,
The Progress Of Lexicography And The Position Of The
Dictionary Titled "Lughati Salos" In
The Lexicography 80

LITERARY STUDIES**Abdulhamid Kurbanov**

The Pseudonym Which Turned Into The Art 108

Q. Sodiqov*(Toshkent, O'zbekiston)*
kasimjonsadikov@gmail.com

Kul Tigin va Bilga xoqon bitiglari: matnlarning o'qilishi va talqinlari

Abstrakt

Kul tigin va Bilga xoqon bitiglari qadimgi turk istoriografiyasi, yozma adabiyoti va adabiy tilining tengsiz yodgorliklaridandir. Tarixchi va adib Yo'llug' tigin ularni bitishda o'zining bor bilimi, mahoratini ishga soldi. Epigrafik matnning tuzilishi puxta va o'ta murakkab.

Mangutoshlardagi bitiglarning katta bir bo'lagi Bilga xoqon tilidan so'zlanadi. Yozuvshi Yo'llug' tigin Kul tigin bitigini yaratishda otasi aytib turgan so'zlarni matnga tushirgan. Oradan uch yil o'tib, Bilga xoqon vafot etgach, unga atalgan bitigni Yo'llug' tigining o'zi yozdi. Xoqonning avvalgi yodgorlik uchun bitilgan nutqini olib, bunisiga ham kiritdi. Biroq, keyingi bitig burungi matnning so'zma-so'z qaytarig'i emas, balki yozuvchi tomonidan qayta ko'rilgan, tahrir qilingan, to'ldirilgan variantidir. Adib qayta ishlagan matnni tahrir san'atining bizgacha yetib kelgan ilk, ayni paytda, ajoyib namunasi desa bo'ladi.

Kul tigin va Bilga xoqon bitiglaridan xoqonning el-ulusga qarata aytgan murojaati, yorlig'i, chaqirig'i o'rın olgan. O'sha rasmiy murojaat, chaqiriqning boshlamasi, ya'ni unvoni *Täjri-täg Täjri yaratmiş türk Bilgä qayan sabım* shaklidadir. Xoqon barcha yorliqlari, el-ulusga yozma murojaati, o'z nomidan yuboriladigan xalqaro diplomatik xatlarini ana shu unvon bilan boshlagan.

Bilga xoqon unvoni ilk o'rta asrlardan qolgan turkiy unvonlarning dastlabki, hamda klassik namunasidir. Uning barcha komponentlari to'la-to'kis, lo'nda va ixcham tuzilgan. Bu qadimgi turkiy til rasmiy uslubining, hujjatchiligining yuksak bosqichga erishganligini ko'rsatadi.

Bilga xoqon unvoni o'z davrininggina emas, o'rta asrlarning butun rasmiy yorliqlari, hujjatchiligi uchun namuna, andoza bo'lib xizmat qildi. Ko'k turk davri hujjatchiligi an'analari keyingi yuzyilliklarda ham davom etdi. Turkiy sultanat va davlatlarning egalari o'z yorliqlarini ana shunday qolipdagi unvonlar bilan boshlaganlar.

Kalit so'zlar: *turkiy bitiglar, bitigtosh, epigrafika; matn tahriri, matn talqini; rasmiy uslub, badiiy uslub; yorliq, yorliqlarning boshlama-unvonlari.*

Muallif haqida: *Qosimjon Sodiqov* – filologiya fanlari doktori, professor, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: Sodiqov, Qosimjon. 2020. “Kul Tigin va Bilga xoqon bitiglari: matnlarning o‘qilishi va talqinlari”. *Oltin bitiglar* 1: 3—21.

Kirish

Og‘a-ini Kul tigin va Bilga xoqon xotiralariga atab tiklangan obidalar qadimgi turk istoriografiyasi, adabiyoti va yozma adabiy tilining tengi yo‘q yodgorliklaridir. Ularning birinchisi 732-yili, ikkinchisi esa 735-yili tiklangan. Ikkala mangutosh ham, o‘sazamon rusumiga ko‘ra, ularning yili o‘tgach — o‘limidan o‘n bir oy o‘n bir oy keyin o‘rnatilgan. Yodgorliklar Mo‘g‘ulistonning Ko‘sho-saydam o‘lkasidan, bir-biridan bir kilometr uzoqlikdan, o‘rnatilgan yeridan topilgan. Qabrtoshlar ulkan arxitektura majmualarning qoq o‘rtasida turibdi. Hozir o‘saz ulkan majmualarning xarobalari qolgan, xolos [Orhun 1987, 18–42; Sertkaya 2001, 13–70; 71–119].

Bilga xoqon — Ikkinci ko‘k turk xoqonlig‘ining quruvchisi Eltarish xoqonning to‘ng‘ich o‘g‘li. U mamlakatni 716–734-yillarda boshqargan. Kul tigin esa Eltarishning kichik o‘g‘li bo‘lib, dovrug‘i ketgan sarkarda, og‘asi xoqonning maslahatchisi va safdoshlaridan edi.

Mangutoshlardagi turkiy bitiglarning muallifi taniqli tarixchi va qadimgi turkiy yozma adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Yo‘llug‘ tigindir. U Bilga xoqonning o‘g‘li edi. Buni uning otiga qo‘shilayotgan nisbasidan ham bilsa bo‘ladi: *tigin* — qadimgi turkiy tilda “shahzoda” degan ma’noni beradi. Bundan tashqari, ikkinchi bitigning yakuniy — kolofon qismida yozuvchi yurt egasini “otam xoqon” (*qaṣīm qayan*) deb atagan [Sertkaya 1995, 14; Содиков 2008, 34–35].

Tahrir san’atining yuksak namunasi

Kul tigin va Bilga xoqon bitiglari butkul mustaqil asarlar bo‘lishiga qaramay, bitiglarda aks etgan voqeа-hodisalar, matn tuzilishidagi o‘xshashlik ularni o‘zaro yaqinlashtiradi. Hatto Kul tigin kichik bitigining 1–11-qatorlari Bilga xoqon bitigi muqaddimasining 1–8-qatorlarida, Kul tigin ulug‘ bitigining 1–30-qatorlari Bilga xoqon ulug‘ bitigining 2–24-qatorlarida qaytalaydi [Содиков 2004, 57–66;

76–89].

Adib va tarixnavis Yo'llug' tigin amakisi Kul tingga atab yozilgan bitigni otasi xoqonning topshirig'i bo'yicha bitgan. Harqalay, bitig matnini xoqonning o'zi aytib turgan bo'lishi kerak. Oradan ikki yil o'tgach, Bilga xoqon ham o'ldi. Yo'llug' tigin endi otasi xoqonning xotirasiga atab bitig yozishga kirishdi. U amakisiga atalgan burungi bitigdan xoqonning el-ulusga aytgan so'zlarini, murojaatini olib, keyingi bitingga ham kiritdi. Shuning uchun ham ikkala bitigning katta bir bo'lagi bir xil, ular xoqon tilidan beriladi. Lekin keyingi bitig bitilayotganda xoqonning so'zlarini ancha tahrir qilingan.

Har ikki mangutoshning matni to'liq saqlangan emas. Tosh yuzining ayrim joylari nurab, matni ham shikastlangan. Ayniqsa, Bilga xoqon bitigi ko'p talafot yegan. Shu bois, asarlar matnini uzilkesil tiklashning iloji yo'q. Biroq, afzalligi shundaki, bir matnning shikastlangan joylari ba'zan ikkinchi bitigda saqlangan, bitiglarning biri boshqasini to'ldiradi.

Shu o'rinda har ikki bitigda qaytalangan matnni o'zaro chog'ishtirib ko'raylik. Ularning farqi quyidagicha:

Ba'zan bir so'z boshqasi bilan almashgan:

K.7: *Tabyač bodunqa bäglik urї oylin qul bolti, silik qiz oylin kün bolti*. — “Tabg'ach xalqiga bek bo'ladigan o'g'il bolasi bilan qul bo'ldi, suluv qiz bolasi bilan joriya bo'ldi”.

X.7: *Tabyač bodunqa bäglik urї oylin qul qilti, silik qiz oylin kün qilti*. — “Tabg'ach xalqiga bek bo'ladigan o'g'il bolasini qul qildi, suluv qiz bolasini joriya qildi”.

Avvalgi matnda *urї oyul, qiz oyul* so'zlarini vosita kelishigida (*o'g'il bolasi bilan, qiz bolasi bilan*), ikkinchi bitigda esa tushum kelishigida (*o'g'il bolasini, qiz bolasini*) qo'llangan. Shunga muvofiq ravishda, gaplarning kesimi ham o'zgarmoqda (*qul qilti, kün qilti — qul qildi, joriya qildi*).

Yuqoridagi stereotip jumlaning boshqa bir o'rinda qo'llanuviga e'tibor bering. K.24: *Bäglik urї oyluq qul bolti, silig qiz oyluq kün bolti bilmädük üçün*. Bu yerda jumla mazmunini anglash qiyin: “Bek bo'ladigan o'g'il bolang qul bo'ldi, suluv qiz bolang joriya bo'ldi, bilmagan(i) uchun (?)”.

Ikkinchi bitigdan esa mazmun oydinlashadi. X.20: *Bäglik urї oyluq qul qilti, silig ... qilti ol bilmädük ägin (bilmädükin?) üçün*. — “Bek bo'ladigan o'g'il bolangni qul qilganini, suluv (qiz bolangni joriya) qilganini u bilmagani uchun”.

Ba'zan bir qo'shimchaning o'rnida uning boshqa bir sinonimi ishlataladi:

K.25: *ögüm qatunu y kötürmiş täŋri*

X.21: *ögüm qatunu y kötürügmä täŋri* — onam malikani ko'targan [ya'ni, ulug'lagan] tangri.

Ushbu misoldagi -*miš*, -*gmä* qo'shimchali sifatdoshlarning ma'nosi bir: *kötürmiş* // *kötürügmä*.

Matnlarda tasviriy ifoda o'zgarishi mumkin:

K.24: *qanij subča yügürti* — "qoning suvday oqdi".

X.20: *qanij ögüzčä yügürti* — "qoning daryoday oqdi".

Yanada muhimi, ayrim jumlalar ikkinchi matnni tuzish chog'ida ancha tahrir qilingan. Quyidagi misollarni chog'ishtiring:

K.29: *Täŋri yarlıqazu, qutum bar üçün, ülügüm bar üçün öltäči bodunu y tirgürü igit(t)im.* — "Tangri yorlaqasin, baxtim bor uchun, nasibam bor uchun o'layotgan xalqni tiriltirib, oyoqqa qo'ydim".

X.23: *Täŋri yarlıqaduq üçün, qutum <>, ülügüm bar üçün öltäči bodunu y t(iri)grü igit(t)im.* — "Tangri yorlaqagani uchun, baxtim, nasibam bor uchun o'layotgan xalq'ni tiriltirib, oyoqqa qo'ydim".

Yanada muhimi, muallif Yo'llug' tigin Bilga xoqon bitigini tuzish chog'ida avvalgi matnga yangi jumlalar ham kiritadi, uni to'ldiradi. Masalan:

K.16 da Bilga xoqon o'z otasining o'limidan keyingi voqealarni shunday eslaydi: *Qanjim qayanqa başlayu Baz qayaniy balbal tikmis.* — "Otam xoqon (go'ri)ga boshlab Baz xoqonning balbali tikildi".

X.14da esa yuqoridagi ma'lumotdan so'ng xoqon o'zining necha yoshda otasidan ayrılganini eslaydi: *Qayan učduqda özüm säkiz yašda qaltim.* — "Xoqon o'lganda o'zim sakkiz yoshda qoldim".

Keyingi qayd avvalgi bitigda yo'q.

Qiyosiy tahlildan anglashiladiki, Bilga xoqon kichik bitigining 1-8-qatorlari va ulug' bitigining 2-24-qatorlari Ka1-11, K1-30 ning aynan qaytarig'i emas.

Mashhur sarkarda Kul tingeniga atalgan bitig Bilga xoqon tilidan so'zlanadi. Yozuvchi Yo'llug' tigin otasi aytib turgan so'zlarni matnga tushirgan. Oradan uch yil o'tib, Bilga xoqon vafot etgach, unga atalgan bitigni Yo'llug' tiginning o'zi yozdi. Xoqonning avvalgi yodgorlik uchun bitilgan nutqini olib, bunisiga ham kiritdi. Biroq, keyingi bitigdagisi burungi matnnning so'zma-so'z qaytarig'i emas, balki yozuvchi tomonidan qayta ko'rigan, tahrir qilingan, to'ldirilgan variantidir.

Matnnning qolgan qismi o'zicha davom etadi: Kul tigin bitigida sarkardaning qilgan ishlari yoritilgan bo'lsa, Bilga xoqon bitigida xoqonning el erki, ulus farovonligi yo'lida ko'rsatgan qahramonliklari bayon etilgan.

Adib Yo'llug' tigin tarafidan qayta ishlangan matnni tahrir san'atining bizgacha yetib kelgan ilk, shuning bilan birga, ajoyib namunasi desa bo'ladi.

Kultigin va Bilga xoqon bitiglarining katta bo'lagi bir xil ekanligi beziz emas. Bitiglarda qaytarilayotgan bo'laklar yurt egasining el-ulusga murojaatidir. Uni xoqonning, ulug' yo'boshchining butun turk ulusiga, kelajak o'g'il-qizlarga qaratilgan yo'rlig'i, chaqirig'i desa bo'ladi.

Matnning tuzilishi puxta-pishiq va murakkab. Unda xoqonning murojaati, epitafiya hamda tarix (kolofon) muayyan izchillikda berilgan. Matn, asosan, nasrda, oradagi ayrim o'rinalar (masalan, epitafiya va qahramonlar xulq-atvorining bayoni, turli tasvirlar) she'rda bitilgan. Shu jihatdan bitiglarning tuzilishi xalq dostonlarining tuzilishiga o'xshab ketadi. Ikkala bitig ikki kimsaning — Bilga xoqon va muallif Yo'llug' tigin tilidan berilgan. Bitigning ta'sir kuchi, siyosiy ahamiyati uning asosiy qismi yozuvchining emas, xoqonning tilidan berilganligida.

Kul tigin bitigida xoqonning o'z inisiga hurmati hamda uning o'limi tufayli chekkan qayg'u-alami izhor etiladi. Matnning katta bir bo'lagi xoqon tilidan so'zlanganining sababi ham shunda bolsa kerak. Bo'limlar xotimasi hamda tarixgina Yo'llug' tigin tilidan berilgan.

Ikkinchchi bitigni Yo'llug' tigin otasi xoqonning o'limidan so'ng yozganiga qaramay, u bitigda xoqonning el-yurtga murojaatini, chaqirig'ini to'la saqlab qolgan. Yana matnning muallif tilidan berilgan bo'lagi ham oldingisiga qaraganda ancha katta.

Shu narsa aniqki, Kul tigin bitigini yozish chog'ida muallif qo'lida xoqonning murojaati kiritilgan matn bo'lgan. Shuning uchun ham oradan yaqin uch yil o'tib, Bilga xoqon bitigini yozar chog'ida muallif avvalgi bitigdan ham foydalangan; undagi murojaat qismini olib keyingi bitingga ham kiritgan.

Kul Tigin va Bilga xoqon bitiglarining boshlovchi jumlesi va uning talqini

Kul tigin va Bilga xoqon bitiglari xoqonning quyidagi so'zlari bilan boshlangan (o'ngg'aylik uchun matnni transliteratsiyada beramiz: Ka.1):

T'NR'IT'G : T'NR'ID'Ä : BOLMŠ : T'ÜR'K : B'IL'GÄ : QyN : BUÖD'KÄ : OLRTM.

Farqi: Bilga xoqon bitigida oltinchi va yettinchi nuqtalar oralig'idagi so'z **B'ÖD'KÄ** ko'rinishidadir (Xb.1).

S.E. Malov Kul tigin bitigi boshlamasidagi ushbu jumlanı *Täŋri täg täŋridä bolmiş türk bilgä qayan bu ödkä olurtüm* shaklida o'qib, rus tiliga “Небоподобный, неборожденный (соств. “на небе” или “из неба возникший”) тюркский каган” я ныне сел (на царство) deb tarjima qilgan [Малов 1951, 27, 33].

H. O'rquň bu jumlanı turkchaga “Göge benzer gökte (mevcud) olmuş Türk Bilge hakan bu zamanda [iktidar mevkiine] oturdum” deya o'girgan [Orkun 1987, 22–23].

T. Tekin esa ushbu jumlanı turkchaga “(Ben), Tanrı gibi (ve) Tanrı'dan olmuş Türk Bilge Hakan, bu devirde tahta oturdum” deya o'girgan [Tekin 1988, 3, 62].

E'tibor bersangiz, talqinlarning barida umumiyl yaqinlik bor: ularda yurt egasi Bilga xoqon o'zini “ko'kdan yoki tangridan bo'lganligi, yaralganligi”ni (неборожденный, на небе или из неба возникший; gökte mevcud olmuş; Tanrı'dan olmuş) ta'kidlamoqda. Bitiglar boshlamasining bundayin talqini turkshunoslikda qiziq bir fikr uyg'otgan. Unga ko'ra, turk xoqonlari o'z nasl-nasabini, kelib chiqishini Ko'k yoki Tangri bilan bog'laydilar, o'zlarini undan yaralgan deb qaraydilar. Bunday qarash ularga qadimgi xitoy falsafasidan o'tgan, degan fikr ustuvor. Lekin bu qarashga qo'shilib bo'lmaydi. Buning isbotini bitiglarning o'zidan topamiz.

Ispoti uchun quyidagi mihim misolni keltirmoqchimiz: Kul tigin va Bilga xoqon bitiglaridagi xoqonliqning uzoq o'tmishi to'g'risidagi hikoyalar quyidagi jumlalar bilan boshlangan: *Üzä kök täŋri, asra yayız yär qılıntuqda ikin ara kişi oyli qilinmiş. Kişi oylinsta üzä äčüm-apam Bumün qayan, İstämİ qayan olurmiş. Olurupan, türük bodunuň älin tör[ü]sin tuta birmiš, iti birmiš* [Kul tigin bitigi I; Bilga xoqon bitigi I].

Ushbu matnda kechgan *kişi oyli* birikmasi “inson bolasi; inson farzandi” degan ma'noni bildiradi. Qadimgi turkiy tildagi *kişi hozirgi tasavvurimizdagi “Odam ota”ga to'g'ri keladi*. Birinchi gapda *kişi oyli* birikmasi ega bo'lib kelgan; ikkinchi gapda esa u to'ldiruvchi bo'lib, *üzä ko'makchisi bilan birga qo'llanmoqda (kişi oylinsta üzä — “inson bolalari uzra”)*. Matndagi *qayan olurmiş* – “xoqon bo'lib taxtga o'tiribdi; taxtga chiqibdi”; *kişi oylinsta üzä qayan olurmiş* – “kishi o'g'illari ustidan taxtga chiqibdi” degani.

Aytiganlar asosida ushbu matnni shunday talqin qilish mumkin: “Yuqorida ko'k osmon, pastda qo'ng'ir yer yaratilganda ikkisining orasida inson bolasi yaralgan. Inson bolalari ustidan otabobom Bumin xoqon (va) Istami(lar) xoqon bo'lib (taxtga) o'tirgan. (Taxtda) turib turk xalqining hokimiyatini tutib turganlar, tartibga

keltirganlar”.

Bilga xoqonning ushbu hikoyasida turklarning olamni anglash to'g'risidagi tasavvur-qarashlari aks etgan. Unga ko'ra, yuqorida osmon, pastda yer, ikkisining orasida esa inson bolalari yaralgan. Muhimi, Bumin va Istami to'g'risida so'z borar ekan, ular “ko'kdan yoki tangridan yaralgan” deb emas, (tangrining saylashi, istakirodasi bilan) inson bolalari ustidan boshchilik qilish uchun taxtga o'tirganliklari ta'riflanmoqda. Ana shu fikr qadimgi turk falsafasining o'ziga xosligini anglatadi.

Tahillardan so'ng Kul tigin bitigining yuqorida keltirganimiz *Täyri-täg täyridä bolmiş türk Bilgä qayan bu ödkä olurtüm* jumlasiga qaytamiz. Ushbu jumlada Bilga xoqonga “tangridan bo'lgan, yaralgan” deya sifat berilayotgani, buning asosi esa xitoy falsafasiga taqalayotganining sababi bitta: matnda kechgan BOLMŠ so'zi *bolmiş ko'rinishida o'qilib, ma'nosi “bo'lgan”* deya tushunilganidadir. Aslida bu so'zni *bolmiş* deb emas, *bulmiş* (<o> harfini [o] emas, [u] shaklida) deb o'qilsa, to'gri bo'ladi. Ana shunda talqinda yangilanish yuz beradi: *täyridä bulmiş* — “Tangridan (inoyat) topgan [ya'ni, Tangrining inoyatiga erishgan / Tangrining inoyati bilan]” deganidir. Jumlada kechgan *bu ödkä* — S. E. Malov talqin qilganidek, “bu taxtga” degan ma'noni beradi. Bilga xoqon bitigidagi ko'rinishini ko'zda tutadigan bo'lsak, fikrimiz yanada oydinlashadi. Chunki u yerda ushbu so'z bödkä deb o'qiladi, böd esa “taxt”dir.

Demak, Kul tigin bitigi boshlamasidan o'rinni olgan yuqoridagi jumlanı quyidagicha o'qiymiz: *Täyri-täg täyridä bulmuš türük Bilgä qayan bu ödkä olurtum.*

Buning ma'nosini shunday talqin qilish mumkin: *Ko'kday (ulug') Tangridan (inoyat) topgan [ya'ni, Tangrining inoyatiga erishgan / Tangrining inoyati bilan] turk [ya'ni, bahodir] Bilga xoqon bu taxtga o'tirdim* [Содиқов 2004, 66–72].

Ushbu qarashni quvvatlovchi yana bir muhim misolni keltiramiz. Uyg'ur xoqonlig'i davriga tegishli Mo'yun-cho'r bitigi xoqonning *Täyridä bulmisilätmis bilgä qayan* unvonibilan boshlangan [Малов 1959, 34]. S. E. Malov ushbu jumlanı rus tiliga “Тенгрида болмыш, Иль-итмиш Бильга Каған (Небом поставленный, государство устроивший, мудрый, или владетельный, Каған)” deb tarjima qilgan [Малов 1959, 38].

S.E. Malov ushbu boshlamadagi T'NR'ID'Ä : BOLMŠ birikmasini *Täyridä bolmís* ko'rinishida o'qishiga qaramay, uni “Небом поставленный” deya talqin qilayotganining o'zi qiziq. Chamasi, keyinchalik, Bilga xoqon hamda Mo'yun-cho'r bitiglarini

nashrga tayyorlash jarayonida, harqalay, Bilga xoqon yorlig'i unvonidagi "tangri yaratmish" (*täŋri-täg täŋri yaratmiş*) birikmasi ta'sirida bo'lsa kerak, unda ham ana shunday fikr tug'ilgan ko'rinnadi.

Bilga xoqon yorlig'ining unvoni va uning turkiy hujjatchilik tarixidagi o'rni

Bilga xoqon ulug' bitigi el egasining quyidagi so'zlari bilan boshlangan:

T'NR'İT'G : T'NR'I : YRTMŞ : T'ÜR'K : B'İL'GÄ : QyNSBM
(Bilga xoqon bitigi I).

Buning o'qilishi (transkripsiyasi) shunday bo'ladi: *Täŋri-täg täŋri yaratmiş türk Bilgä qayän sabäm*.

Bu jumla boshqa bir o'rinda — bitigning xotimasida ham qaytariladi (Xa.13).

S.E. Malov ushbu jumlalardan birinchisini ruschaga "(Вот) речь моя богоподобного, Небом поставленного (или угодного Небу) тюркского мудрого (Бильгя) кагана" [Малов 1959, 20], ikkinchisini "(Вот) речь моя, подобного Небу, Небом поставленного (или угодного Небу) тюркского мудрого (Бильгя) кагана" deb tarjima qilgan [Малов 1959, 23].

H. O'rqun esa bu jumlanı turkchaga "Göge benzer gögün yarattığı Türk Bilge Hakan [işte benim] sözüm" deya o'girgan [Orkun 1987, 58–59].

T. Tekin bu jumlanı turkchaga "Tanrı gibi, Tanrı (hükümdar) yapmış, Türk Bilge Hakan, sözüm" deb o'girgan [Tekin 1988, 37, 99].

E'tibor qilinsa, bu talqinlarda xoqonga "ko'k o'rnatgan, ko'k yaratgan, tangri o'rnatgan" (*Небом поставленный, gögün yarattığı, Tanrı yapmış*) sifatlari berilayotir.

Shu o'rinda ushbu jumlanı bir boshdan sinchiklab ko'rib chiqamiz. Jumla boshidagi *Täŋri-täg* so'zi "ko'k, osmon" ma'nosida kelgan, u o'zi birikayotgan *täŋri* (ya'ni, xudo) so'zining sifatidir, *Täŋri-täg täŋri* deyilganda "ko'kday (ulug') tangri" tushuniladi. Keyingi *yaratmiş* — sifatdosh bo'lib, "yaratgan" deganidir. Bilga xoqon bitigidagi ushbu boshlamada xoqonning sifati "ko'kdan bo'lgan", "tangridan bo'lgan" deb emas, aksincha, "ko'kday (ulug') tangri yaratgan" (*täŋri-täg täŋri yaratmiş*) deya qayd etilayotir.

Boshlama-unvonda *Bilgä qayanga* qo'shilayotgan *türk* so'zi etnos anglamida emas, balki "jasur, bahodir, qudratli" degan ma'nolarda kelgan.

Türk so'zining bu anglami Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida ham kelgan. Mana bunga misol: *Yana Täŋriberdi*

Samanči erdi, türk-ü mardāna va qiličliq yigit erdi (БН, 158). Ushbu jumladagi türk-ü mardāna – juft so'z bolib, “jasur va mardona” deganidir.

Bilga xoqon bitigida kechgan boshlama jumladagi so'nggi *sabim* — “mening so'zim, buyrug'im, yorlig'im” degani. Shularga tayanib, ushbu boshlama jumlanı quyidagicha talqin qilishimiz mumkin: ***Ko'kday (ulug') tangri yaratgan qudratli / jasur Bilga xoqon so'zim.***

Muhimi shundaki, Kul tigin va Bilga xoqon bitiglarida xoqonning el-ulusga qarata aytgan murojaati, yorlig'i, chaqirig'i o'rın olgan. Yuqoridagi jumla esa o'sha rasmiy murojaat, chaqiriqning boshlamasi, ya'ni unvonidir (sharq manbashunosligida rasmiy hujjatlarning boshlama jumlesi *unvon* deyiladi).

Bilga xoqon bitigida kechgan ikki unvondan birinchisi Bilga xoqonga, ikkinchisi esa uning kichik o'g'li Bilga Qutlug' xoqonga tegishlidir (*qarang*: Содиков 2004, 79; 115). Bilga xoqon elga egalik qilgan chog'larda el-ulusga berajak farmonlari, chet ellarning hukmdorlariga yo'llanajak diplomatik yorliqlarini ana shu unvon bilan boshlagan. Keyinchalik uning o'limidan so'ng o'g'li Bilga Qutlug' ham otasi qo'llagan boshlama-unvondan foydalandi. Bu narsa o'tmish diplomatikasida bor: hatto butun sulola bir unvondan foydalangan zamonlar ham bo'lgan. O'sha an'anaga ko'ra, ulug' bitigning boshlanishida Bilga xoqonning, bitig xotimasida esa Bilga Qutlug' xoqonning el-ulusga aytgan chaqirig'i, yorlig'i bir xil unvon bilan boshlanayotir.

Muhimi shundaki, Kul tigin bitigi Bilga xoqonning tilidan (nutqidan) berilgan bo'lishiga qaramay, yuqoridagi boshlama-unvon yo'q. Chamasi, Yo'llug' tigin amakisi Kul tingeniga atalgan bitigni yozib tugatgach, bitigtosh tiklangandan keyin, undagi xoqon so'zlari rasmiy unvon bilan boshlanmaganini tushunib yetgan ko'rindi. Yo'l qo'ygan kamchilikni u keyinchalik — otasi o'lgandan keyin unga bag'ishlab o'rnatilgan bitigtoshda tuzatdi: Bilga xoqon ulug' bitigini otasining unvoni bilan boshladi. Hujjatchilik an'anasisiga amal qilgan holda, bitigning xotima qismidagi Bilga Qutlug' so'zlarini ham o'sha unvon bilan boshladi.

Bilga xoqon unvoni ilk o'rta asrlardan qolgan turkiy unvonlarning ilk, shuning bilan birga, klassik namunasidir. U uch komponentdan tuzilgan: birinchisi Tangri yaratganligining e'tirofi (*Täjri-täg täjri yaratmisi*), ikkinchisi xoqonning sifati, oti va unvoni (*türk Bilgä qayan*), uchinchisi esa “so'z, farmon, yorliq”ning xoqonga qarashlilagini anglatuvchi bo'lak (*sabim*).

Bilga xoqon unvonidagi *sabïm* — “mening so‘zim” degani emas, balki “mening murojaatim, mening yorlig‘im” ma’nosidadir. Turkiy tilning keyingi bosqichida *sab* (~saw) so‘zi iste’moldan chiqib, uning o‘rnida *söz* kalimasi ishlatila boshladi. Endi rasmiy hujjatlar boshlamasida ham qadimgi *sab* (~saw) o‘rnini *söz* atamasi egalladi. Bu ham tarixiy an'anaga muvofiq holda “buyruq; farmon; yorliq” ma’nolarini beradi (Содиков, Омонов 2010, 40–41).

Bilga xoqon yorlig‘ida kelgan boshlama-unvonning barcha komponentlari to‘la-to‘kis, lo‘nda va ixcham tuzilgan. Bu narsa ko‘k turk hujjatchiligining, qadimgi turkiy til rasmiy uslubining yuksak bosqichga erishganligini ko‘rsatadi.

Bilga xoqon boshlama-unvonini formulaga soladigan bo‘lsak, u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Y+S+A+M+sabïm

(ya’ni: *Tangri yaratganligining e’tirofi+hukmdorning sifati +oti+mansabi+sabïm*).

Muhimi shundaki, Bilga xoqonning so‘z yuritilayotgan unvoni o‘z davrininggina emas, o‘rta asrlarning butun rasmiy yorliqlari, hujjatchiligi uchun namuna, andoza bo‘lib xizmat qildi. Ko‘k turk davri hujjatchiligi an‘analari keyingi yuzyilliklarda ham davom etdi. Turkiy sultanat va davlatlarning egalari o‘z yorliqlarini ana shunday qolipdagi unvonlar bilan boshlagan.

Yana bir jihat, Bilga xoqon unvonida, matn xarakteridan kelib chiqqan holda, adresat ko‘rsatilmagan. Unvonning to‘liq transformatsiyasi (tiklangan shakli) (*Bu bän, Täyri-täg Täyri yaratmiş türk Bilgä qayan(niň) sabïm (turur)*, ya’ni (*Bu men, ko‘kday (ulug‘) Tangri yaratgan qudratli Bilga xoqon(ning) so‘zim (turur / -dir)*) shaklida anglanadi.

Keyingi yuzyilliklarda esa xon va sultonlarning unvonlari yana bir komponent bilan boyidi: ularga yorliq beruvchi bilan birga *adresat* (yorliq yollanuvchi kimsa yoki tomon) ham kiritildi.

Jumladan, Oltin O‘rda xoni To‘xtamishning 1393-yili polyak qiroli Yag‘ayliga yo‘llagan yorlig‘i *Toxtamiš sözüm Yayaylaya* (*To‘xtamish so‘zim Yag‘aylaga*) deb boshlangan (T.1-2). Bu unvondagi *Toxtamiš sözüm* — xat yo‘llovchi; adresant (*intitulatio*); sharq manbashunosligida “xat egasi, xat yo‘llovchi”ni *mursil* deyilgan; *sözüm* — yorliqning xonga tegishliligin, uning o‘z og‘zidan aytilayotganligini dalillovchi kalom. *Yayaylaya* – yorliq yo‘llanayotgan kimsa (*adresat* — *inscriptio*)ni bildiradi, shuning uchun u jo‘nalish

kelishigidadir. Adresat sharqona tilda mursal bo'ladi.

Endi unvonning to'liq tiklangan shakli ham o'zgaradi: u (*Men,*) *Toxtamiš(niň) sözüm Yayaylaya (bolsun)* yoki (*Bu men,*) *Toxtamiš(niň) sözüm Yayaylaya (turur)*, ya'ni (*Men*) *To'xtamish(ning) so'zim Yag'aylag'a (bolsin / -dir)* shaklida bo'ladi.

To'xtamishxon unvonining formulasi shunday bo'ladi:

A+ sözüm+Ad.

(ya'ni: *xonning oti+sözüm+adresat*).

O'rta asrlarda bitilgan turkiy yorliqlarning boshlamasida ham ba'zan yorliq yo'llayotgan yurt egasining darajasi, unvoni qo'shib yozilgan. Masalan, Shohrux mirzoning 1422-yil 16-yanvarida Talxan ota mozorining mujovuriga bergen nishoni *Šāhruh bahadur sözüm dīvānlaryä* (*Shohruh bahodir so'zim devonlarga*) jumlesi bilan boshlangan (III.1-2). Bu o'rinda *Šāhruh bahadur sözüm* — unvon, shuning uchun u alohida qatorga yozilgan. U uchta komponentdan tuzilgan: sultonning oti (*Šāhruh*), unvoni (*bahadur*) va farmonning unga tegishliligini anglatuvchi yorliq (*sözüm*). Ushbu birikmadagi *bahadur so'zi* yuqori tabaqa kishilariga beriluvchi nisbani, unvони bildiradi. Qiyos uchun turkiy yorliqlar boshlamasida qo'llangan *abu-l-muzaffar, abu-l-ŷāzî* unvonlarini eslash yetarli.

Shohruhnинг yorlig'idagi boshlama-unvonga qo'shilayotgan *dīvānlaryä* so'zi — yorliq qaratilayotgan yuridik tashkilot (adresat) ni bildiradi. Matnda adresat unvondan ajratilib, keyingi qatorga yozilgan. U jo'nalish kelishigida. Unvonning to'liq tiklangan shakli (*Men,*) *Šāhruh bahadur(nuň) sözüm dīvānlaryä (bolsun)* yoki (*Bu men,*) *Šāhruh bahadur(nuň) sözüm dīvānlaryä (turur)* bo'ladi.

Shohruh unvonining formulasi shunday bo'ladi:

A+U+ sözüm+Ad.

(ya'ni: *xonning oti+unvoni+sözüm+adresat*).

Unvonlarda, ko'pincha, hukmdor otidan oldin uning mansabi ham qo'shib qo'yilgan. Masalan, Abu Saidning turk sultoni Hasan begga (=Uzun Hasanga) 1468-yilning 10-oktyabirida yo'llagan bitigi *Sultân Abu Sa'id körägän sözüm* unvoni bilan boshlangan (AC.1).

Buning formulasi quyidagicha bo'ladi:

M+A+U+sözüm

(ya'ni: *mansabi+oti+unvoni+sözüm*).

Maktubning kimga qaratilgani keyingi komponentdan anglashiladi. Unda qisqa salom bilan maqsadga ko'chilgan: *Hasan beggä salām tegäč, söz ul-kim*, deb asosiy qismga o'tib ketiladi.

Keltirilgan o'rnaklardan anglashiladiki, turkiy diplomatika tarixida xoqon va xonlarning yorliqlari, farmonlarining boshlama-unvonlari ko'k turk xoqonliklari davrida kashf etildi va bu turkiy hujjatchilik tarixidagi ulug' kashfiyotlardan biri edi. Uning bizgacha saqlangan ilk, shuning bilan birga, klassik misoli Bilga xoqon bitigida kechgan *Täjri-täg täjri yaratmiş türk Bilgä qayan sabım* unvonidir.

O'rta asrlarning hujjatchiligidagi turkiy boshlama-unvonlar yana bir komponent bilan boyidi: ularda yorliq beruvchi kimsa bilan birga yorliq yo'llanayotgan adresatni ham bitish rusumga aylandi. Buni To'xtamishxonning polyak qiroli Yag'ayliga yo'llagan yorlig'idagi unvon misolida ko'rsatishning o'zi ham yetarli.

Muhim jihat, turkiy yozma hujjatchiligining ilk bosqichlarida yurt egasining ulusga qaratilgan chaqirig'i, yorlig'i, hatto davlatning bosh qonuni, tuzuklari ham epigrafik shaklda bayon qilingan. Buni Birinchi ko'k turk xoqonlig'i davrida tiklangan Bug'ut yodgorligi, Ikkinci ko'k turk xoqonlig'i davrida tiklangan Kul tigin va Bilga xoqon bitigtoshlarida kuzatishimiz mumkin. Hatto keyingi ikki bitigda xoqonning turk beklari, xalqiga qarata aytgan shunday so'zlarini ham o'qiyimiz: *Türük böglär, bodun, buni äsidiŋ! Türk [bodunuŋ ti]rip äl tutsuqiiŋin bunta urtum, yaŋılıp üläsikiŋin yämä bunta urtum. Näŋ näŋ sabım ärsär, bängü tašqa urtum.* — “Turk beklari, xalqi, buni eshitir! Turk xalqini to'plab davlat tutishingizni bunda [ya'ni, toshda] yozdim. Adashib, ayrılganiningni ham bunda yozdim. Har qanday so'zim bo'lsa, mangu toshga yozdim” (Ka.10–11). Bilga xoqonning “davlat tutishingizni bunda [ya'ni, toshda] yozdim” (*äл tutsuqiiŋin bunta urtum*) degan so'zları ushbu bitiglarda el yo'rig'i, xoqonning ko'rsatmalari bitilganiga ishoradir.

Uyg'ur xoqonlig'i davrida yaratilgan Mo'yun-cho'r bitigida xoqonning zafarli yurishlari to'g'risida so'z borar ekan: “O'shanda g'arbda Iduq bashda, Yabash va To'qush (daryolarining) quyilishida yozni o'tkazdim. O'sha yerda saroyimni qurdirdim, mudofaa devorlarini o'sha yerda qurdirdim, ming yillik, tuman kunlik bitigimni-tuzugimni o'sha yerda yassi toshga yarattirdim (*bij yilliq tümän künlik bitigimin-belgümin anta yassi tašqa yaratitdim*”, deyiladi [Малов 1959, 30–40]. Ushbu jumlalarda xoqonning tuzugi,

davlat yo'rig'i bitilgan boshqa bir bitigtosh ham borligiga ishora qilinmoqda. Lekin asarda so'z yuritilgan o'sha bitigtosh topilganicha yo'q.

Turkiy yozma hujjatchiligi o'z yo'lini epigrafik matnlardan boshlagan, xoqonliqning ilk yozma qonuni, el yo'riqlari ulusga epigrafik ko'rinishda, monumental bitiglar orqali yetkazilgan. Qadimgi turkiy epigrafik yodgorliklar xoqonlar, yirik davlat arboblari, ulug' qahramonlarning xotirasini mangulashtirishga bag'ishlangan bitiglargina emas, davlat qonunlari, tuzuklari, xoqonlar chaqirig'ini o'zida bayon etgan yozma hujjatlar sifatida ham ahamiyatlidir.

Bitiglarda kechgan näj yilsiy bodun birikmasining angłami

Kul tigin va Bilga xoqon bitiglarida Birinchi va Ikkinci ko'k turk xoqonliklarining tarixi berilgan.

Bitiglarda xoqon o'zining taxtga chiqish tarixini hikoya qilar ekan, shunday deydi (misolni Kul tigin bitigidan keltiramiz):

Näj yilsiy bodunqa olurmadi. İcrä aßsiz, tašra tonsuz, yabız yablaq bodunta üzä olurtum (K.26).

Bilga xoqon bitigida xoqonning bu so'zlari ozgina tahrir qilingan holda uchraydi. Toshning sirti ancha shikastlangani uchun matnning ayrim o'rirlari, shu qatorda ushbu jumlaning bir nechta so'zi ham o'chib ketgan. Saqlanib qolgani shunday:

[Näj yjilsiy bodunta üzä olurmadi. İcrä aßsiz, tašra tonsuz, yabız yablaq bodunta [üzä olurtum]] (X.21).

Matnning Kul tigin bitigidagi ko'rinishi S. E. Malov tarjimasida shunday berilgan: “Я отнюдь не сел (на царство) над народом богатым (скотом?), я сел (на царство) над народом, у которого внутри не было пищи, а снаружи – одежды, (над народом) жалким и низким” (Малов 1951,39).

A.S. Amanjolov tarjimasi esa bir oz farqli: “Я отнюдь не сел (каганом) над народом зажиточным, я сел (каганом) над жалким и низким народом, у которого внутри не было пищи, а снаружи — одежды” [Аманжолов 2003, 166].

Keltirilgan misolda ikkita gap bor. Mazmunni osonroq tushunib yetish uchun tahvilni ikkinchi — *İcrä aßsiz, tašra tonsuz, yabız yablaq bodunta üzä olurtum* gapidan boshlaymiz.

Jumlada kechgan *içrä aßsiz, tašra tonsuz* — “och-yalang, yupun” degan ma'noni beradi. Keyingi *yabız-yablaq* — juft so'z, “yovuz-vahshiy” degan ma'noda. Jumla yakunidagi *olurtum* — (*qayan*) *olurtum*, ya'ni “xoqon bo'lib taxtga o'tirdim; taxtga chiqdim”

degan ma'noni bildiradi.

Shularga tayanib, gapning mazmunini "Och-yalang, vahshiy xalq ustidan (xoqon bo'lib taxtga) o'tirdim" deya talqin qilamiz.

Birinchi gap — *Näj yilsiy bodunqa olurmadi*. Bunda *bodunqa olurmadi* birikmasi – *bodunta üzä olurmadi*, ya'ni "xalq ustidan xoqon bo'lib taxtga o'tirmadim" degan ma'noni beradi. Eng mushkuli – jumla boshida kelgan *näj yilsiy* ni qanday tushunishda.

S. E. Malov yuqorida keltirganimiz *yilsiy* so'zini ruscha tarjimasida "богатый" deb o'girgan, qavsda "скотом" deya izohlab, so'roq belgisini qo'yib ketgan [Малов 1951, 39]. Kitob oxiridagi bitiglar bo'yicha tuzgan lug'atida esa uning ma'nosini "богатый, зажиточный" deb izohlagan va, qo'shimcha qilib, bu so'z *yilqi* (скот) so'ziga qiyoslansin, deya ta'kidlab qo'ygan [Малов 1951, 391].

"Древнетюркский словарь"да bu so'z S. E. Malov talqiniga tayangan holda beriladi: so'zning o'zi *yilsiy* ko'rinishida; qavsda esa *yilqisiy* yozib, shunday bo'lishi kerak degan mazmunda so'roq alomati qo'yilib, ma'nosi "богатый, зажиточный" deb izohlangan [Древнетюркский... 1969, 267].

Turk olimi H. O'rqnun bitiglar bo'yicha tuzgan lug'atida *yilsiy* so'zining ma'nosini "muhtasham" hamda "porloq" (*muhteşem, parlak*) deb izohlab, qavsda so'roq alomatini qo'yib ketgan [Orkun 1987, 894].

T. Tekin esa *yilsiy* so'zini "boy va huzur-halovatli" (*zengin ve müreffeh*) deya talqin qilgan [Tekin 2010, 30–31].

Undan avval kelgan *näj* so'zini ham olimlar ikki xil tushunganlar: ayrimlar uni "narsa, mol" deb bilsa, boshqa birlari "hech" inkor olmoshi sifatida qaraydi.

Jumladan, H. O'rqnun *näj* so'zining ma'nosini "buyum, narsa" hamda "hech" (*sey, nesne, hiç*) deb izohlagan [Orkun 1987, 820].

T. Tekin esa uni "hech, hechda" (*hiç, hiç de*) deb izohlaydi. Gapni esa turkchada (*Ben*) *hiç de zengin ve müreffeh (bir) halk* üzerine olurmadi deya talqin qiladi [Tekin 2010, 31].

S. E. Malov tarjimasida bunga "отнюдь" ("sira") so'zi to'g'ri keladi: "Я отнюдь не сел (на царство) над народом богатым (скотом?)". Ruschada shunday deyilishi to'g'ridir, biroq qadimgi turkiy tilda bunday deyilmaydi. Agar *näj* so'zini "hech bir; sira" inkor olmoshi sifatida tushunilsa, mantiq buziladi: "Hech bir boy va huzur-halovatli xalq ustidan (xoqon bo'lib taxtga) o'tirmadim" degan mazmun kelib chiqadi. Aslida, jumlanı bunday tuzish o'rinsiz, sababi, *olurmadi* fe'lida bo'lishsizlik, inkor bor, yana *näj*ni ham inkor deb qaralsa, inkor ustiga inkor yuklanib, stilistik xatoga yo'l qo'yiladi. Shuning uchun uni

«buyum, narsa» deya anglangani ma'qul.

Matndagi näj yilsiy bodun birikmasining ma'nosini kontekstga qarab ochiqlasak to'g'ri bo'ladi. Mazmunga qaralsa, ushbu birikma ičrä ašsiz, tašra tonsuz, yabiz yablaq bodunning ziddi bo'lib, unga qarshi qo'yilmoqda. Shuningdek, bu birikma mazmunan bitiglarda kechgan yalan bodun (*yalang xalq*), čiyañ bodun (*qashshoq xalq*) birikmalarining ham ziddidir.

Shu o'rinda Kul tigin bitigining keyinida turgan boshqa bir misolga e'tibor qarataylik. Bitigda xoqon o'zining yurtga egaligi chog'ida yalang, qashshoq xalqni boy-badavlat xalqqa aylantirganini ta'riflab deydi: *Yalan bodunu y tonluy, čiyañ bodunu y bay qiltim, az bodunu y öküš qiltim*. — “Yalang xalqni to'nli, qashshoq xalqni boy qildim, oz xalqni ko'paytirdim” (K.29).

Bu jumladagi *yalan*, *čiyañ*, *az* hamda *tonluy*, *bay*, *öküš* so'zlari *bodun* so'zining sifatlari bo'lib, ta'rifda o'zaro zidlikni yuzaga chiqaradi: kiyim-kechakli xalq (*tonluy bodun*) — yalang xalqqa (*yalan bodun*), boy xalq (*bay bodun*) — qashshoq xalqqa (*čiyañ bodun*), ko'p xalq (*öküš bodun*) — oz xalqqa (*az bodun*) mazmunan qarama-qarshi qo'yilayotir. Ushbu qarshilantirishning muhim g'oyaviy-siyosiy, badiiy-estetik vazifasi bor: u matnda xoqon zamonida yurt to'kin-sochinlik, tinchlik-osoyshtalikka yuz tutganligini ochib berishga xizmat qiladi. Qadimgi turk adabiyotida, odatda, yurtga egalik qilib turgan xoqon davrida uning olib borgan siyosati, xalqning to'q-farovon yashagani, tinchlik-osoyshtalik hukm surganini bayon etishda ana shunday ta'riflardan unumli foydalanilgan. Johil,adolatsiz xoqonlarning ta'rifida esa buning teskarisi.

Demak, keltirilgan jumladagi näj — “narsa, buyum” ma'nosida, yilsiy esa “yilqili; yilqisi mo'l” degani; näj yilsiy birikmasi “mol-mulkli, yilqili”, ya'ni “boy-badavlat” anglamida kelgan; näj yilsiy bodun — “boy-badavlat xalq”.

Shularga tayangan holda, Kul tigin bitigidagi Bilga xoqon tilidan aytilgan: *Näj yilsiy bodunqa olurmadi. Ičrä ašsiz, tašra tonsuz, yabiz yablaq bodunta üzä olurtum* jumlalarini “[Men] mol-mulkli / buyum va yilqili [ya'ni, boy-badavlat] xalq ustidan (xoqon bo'lib taxtga) o'tirmadim. Och-yalang, yovuz-vahshiy xalq ustidan (xoqon bo'lib taxtga) o'tirdim” deb o'girilsa, to'g'ri bo'ladi.

Xulosa

Kul tigin va Bilga xoqon bitiglarida qadimgi turk xoqonliqlarining yaqin ikki yuz yillik tarixi bitilgan. Ushbu tarixiy yozuvlar o'zining bayon uslubi bilan badiiy asarlar darajasida turadi.

Bitiglarda turk xoqon va sarkardalari xalq qahramonlari sifatida ulug'lanadi, ularning ko'zi tirikligida el erki, xalq farovonlig'i yo'lida olib borgan ezgu ishlari, qahramonliklari yoshlarga ibrat qilib ko'rsatiladi. Bitiglarda ular yurt xalaskorlari, ulug' yolboshchilar deya ta'rif etilgan.

Bitiglar uslubi yuksak balog'at darajasida, o'ta chiroyli. Bu belgilar matnning badiiyligini ta'minlaydi. Bunday uslubning tanlanishiga sabab, asarni o'qishli qilish, uning badiiy-estetik ta'sirini oshirish edi.

Muallif badiiy tasvir vositalari, badiiy san'atlardan unumli foydalangan. Ularda xalq og'zaki adabiyotining ta'siri hali kuchli. Muhimi, adib ushbu ta'riflar bayonida qadimgi turkiy tilning cheksiz boyligi, badiiy-uslubiy imkoniyatlarini ishga sola bilgan. Ushbu asarlar qadimgi turk adabiyoti va yozma adabiy tilining eng ajoyib namunalaridir.

Yana bir jihat, turkiy bitigtoshlarda xoqonning, yurt xaloskorining xalqqa qarata aytgan so'zлari, chaqirig'i ham bitilgan. Shu jihatdan bitiglar turkiy hujjatchilik, rasmiy nutq tarixini organish uchun ham ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, turkiy yozma adabiyot tarixi, shuning bilan birga, yozma rasmiy murojaat bitish tarixi ham o'z yo'lini epigrafik matnlardan boshlagan deya olamiz.

Adabiyotlar

I

AC – Sulton Abu Saidning turk sultonni Hasan begga yo'llagan maktubi: Содиков 2013,130–142.

БН – Захириддин Мұхаммад Бобур. 1989. *Бобурнома*. Тошкент.

ДТС – Древнетюркский словарь. 1969. Ленинград.

K – Kul tigin bitigi: *Ka* – kichik bitig, *K, Kb* – ulug' bitig, *KI-III, Kc* – toshning taroshlangan qirralari va ters tomonidagi yozuv. Nashrlari: Малов 1951, 19–55; Аманжолов 2003, 153–170; Содиков 2004, 96–112.

MTA – *Moğolistan'daki Türk Anıtları Projesi Albümü*. Hazırlayanlar: O.F. Sertkaya, C. Alyilmaz, T. Battulga. 2001. Ankara.

Orhun – Orhun. 1995. *Moğolistan Tarihi Eserleri Atlası*. Ankara.

T – *To'xtamish xonning Yag'ayliga yo'llagan bitigi*: Содиков 2016, 120–123.

X – Bilga xoqon bitigi: *X* – toshning yuz tomonidagi yozuv, *Xa, Xb* – ikki yonboshidagi yozuv, *Xc* – toshning ters yog'idagi yozuv, *XI-II* – taroshlangan qirralaridagi yozuv. Nashri: Содиков 2004, 112–120.

III – *Shohruh mirzo yorlig'i*: Содиков 2013, 117–123.

II

- Аманжолов, А.С. 2003. *История и теория древнетюркского письма.* Алматы.
- Малов, С.Е. 1959. *Памятники древнетюркской письменности.* Москва–Ленинград.
- Малов, С.Е. 1959. *Памятники древнетюркской письменности Монголии и Киргизии.* Москва–Ленинград.
- Orkun, Hüseyin Namık. 1987. *Eski Türk Yazitları.* Ankara.
- Sertkaya, O.F. 1995. *Göktürk Tarihinin Meseleleri.* Ankara.
- Содиқов, Қ. 2004. *Кўк турк битиглари: матн ва унинг тарихий талқини.* Тошкент.
- Содиқов, Қ. 2008. *Қадимги турк фалсафаси.* Тошкент.
- Содиқов, Қ. 2013. *Олтин йўрда ва Темурийлар даврида яратилган туркӣ ёрлиқлар: тарихий-филологик талқин.* Тошкент.
- Содиқов, Қ. 2016. *Илквайрта асрларда яратилган туркӣ ҳужжатлар.* Тошкент.
- Содиқов, Қ., Омонов Қ. 2010. *Ўзбек тилининг ёзма услублари тарихидан.* Тошкент.
- Tekin, Talat. 2010. *Orhon Yazitları.* 4. Baskı. – Ankara.

K. Sadikov

(Tashkent, Uzbekistan)
kasimjonsadikov@gmail.com

The Inscriptions On The Gravestones Of Kultegin And Bilga Khan: Reading And Interpretation Of The Texts

Abstract

The inscriptions Kul Tigin and Bilga-kagan are one of the most ancient monuments of ancient Turkic historiography, as well as written literature and the literary language. The historian and writer Yollug Tigin used his knowledge and skills to write this monument. The structure of the epigraphic text is ideal and very complex.

Most of these texts were spoken from the mouth of Bilga Kagan. The writer Yollug Tigin wrote the text of the stele that his father uttered. Three years later, after the death of Bilga Kagan, Yollug Tigin himself wrote this inscription. Kagan took the speech written for the previous monument and included it here. However, the next part is not a literal repetition of the previous text, but a revised, edited, finished version of the author. This is the first, but also a wonderful example of the art of text editing.

From the texts of Kul Tigin and Bilga Kagan, you can find out what

appeal to the people. This official appeal marks the beginning of the call, namely the name *Täjri-täg Täjri yaratmiş türk Bilgä qayan sabım*. Kagan began all international and diplomatic letters, appeals to the people with this title.

The title of Bilga Kagan is the first, but also a classic example of medieval Turkic titles. All its components are completely compact and elegant. This indicates a high level of documentation of the ancient Turkic language.

The title of Bilga Kagan was not only a model of the era of his time, but also served as a model and standard for all official medieval documentary labels. The traditions of the Kok-Turkic documentary tradition continued throughout the following centuries. The owners of the Turkic Kaganate and states began their labels with such titles.

Key words: *Turkic manuscripts, manuscript, epographics; text editing; text interpretation; formal style, art style; the label, the initials of the labels.*

About the author: *Qosimjon Sodiqov* – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent State University Of Oriental Studies.

Recommended citation: Sodiqov, Qosimjon. 2020. "Kul Tigin va Bilga xoqon bitiglari: matnlarning o'qilishi va talqinlari". *Oltin bitiglar* 1: 3–21.

References

I

- AS – Sulton Abu Saidning turk sultoni Hasan begga yo'llagan maktubi: Sodiqov 2013, 130–142.
- BN – Zahiriddin Muhammad Bobur. 1989. *Boburnoma*. Toshkent.
- DTS – *Drevnetyurkskiy slovar*. 1969. Leningrad.
- K – Kul tigin bitigi: *Ka* – kichik bitig, *K*, *Kb* – ulug' bitig, *K.I-III*, *Kc* – toshning taroshlangan qirralari va ters tomonidagi yozuv. Nashrlari: Malov 1951, 19–55; Amanjolov 2003, 153–170; Sodiqov 2004, 96–112.
- MTA – *Moğolistandaki Türk Anıtları Projesi Albümü*. Hazırlayanlar: O.F. Sertkaya, C. Alyilmaz, T. Battulga. 2001. Ankara.
- Orhun – Orhun. 1995. *Moğolistan Tarihi Eserleri Atlası*. Ankara.
- T – *To'xtamish xonning Yag'ayliga yo'llagan bitigi*: Sodiqov 2016, 120–123.
- X – Bilga xoqon bitigi: *X* – toshning yuz tomonidagi yozuv, *Xa*, *Xb* – ikki yonboshidagi yozuv, *Xc* – toshning ters yog'idagi yozuv, *X.I-II* – taroshlangan qirralaridagi yozuv. Nashri: Sodiqov 2004, 112–120.
- Sh – *Shohruh mirzo yorlig'i*: Sodiqov 2013, 117–123.

II

- Amanjolov, A.S. 2003. *Istoriya i teoriya drevnetyurkskogo pisma*. Almatы.
- Malov, S.Ye. 1959. *Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti*. Moskva-Leningrad.
- Malov, S.Ye. 1959. *Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti Mongolii i Kirgizii*. Moskva-Leningrad.
- Orkun, Hüseyin Namık. 1987. *Eski Türk Yazitları*. Ankara.
- Sertkaya, O.F. 1995. *Göktürk Tarihinin Meseleleri*. Ankara.
- Sodiqov, Q. 2004. *Ko'k turk bitiglari: matn va uning tarixiy talqini*. Toshkent.
- Sodiqov, Q. 2008. *Qadimgi turk falsafasi*. Toshkent.
- Sodiqov, Q. 2013. *Oltin O'rda va Temuriylar davrida yaratilgan turkiy yorliqlar: tarixiy-filologik talqin*. Toshkent.
- Sodiqov, Q. 2016. *Ilk va o'rta asrlarda yaratilgan turkiy hujjatlar*. Toshkent.
- Sodiqov, Q., Omonov Q. 2010. *O'zbek tilining yozma uslublari tarixidan*. Toshkent.
- Tekin, Talat. 2010. *Orhon Yazitları*. 4. Baskı. – Ankara.

Sh. Amonov

(*Toshkent, O'zbekiston*)

amanov@navoiy-uni.uz

Ahmad Tabibiy ijodi va uning “Munisu-l-ushshoq” devoni nusxalari

Abstrakt

Ahmad Tabibiy XIX asr oxiri – XX asr boshi o'zbek adabiyotining faol vakillaridan hisoblanadi. Tabibiy tarjimon, dostonnavis, tazkiraganavis, sifatida tanilgan. U mumtoz adabiy an'analarni munosib davom ettirdi, beshta she'riy devon tartib berdi. Hozirgi kunda shoir asarlari manbalari respublikamizdagi turli kutubxona va fondlarda saqlanmoqda.

Ayniqsa, shoirning o'z zamonusi adabiy hayotini yoritib beruvchi tazkira asari, qardosh xalqlar adabiyoti va so'z san'atkorlari ijodini xalqimizga tanitish borasidagi xizmatlari katta ahamiyatga ega. Ahmad Tabibiy mumtoz ijodkorlar an'analarni davom ettirib, deyarli barcha janrlarda ijod qilgan. Hatto uning ijodida boshqa shoirlar ijodida kuzatilmaydigan o'ziga xos janr namunalari bor.

Ushbu maqolada adabiyotshunosligimiz tarixida Xiva adabiy muhitining peshqadam ijodkorlaridan bo'lgan zullisonayn shoir Ahmad Tabibiy asarlari manbalari, shoir ijodining o'rganilishi, adabiy ta'sir masalalari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, maqolada Ahmadjon Tabibiy ijodi, xususan, shoirning turkiy tildagi lirik asarlari jamlangan “Munisu-l-ushshoq”¹ devoni hamda devonning toshbosma nusxasi ilmiy

1 Ma'lumki, adabiyotimiz tarixida Shermuhammad Munis shu nomda devon tartib bergen. Ahmad Tabibiy ham devonlaridan birini “Munisu-l-ushshoq” nomi bilan atagan. Tabibiy bu haqda asar debochasida quyidagi ma'lumotni beradi: "...bu faqir qo'lida jam' bo'lg'on mudavvan kitobning jumlesi besh devodurkim, uch devon turkiy lafzi bila fasohatorodur va ikki kitob forsiy alfozi bila balog'at payrovdir. Avvalg'i devong'akim sultoni oliyoh janobi mu'allo alqobig'a hadyalig' sababidin “Tuhfatu-s-sulton” deb tasmiya qilindi. Va ikkinchi devong'a ushshoq unsiyati jihatidin “Munisu-l-ushshoq” ismi bila musammo bo'ldi. Va uchlanchi devong'a ishq holotin mu'oyana ko'rguzgvuchi vajhidin “Mir'otu-l-ishq” oti bila mavsum etuldi. To'rtlanchi devong'a oshiqlar o'qub mutolaa qilur hangomlarida hayratfazolig' mavjubi bila “Hayratu-l-ushshoq” deb ism berildi. Beshlanchi devoni bedillar ishtyoqi jilvagohi bo'lg'on boisi bila “Mazharu-l-ishtyoq” deb ataldi”.

tavsifi amalga oshirilgan. Devonning qo'lyozma va bosma nusxalari o'rtasidagi farqli jihatlar haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, Tabibiy ijodiy merosi jamlangan manbalar, shoir lirikasining janrlar ko'lami haqida ham fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ahmad Tabibiy, shoir, devon, "Tuhfatu-s-sulton", "Munisu-l-ushshoq", "Hayratu-l-oshiqin", to'plam, bayoz, manba, matn, janr, debocha, shir-u shakar, bahri tavil, qasida.

Muallif haqida: Shermuhammad Amonov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: Amonov, Shermuhammad. 2020. "Ahmad Tabibiy ijodi va uning "Munisu-l-ushshoq" devoni nusxalari". *Oltin bitiglar* 1: 22—42.

Kirish

Ahmad Tabibiy XIX asr oxiri, XX asr boshi o'zbek adabiy harakatining peshqadam vakillaridan biri. Tabibiy shoir, tarjimon, xattot, dostonnavis, tazkirananavis, tabib sifatida tanilgan bo'lsa-da, uning shoir sifatidagi iqtidori yuksak bo'lgan. Zero, u mumtoz adabiy an'analarni munosib davom ettirgan, an'anaga muvofiq forsigo'y va turkigo'y salaflariga o'xshatmalar yozgan. U go'zal va betakror lirik badiiyat namunalari bitish barobarida zamondosh shoirlar she'rlariga o'xshatmalar yozish orqali o'zining she'riy iqtidorini namoyon etdi. Bu fikrni uning turkiy tildagi "Tuhfatu-s-sulton", "Munisu-l-ushshoq", "Hayratu-l-ushshoq"¹ devonlari, fors-tojik tilida tuzilgan "Mir'otu-l-ishq" va "Mahzaru-l-ishtiyoq" devonlari ham tasdiqlaydi. Bundan tashqari, shoirning Xorazm shoirlari tazkirasini tuzgani (she'riy usulda), "Vomiq va Azro" dostonining o'zbekcha variantini (she'riy usulda) yozganligi, ozarbayjonlik shoir Muhammad Fuzuliyning "Haft jom" asarini forsiyidan o'zbekchaga tarjima qilib, shu tarjima ta'sirida o'zining "Yetti ravza" nomli asarini (asarning asosiy qismi she'riy usulda) yozganligi ham Tabibiyning shoirlilik salohiyati naqadar baland bo'lganini ko'rsatadi.

1 Yuqoridagi iqtibosga qarang. Bu devon shu paytgacha "Hayratu-l-oshiqin" tarzi-da nomlanib kelgan.

Shoir ijodining manbalari va o'rganilishi

Adabiyotshunosligrimiz tarixida Fathulla G'anixo'jayev Ahmad Tabibiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqot yaratgan [G'anixo'jayev 1978, 80]. Ushbu tadqiqotida olim Tabibiyning hayot yo'li, asarlari, ularning manbalari, shoir ijodining janrlar ko'lami, mavzu mundarijasi, adabiy ta'sir kabi masalalar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ayniqsa, olimning Tabibiy asarlari mavjud 20 ga yaqin qo'lyozma va toshbosma manbalar borligini aniqlagani, shoir lirik asarlaridan ayrimlarini tabdil qilib, nashr ettingani (15 ta g'azal, 11 banddan iborat bir murabba', 7 banddan iborat bir muxammas, 2 ta Navoiy g'azaliga, bitta Lutfiy g'azaliga, bitta Fuzuliy g'azaliga, bitta Munis g'azaliga, bitta Ogahiy g'azaliga, bitta Komil g'azaliga, bitta Avaz g'azaliga bog'langan muxammaslar, 5 banddan iborat bir musaddas, 7 banddan iborat bir musamman, 4 banddan iborat bir muashshar, 18 ta ruboiy, 2 ta to'rt misrali qit'a) e'tiborlidir [G'anixo'jayev 1978, 232]. Biroq bu boradagi ishlar hali yakuniga yetgani yo'q.

So'nggi olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bu yo'nalishdag'i ilmiy ishlarni davom ettirishni taqozo etadi. Mazkur ehtiyoj quyidagilar bilan izohlanadi:

birinchidan, beshta devon tartib bergen shoir asarlaridan nashrga tayyorlangan namunalarning soni ellikta (lirik asar)ga yetmaydi. Nashr etilgan 30 ga yaqin she'r namuna tarzida berilgan;

ikkinchidan, Ahmad Tabibiy hayoti va ijodiga doir manbalar to'liq to'plangani yo'q. Shoirning biografiyasiga doir ayrim ma'lumotlar umumlashtirilib, ularga aniqlik kiritilishi kerak;

uchinchidan, Tabibiy ijodi namunalari uchraydigan manbalar (to'plam va bayozlar) to'liq o'rganilib, jamlanmagan;

to'rtinchidan, shoirning turkiy devonlaridan biri – "Tuhfatu-s-sulton"ning taqdiri noma'lum.

Bu borada adabiyotshunos olim F.G'anixo'jayevning quyidagi ma'lumotlari e'tiborli: "Tabibiyning birinchi devoni "Tuhfatus-sulton" Dushanbedagi A.S.Semyonov uy-muzeyida, qolgan to'rt devonining bir necha qo'lyozma va toshbosma nusxalari O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslilik institutida saqlanadi. "Tuhfatu-s-sulton"ning so'z borayotgan yagona nusxasi 1328 (1910)-yilda kotib Muhammad Yoqub Devon ibn Usta Qurbonniyoz Xorazmiy tomonidan ko'chirilgan. Asar 464 sahifadan iborat. Shoirning "Munisul-ushshoq" (Oshiqlar do'sti) nomli ikkinchi devoni o'zbek tilida yozilgan bo'lib, 1327 (1909)-yilda kotib Bobojon Tarro ibn Abdulaziz Maxsum tomonidan ko'chirilgan. Asar 382 sahifadan iborat. Shu qo'lyozmaning to'la holdagi nusxasi 1328

(1910)-yilda Xivada toshbosmada bositgan. Tabibiyning uchinchi devoni "Mir'otul-ishq" (Ishq oynasi) esa fors-tojik tilida tuzilgan. U 1327 (1909)-yilda kotib Mulla Ibrohim ibn Domla Qalandarhoji tomonidan ko'chirilgan. Asar 204 sahifadan iborat. Qo'lyozmaning bu nusxasi ham Xivada toshbosmada bositgan. Shoирning "Hayratul-oshiqin" (Oshiqlarning hayratlanishi) nomli devoni o'zbek tilida yozilgan. Uni 1326 (1908)-yilda kotib Bobojon Tarro ibn Abdulaziz Maxsum ko'chirgan. Qo'lyozma 490 sahifadan iborat. Tabibiyning "Mazharul-ishtiyoy" (Ishtiyoy makoni) nomli so'nggi devoni fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, u 1327 (1909)-yilda kotib Mulla Ibrohim ibn Domla Qalandarhoji tomonidan ko'chirilgan. Asar 550 sahifadan iborat. Qo'lyozmaning bu nusxasi ham Xivada toshbosmada bositgan. Tabibiyning butun adabiy merosi, jumladan, uning devonlari shoир umrining so'nggi yillari, ya'ni 1906 – 1910 yillar mobaynida ko'chirilib chop etilgan. Bunga qadar Tabibiyning lirik asarlari o'sha davrda tuzilgan turli bayozlarga kiritilgan. Bulardan tashqari, faqat Tabibiy g'azallarini o'z ichiga olgan alohida to'plamlar ham mayjud edi. Masalan, 1906-yilda kotib Muhammad Yoqub Devon tomonidan tuzilgan qo'lyozma to'plamda Tabibiyning 173 ta o'zbekcha va tojikcha g'azali bor. Shuningdek, 1907-yilda Muhammad Sharif Devon Tabibiyning o'zbekcha g'azallaridan yana uchta to'plam tuzgan. Ularga shoирning 480 she'ri kiritilgan" [G'anixo'jayev 1978, 14].

Bundan tashqari, izlanishlarimiz natijasida O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan №1127 inventar raqamli "Bayozi muxammasot", №1133 inventar raqamli "Bayozi musaddasot", №1182 inventar raqamli "Bayozi ash'or" kabi manbalarda ham Tabibiy ijodidan namunalar kiritilgani aniqlandi.

So'nggi olib borgan kuzatuvlarimiz natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, shoирning "Tuhfatu-s-sulton" devoni O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida uchramadi. Biroq "Tuhfatu-s-sulton" devoni haqidagi F.G'anixo'jayevning "Tuhfatus-sulton"ning so'z borayotgan yagona nusxasi 1328 (1910) yilda kotib Muhammad Yoqub Devon ibn Usta Qurban niyozi Xorazmiy tomonidan ko'chirilgan. Asar 464 sahifadan iborat" tarzidagi mulohazasi biroz taajjubli. Chunki bu devon haqida keltirgan ma'lumotning manbasini F.G'anixo'jayev ko'rsatib o'tmagan. Umuman olganda, shoир asarlari manbalari nafaqat yurtimizda, balki boshqa Respublikalar fondlarida ham saqlanayotgani, avvalo, bu manbalarni jamlab, so'ng ular yuzasidan

ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifasini kun tartibiga qo'ymoqda.

"Munisu-l-ushshoq" devonining toshbosma nusxasi

Ahmad Tabibiyning turkiy tilda tartib bergan devonlaridan biri "Munisu-l-ushshoq" hisoblanadi. Darhaqiqat, shoirning "Munisul-ushshoq" (Oshiqlar do'sti) nomli ikkinchi devoni 1327 (1909)-yilda kotib Bobojon Tarro ibn Abdulaziz Maxsum tomonidan ko'chirilgan. Devon 1328 (1910)-yilda Xivada toshbosmada bositgan. Devonning qo'lyozma va toshbosma variantlari O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi.

"Munisu-l-ushshoq" devonining qo'lyozmasi O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida №3461 inventar raqam ostida saqlanadi. Qo'lyozma devon 504 g'azal, 3 mustazod, 3 murabba', 53 muxammas, 7 musaddas, 1 musabba', 1 musamman, 1 mutassa', 1 muashshar, 1 tarjeband, 5 soqiynoma (masnaviy), 145 ruboiy, 2 qasida, 6 mulamma g'azal, 2 varsaqi, jami – 735 she'rdan tarkib topgan. Bu she'rlar qo'lyozmada quyidagi sahifalarda keladi: g'azal – 1^b-130^b sahifalarda, mustazod – 131^a-132^a sahifalarda, murabba' – 132^a-134^b sahifalarda, muxammas – 135^a-165^b sahifalarda, musaddas – 165^b-170^a sahifalarda, musamman – 171^b-172^b sahifalarda, mutassa' – 172^b-173^a sahifalarda, muashshar – 173^a-173^b sahifalarda, tarjeband – 173^b-174^b sahifalarda, soqiynoma (masnaviy) – 174^b-182^a sahifalarda, ruboiy – 182^a-192^b sahifalarda, qasida – 192^b-194^b sahifalarda, mulamma g'azzallar – 194^b-195^b sahifalarda va varsaqlilar – 195^b-196^b sahifalarda joylashgan.

Ushbu qo'lyozma devon 1^b-sahifadagi

ای وجودینگ غه ايماس ظاهر زمانی اپتیدا
ایله کیم ارماس انگا موجود وقت انتها

Ya'ni

*Ey vujudingg'a emas zohir zamoni ibtido,
Uylakim ermas anga mavjud vaqtı intiho, –*

matla'si bilan boshlangan. Qo'lyozmaning oxiri esa 196^b sahifadagi:

طبعى دىك بولور البتە گريان
اول عاشق كيم يارى عتاب ايلاميش

Ya'ni

Tabibiydek bo'lur albatta giryon,

Ul oshiqkim yori itob aylamish, –

bayti bilan yakunlangan.

Qo'lyozmaning so'ngida (197^a - sahifa) esa quyidagi parcha keltirilgan. Ya'ni kolofon quyidagicha:

ظل السبحان خليفة الرحمن بافت الامن و الامان اعني ابوالمظفر والمنصور
ابو الغازى سيد محمد رحيم بهادر خان ثانى دام دولته و شوكته نينگ فرمان عالي لارى بيله
اوшибو ديوان طبىبى نى كيم سنه ١٣٢٧ نچى يىلى ماه ربى الثانى نى يىگرمە سكزىدا سەشنبە^ه
كونى باباجان مخذوم ديوان طرا ابن عبدالعزيز مخذوم مرحومى يازىب اتمام غە بتکوردى

(Zillu Subhon xalifai Rahmon bofasu-l-amni val-amon a'na Abulmuzaffar va al-Mansur Abulg'ozi Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon soniy doma davlatuhu va shavkatuhuning farmoni olıylari bila ushbu devoni Tabibiynikim sanai 1327 nchi yili mohi rab'I us soniyni yigirma sakkizida seshanba kuni Bobojon Maxzum Devon Tarro ibn Abdulaziz Maxzum marhumi yozib itmomg'a yetkurdı).

Matn qora siyohda fabrika qog'oziga ko'chirilgan. Nasta'liq xatida ikki ustunli jadval ichiga chiroqli husnixat bilan yozilgan bo'lib, har sahifa o'rtacha 21 satrdan tarkib topgan. Har bir sahifa raqamlangan. Sahifa raqami varaqning yuqori chap tomonida berilgan. Shuningdek, she'rlar ham alohida raqamlangan.

Devondagi taxmislар ham sarlavhalangan. Ya'ni shoир kimning g'azaliga taxmis bog'lagan bo'lsa, o'sha shoirlar nomini keltirib o'tadi. Masalan, devonda Tabibiyning Navoiy, Ogahiy, Feruz, Fuzuliy, Munis, Sultoniy, Mirzo, Ravnaq, Rojiy, Hayoliy, G'ulomiy, Adliy, Nadimiy va boshqa shoirlar g'azallariga bog'lagan taxmislар uchraydi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida №8949 inventar raqam ostida saqlanayotgan toshbosma manbada Ahmad Tabibiyning ikkita turkiy devoni jamlangan. Bular "Munisu-l-ushshoq" va "Hayratul-oshiqin" devonlaridir. Ushbu manbada toshbosmaning qachon va qayerda bosilgani haqida hech qanday ma'lumot berilmagan. Ushbu toshbosma manba shoир qalamiga mansub maxsus debocha "Debochayi Tabibiy" bilan boshlanadi. Ya'ni "Debochayi Tabibiy" deb sarlavha qo'yilib, so'ng "Bismillahir-Rahmonir-Rahim" yozilib, kattagina debocha keltiriladi. Debocha matni 11 sahifani tashkil etadi. Debocha matni o'rtacha bir sahifada 23 satrni tashkil etadi. Ushbu debocha nasriy usulda yozilgan bo'lib, "*Hamdi bag'oyat va sanoyi benihoyat ul mutakallimi kalomi ofarin va qoyili kitobi Furqoni mubiyn dargohig'a loyiq va sazovor va borgohig'a tuhfa va nisordurkim mumkinot nazmin adami tab'idin qudrat aruzi kamoli bila vujud devonig'a keltirdi inson vujudi majmuasi g'azaliyotig'a borcha*

masnuotdin ziyodaroq badoe' va sanoe' izhor etib tilin anvoi' suxanni sanjida qilmoqg'a loyiq erkanin bildurdi nazm qodirikim hama jahon yaratib, onda har nav' ins jon yaratib, borchadin ashraf aylab insonni, bildurub oncha roz pinhonni, ko'nglin etti ulumg'a loyiq tilini qildi nuktaga notiq, toki hamdig'a bo'lsun ul zokir, borchha ahvolig'a bo'lub shokir, budurur qudrat Xudoyi Karimki erur vasf ongo sami'un aliyim har nekim bordur oshkor-u nihon borchasi keldi onisun'i O'g'on shohidi sun'i keldi masnuot mazhar ilmi jumla ma'lumot jalla jalaluhu va 'amma navaluhu bisyor salavot amta'si beshumor tahiyyat madoyasi ul nubuvvat sariri amirining janobinig'a iysor va ul risolat haylining dilpazirishoni arsh maobig'a hadyai takror alat takrordurkim "Ana afsahu..." gulistonining bulbuli fasihul bayonidur va "Ana malihu..." shakkaristonining tutiyi shirin maqoli va malihlisonidur bovujud muncha fasohat va balog'at va muncha mu'allo daraja va rajha va martabat bila ham "Alfaqru faxri" hadisig'a notiq "Ma 'arafnaka haqqa ma'rifatika" mazmunig'a shoyiq erdi "Ya ayyuhar rasulu ballig' ma unzila ilayka..." karimasi mazmunining xitobi mustatobi mo'jibincha kutubi osmoni va suhufi Rabboniyning mazomini aynaqa va ma'niyi daqiqasinkim xotiri xurshid mazohiri anche muttale' va muttabe' erdi..." deb boshlanadi [Tabibiy 1968, 1-2]. Debocha nasriy va nazmiy usulda bitilgan. Debochadagi ilk nazmiy asar quyidagi she'r bilan boshlanadi:

Nazm:

*Rasulikim edi guftori afsah,
Oning har lazzati ming jondin amloh.*

*Hama hayli rasulning podishohi,
Bo'lub makshuf asrori ilohiy.*

*Boshida garchi erdi toji "Lav lak...",
Tilida erdi lekin "Ma 'arafnok".*

*Kelib husni mah avji hidoyat,
Dog'i shahanshoji mulki risolat.*

*Guvohi nuri husni "Va-z-zuho"dur,
Sochi "Va-l-layl" ta'rifi bajodur.*

"Fauhiya" sharbatidin la'li shirin,

Ko'zi "Mazog'a-l-basar"ga keldi tazyin.

Oningdek rutbayi oliyg'a yetdi,
Nabiylarni o'zig'a chokar etdi.

Erur chun manzilatda shohi kavnayn,
Kelib qurbig'a shohid "Qobi qavsayn".

Uruj etkan chog'ida shomi Me'roj,
Anga bo'ldi munavvar dini minhoj.

Jami mo'jizoti mo'tabardur,
Biri ul jumlaning shaqqul qamardur.

Bayong'a nechakim til bo'lsa mohir,
Erur ta'rifin aylar chog'da qosir.

Ilohi ul habibing hurmatidin,
Oni topqon maqomi rif'atidin.

Nasibim izni andin qil inoyat,
Ki ya'ni ro'zi Mahsharda shafoat.

Nechakim bor euru af'olimiz shum,
Vale sen qilma andin mahrum.

So'ng nasr va nazmda bitilgan to'rt halifa, shaxzoda Hasan va shaxzoda Husayn, keyin Feruz madhi keltiriladi.

Debochaning oxiri "... Allohumma ur-zuqna min ne'matihil uzma va ja'alni min davlatil kubro. Amin va yo Robbal a'lamin" deb yakunlanadi [Tabibiy 1968, 11]. Debochadan keyin ناوی د "قاشعالا سنومب امسن یکرت یبی بط" (Devoni Tabibiy turkiy musammo bamunisu-l-ushshoq) deyilib, so'ng "basmala" bilan hamd mazmunidagi g'azallar keltiriladi. Jumladan, birinchi g'azal quyidagicha bo'lib, u g'azalning qo'lyozma varianti bilan bir xil¹:

Ey vujudingg'a emas zohir zamoni ibtido,
Uylakim ermas ongo mavjud vaqtி intiho.

Kunhi zoting'a yetushmak kimsaga mumkin emas,
Kim oning fikrida doim aql erur angushtxo.

1 G'azal matni ilk bor e'lon qilinmoqda.

*Aylabon har lahzada izhori san'at qudrating,
Qildi ikki harfdin ijod kulli mosivo.*

*Johil-u dono borisi ne'mating mammunidur,
Ham erur ma'muri amring shoh bo'lsun gar gado.*

*Ne xarobot ahli lutfingdin qilur qat'i umid,
Yetmasa lutfing bahoridin nasimi jon fizo.*

*G'unchayi baxtim ochilmoqliqg'a imkon qaydadur,
yetmasa lutfing bahoridin nasimi jon fizo.*

*Bo'lmisham misli Tabibiy zori bemori gunah,
Qil karam, yo Rab, davoyi tavbadin emdi shifo.*

"Munisu-l-ushshoq"ning ushbu toshbosma variantida (№8949) negadir g'azallar soni 607 tani tashkil etadi. Qo'lyozmada esa 504 ta g'azal mavjud. Har bir g'azal raqamlangan. Devondan o'rin olgan oxirgi g'azal matni quyidagicha:

*Dedi: Ko'zung ravshan nedin? Guftamki: Zi ruxsori shumo,
Dedi: Kim(n)ing maftunisan? Guftam: Giriftori shumo.*

*Dedi: Nechun bemorsan? Guftam: Zi dardi hajri tu,
Dedi: Mahvashing oldi ne? Guftam: Giriftori shumo.*

*Dedi: Sanga ne yetmadi? Guftam: Zi tui lutfi karam,
Dedi: Sanga ne yetgusi? Guftamki: Ozori shumo.*

*Dedi muroding ne erdi? Guftamki: Bazmi vasli tu,
Dediki: Bu ish kimgadur? Guftamki: In kori shumo.*

*Dedi: Oningdek kimdurur? Guftam: Sagoni ko'yи tu,
Dedi: Seni kim injitur? Guftamki: Ag'yor shumo.*

*Dedi: Mamoting ne erur? Guftam: Nigohi chashmi tu,
Dedi: Nechuk jon topg'asen? Guftam: Zi guftori shumo.*

*Dedi: Tabibiy kim ekan? Guftamki: Noloni bulbulat,
Dedi: Chekar qayda navo? Guftamki: Gulzori shumo.*

Savol-u javob tarzida yozilgan ushbu mulamma g'azal *rajazi musammani solim* vaznida yozilgan. Ushbu she'r Tabibiyning "Tanlangan asarlar"ida ham nashr etilgan [G'anixo'jayev 1978, 29]. Yetti baytli bu she'r nashrda nima uchundir olti yarim bayt bo'lib qolgan. Asliyat bilan qiyoslash orqali she'r matnidan bir misra nashrda qisqartirilganini kuzatish mumkin. Ya'ni to'rtinchi misra (*Dedi: Mahvashing o'lди ne? Guftam: Giriftori shumo*) nashrda qolib ketgan. Shuni ham ta'kidlash zarurki, shoirning "Tanlangan asarlar"i adabiyotshunos F.G'anixo'jayev tomonidan 1968-yilda nashrga tayyorlangan. Ushbu nashrga shoirning o'sha mafkura mezonlariga mos keladigan 15 g'azali, murabba', muxammas, musaddas, musamman, muashshar, ruboiy va qit'a kabi lirik asarlaridan namunalar kiritilgan. Bu nashrning asosiy qismi Tabibiyning "Vomiq va Azro" dostoniga bag'ishlangan.

"Munisu-l-ushshoq"ning ushbu toshbosma variantidagi g'azallar yuqoridagi "shumo" radifli shir-u shakar yo'lida yozilgan g'azal bilan yakunlanadi. Har sahifa o'rtacha 23 satrdan iborat. Bunda ham devonning qo'lyozma nusxasidagi kabi g'azallardan so'ng, ikkita varsaqi keltiriladi. To'qqiz banddan iborat birinchi varsaqi quyidagi band bilan boshlanadi:

*Bir ko'rsatib jilva birla jamoling,
Qilding mani asru hayron, dilbarim.
Emdi ko'nglumdadurur doim xayoling,
Jon tutqondek tanda makon, dilbarim.*

Ikkinci varsaqi esa:

*Rahm aylagil menga ey mehribonim,
Kim hajring holimni xarob aylamish.
O'rtanib shavq o'ti ichida doim
Ko'zumni doimo purob aylamish, -*

tarzida boshlanadi.

Shu o'rinda, shoir "Munisu-l-ushshoq" toshbosma varianti debochasida quyidagi muhim fikrlarni qayd etadi: "*Alqissa, 'Al ma'muru ma'zurun'* hadisi muqtazosincha bu xizmati zi saodatni joni ko'ngul bila qabul qildim. Bu farmoni vojibul iz'oni bitkargali boshdin qadam qilib bildim o'n nav'i nazmkim tushib g'azal, mustahzod, musammat, ya'ni murabba'dan to muashsharg'acha, tarje'band, qasida, masnaviy, ruboiy, qit'a, fard itloq qilurlar. Jam'i o'n

rang guldurkim tabiat gulistonidin terdim va anjuman aro chaman bog'lab huzuru vofirus sarvarig'a yetkurdum. Hazrati vohibul atoyo va g'ofirul xatoyodin umid qilurmenkim, maqbuli tab'i anvari va matbu'i xotiri safoparvari qilg'ay", - deya o'nta janrda ijod etganiga ishora qiladi[Tabibiy 1968, 9].

Agar Tabibiy lirik merosi janriga ko'ra tasnif etilsa, shoir ijodida g'azal, fard, ruboiy, qit'a, tuyuq, chiston, murabba', muxammas, musaddas, qasida, tarje'band, mustazod, dahrnama, musamman, soqiynoma, shir-u shakar, musabba', mutassa', muashshar, bahri tavil kabi namunalar borligi ayon bo'ladi. Bu esa shoir ijodi keng ko'lamli tadqiqotlar uchun obyekt bo'la olishini ko'rsatadi.


Biz tahlil etayotgan "Munisu-l-ushshoq"ning ushbu toshbosma varianti (№8949) so'ngida shoirning quyidagi bir bahri tavili berilgan:

*Yurur erdim firoqi shomida qayg'u chekib tinmay dame kuy
mak bo'lub odat manga,
Ey do'stlar, holi zabunlig'lar bila ohi fig'on aylab malomat
toshidin jismim
Bo'lub majruh, jonimg'a yetib illat, zamirimg'a necha kulfat
tushub o'makka maqrunk
Aylabon bag'rimni qon aylab. Va lekin shukrkim, ushbu kecha
ul nozanin gulbadan
Rasmi vafou mehr-shafqatni qilib zohir meni mahzunig'a be
haddi son ag'yordin pinhon.
Jamolini ochib yorutg'ali tiyra ko'zum kulbamg'a keldi yuz
ado-u g'amza birla boqibon
Har yong'a sarvi oso niholi qomatin tez ravon aylab kelib
yonimda o'lturdi,
So'rub holi xarobimni gah: "Ey mahzuni shaydo oshiqim, man
siz nechuk o'tdi tuning
Birla kuning mehnat chekib bo'ljadi emin. Ko'zingdin ne sifat
daryolar oqti,
Orazim hajrida bag'ring qon bo'lub la'lim g'amida xo'ru xo
bingdur nechuk bilkul manga
Ayg'il borisini bayon aylab"...*

Ushbu manba:

*Har duo qilsa malolikdin yetur omin anga,
Toki omin duo xalq ichra topg'ay ishtihor, -*

maqta'li qasida bilan yakunlanadi.



1-rasm

Shoir ijodida adabiy ta'sir masalasi

Ahmad Tabibiy o'zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan sermahsul ijodkorlardan. Zero, u o'zida boy adabiy meros qoldirdi. Tabibiy besh she'riy devon yaratib, mumtoz adabiy an'anani davom ettirdi. Jumladan, uning "Tuhfatu-s-sulton", "Munisu-l-ushshoq", "Hayratu-l-oshiqin" devonlari turkiy tildagi lirik asarlardan tarkib topgan bo'lsa, "Mir'otu-l-ishq" va "Mahzaru-l-ishtiyooq" devonlarida shoirning fors-tojik tilidagi she'riy asarlari jamlangan. Bundan tashqari, shoir "Vomiq va Azro" dostonining o'zbekcha she'riy

variantini yozdi. Ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliyning “Haft jom” asarini forsiydan o’zbekchaga tarjima qildi. Shu tarjimasi ta’sirida o’zining “yetti ravza” nomli asarini yozib, Xorazm shoirlari tazkirasini tuzdi [Tabibiy 1978, 3].

Adabiyotimiz tarixida atoqli adabiyotshunos F. G'anixo'jaev Ahmad Tabibiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqotida shoirning hayot yo'li, asarlari, ularning manbalari, shoir ijodining janrlar ko'lami, mavzu mundarijasi, adabiy ta'sir kabi masalalar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi [Tabibiy 1978, 80]. Ayniqsa, olimning Tabibiy asarlari mavjud 20 dan ortiq qo'lyozma va toshbosma manbalarni aniqlagani, ularni sinchiklab o'rgangani e'tiborlidir. Biroq keyingi olib borilgan tadqiqotlar bu boradagi ishlar davom ettirilishi kerakligini taqozo etmoqda.

Jumladan, Tabibiy ijodiga doir yuqoridagi tadqiqot sobiq tuzum davrida amalga oshirilgani, shoir shaxsiyati va asarlari tahlilidagi tendensioz talqinlar metodologik jihatdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Bundan tashqari, adabiyotshunos S. Matkarimovaning aniqlashicha, shoirning "xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi do'stlikni targ'ib qiluvchi, mehr-muhabbat, o'zaro ishonch va sadoqatni" madh etuvchi "Nozir va Manzur" dostoni ham mavjud [Matkarimova 2007, 14]. Shuningdek, Tabibiyning mamlakatimiz hamda boshqa xorijiy fondlarda saqlanayotgan asarlari manbalarini aniqlash, shoir devonlari va boshqa turkumdagi asarlarining qiyosiy-matniy tadqiqini amalga oshirish kabilarni e'tiborga olsak, bu borada qilinishi kerak bo'lgan vazifalar talaygina ekani ayon bo'ladi.

Tabibiy lirik merosini ham adabiy mezonlar asosida tadqiq etish shoir ijodini o'rganishda muhim o'rinni tutadi. Tadqiqotlardan ayon bo'lishicha, shoir ijodining eng kuchli ta'sir manbasi, shubhasiz, buyuk Navoiy ijodidir. Ko'plab ijodkorlar singari Tabibiy ham Alisher Navoiy ijodidan ta'sirlangan, o'zining turkum asarlarini yaratgan. Shoirning zamondoshi, rus sharqshunosi A. N. Samaylovichning ijodkor haqidagi quyidagi taassuroti ham fikrimiz dalilidir: "Shoirning mena o'z qalamkash birodarlarini "bularning hammasi uchun Mir Alisher Navoiy o'rnakdir, lekin hech biri uning iste'dodiga ega emas", - deb ta'riflaganidagi dilgir-nafratchan yuz ifodasi shundoq esimda" [Qosimov 1983, 42]. Bundan Tabibiyning Navoiy ijodiga naqadar ixlosmand bo'lganini sezish qiyin emas.

Bu hol, ya'ni ulug' mutafakkir ijodidan kuchli ta'sirlanish nafaqat Tabibiy ijodida, balki boshqa xorazmlik shoirlar ijodida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Umuman, Navoiydan so'ng, buyuk so'z san'atkoriga ergashish, undan ilhomlangan holda ijod etish, mumtoz

adabiy an'analarni davom ettirish odatiy holga aylangan. Ma'lumki, o'tgan asr boshlarida yurtimizda va, ayniqsa, Xorazmda Mir Alisher Navoiy asarlarining qayta-qayta chop etilishi, madaniy hayot rivojida katta ta'sir ko'rsatgan, adabiy jarayonni sifat jihatidan boyitgan. Bu hol hazrat Navoiy ijodidan ta'sirlanishning birinchi sababi bo'lsa ajab emas. Ammo Tabibiy ijodda Navoiy kabi badiiy mukammal asarlar yaratishga muntazam harakat qilgan. Shuningdek, shoir o'z asarlarini hazrat Navoiy asarlarida ilgari surilgan haqiqat vaadolat, xalqparvarlik, insonparvarlik g'oyalari bilan hamohang yaratdi. Ehtimol shundandir, boshqa ijodkorlar kabi Tabibiy ham ijodda hazrat Navoiyga ergashdi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Tabibiy umrining so'nggi yillarida besh devon tartib bergen. Bu devonlarning ayrimlari toshbosmada chop etilgan. Shoir devonlarining to'liq matniy tadqiqi amalgalashirilmagan esa-da, Tabibiy lirik asarlarining aksariyati shaklan va mazmunan hazrat Mir Alisher Navoiy asarlariga o'xshatmalar tarzida yozilganini kuzatish mumkin. Shuning barobarida, shoirning Sa'diy, Jomiy, Zebunniso va Mirzo G'olib she'rlariga fors-tojik tilida muxammaslar bog'lagani ma'lum. Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, uning ijodida ishq-muhabbat, haqiqat vaadolat, sadoqat yetakchilik qiladi. Biroq uning ilm-ma'rifikatni ulug'lovchi ijod namunalari ham borki, bu turkum asarlar Muqimiy, Furqat asarlariga mazmunan juda yaqin turadi [Tabibiy 1978, 46-47].

Tabibiyning dostonnavislik faoliyati

Tabibiy o'zining "Vomiq va Azro", "Yetti ravza", "Nozir va Manzur" asarlari bilan o'zbek dostonchiligi rivojiga hissa qo'shdi. Shoirning bu asarlarida ham sevgi-muhabbat, Vatanga, yorga, do'stga sadoqat, o'zaro ishonch, davlat va jamiyatda adolatlilik, ilm-ma'rifikat, odob-axloq, tarbiya, sabr-qanoat, xalqlar do'stligi kabi yuksak insoniy fazilatlar tarannum etiladi. Tabibiy dostonlari matni bilan tanishish beixtiyor Alisher Navoiyning "Lisonu-t-tayr", "Mahbubu-l-qulub" asarlarini yodga tushiradi. Ayniqsa, shoir dostonlari Navoiy "Xamsa"si tarkibidagi dostonlarning mantiqiy davomi sifatida tasavvur uyg'otadi. Negaki, ushbu dostonlar matnida Navoiy "Xamsa"sidan aynan misollar keltirilgan o'rinlarni uchratish mumkin.

Jumladan, shoir Navoiyning ilmga bo'lgan munosabatini o'zining "Yetti ravza" dostonida mantiqiy davom ettiradi. Asar ("Yetti ravza")ning ikkinchi bobiga ilm-ma'rifikat masalalariga bag'ishlanib, bunda shoir inson doimo ilm-ma'rifikat egallahsga jid-du jahd qilishi

kerakligi, ilmli kishi izzat-ikrom topishi haqida qarashlarini bayon etadi. Bob yakunida Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi ilm-ma'rifat tarannum etilgan "Imom Faxr Roziy bila Sulton Muhammad Xorazmshoh" haqidagi hikoyat aynan keltiriladi. Asarning uchinchi ravzasida shoir ta'magirlilikning insonga keltiradigan zarari va qanoatning foydasi haqida fikr yuritib, bob yakunida Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi ta'magir va qanoatli kishi haqidagi hikoyatni aynan keltirgan [Tabibiy 1978, 53].

Ahmad Tabibiyning "Vomiq va Azro" dostoni beixtiyor Navoiy "Xamsa"si tarkibidagi "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin" dostonlarini yodga soladi. Dostonda Tabibiy keltirgan Mehinbonu obrazi dono, oqila va maslahatgo'yligi bilan Navoiyning Mehinbonusiga aynan o'xshab ketadi. Shuningdek, dostonning ifoda uslubi ham "Farhod va Shirin" dostoni uslubi bilan deyarli bir xil.

Tabibiy - tazkiranavis

Ahmad Tabibiy Feruz ko'rsatmasiga binoan tazkira tuzgan. Garchi shoh ko'rsatmasiga ko'ra "Majmuayı si shuaroyi payravi Feruzshohiy" tazkirasi tuzilgan bo'lsa-da, majmuani yozilishiga ilhom baxsh etgan manba, shubhasiz, "Majolisu-n-nafois"dir. Jumladan, adabiyotshunos S.Matkirimovaning "Darhaqiqat, keyingi asrlarda o'zbek va tojik tillarida vujudga kelgan Malehoning "Muzakkiri as'hob" (Suhbatdoshlar zikri), Hasanxoja Nisoriyining "Muzakkir ul-ahbob" (Do'stlarning zikri), Mutribiy Samarqandiyining "Tazkirat ush-shuaro", Vozehning "Tuhfat ul-ahbob" (Do'stlarning tuhfasi), Fazliyning "Majmuayı shoiron" (Shoirlar to'plami) tazkiralari Navoiy an'analari ijodiy davom ettirildi. Tabibiy tuzgan tazkiralari ham bu vorisiylikning yorqin namunasidir" [Matkarimova 2007, 14], - degan e'tirofi o'rinnlidir.

"Majmuayı si shuaroi payravi Feruzshohiy" tazkirasining bir qo'lyozma nusxasi O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida №1152 inventar raqами bilan saqlanadi. Tabibiy tazkirasining bu qo'lyozma nusxasi hajman juda katta. Ushbu manba matni "basmala" va she'riy debocha bilan boshlanadi. Debochaning hajmi 300 misrani tashkil etadi. Tazkiradagi ilk nazm 12 baytli masnaviy va Feruzning "paydo" radifli g'azali bilan boshlanadi. Ma'lumki, ushbu manbada shoirning o'z she'rлaridan ham kiritilgan. Shuni alohida ta'kidlamoq kerakki, tazkira yuzasidan ayrim tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ushbu manbani matniy tadqiqi to'la amalga oshirilgani yo'q. Shu bois, quyida tazkiradagi shoir she'rлaridan ayrimlarininig tabdilini berishni lozim

topdik.

Quyidagi she'r Tabibiyning tazkiradagi 22-raqamli ilk g'azalidir:

G'azali Tabibiy

*Zihi bori qudrating osoridin kavn-u makon paydo,
Nabot-u ham, jamod-u ham jam'i ins-u jon paydo.*

*Borisi zotinga burhon erur, ey xoliqi akbar,
Emas behuda bo'lmoq san'atingdin bu jahon paydo.*

*Inoyoting vufurining nishonidur manga, yo Rab,
Bu kim nazm etkali jur'at qilurman har zamon paydo.*

*Xaloyiq naf'ig'a xohish etib, ey qodiri bechun,
Ki qilmish qudrating ilgi zamin-u osmon paydo.*

*Birovga mard yanglig' qomati zebo ato aylab,
Birovda qumridek qilding necha oh-u fig'on paydo.*

*Ito'ating bila ko'b kimsaga behbudlar hosil,
Dog'i ko'b kimsaga sarkashlik ila ko'b ziyon paydo.*

*Shafoati habibingni ato qil fazl birlakim,
Tabibiy osi(y)da bor jurmi isyon begaron paydo.*

Ko'rinaridiki, ushbu g'azal Feruz g'aliga o'xshatma tarzida yozilgan. Tazkirada she'rlar muallifi ko'rsatib borilgan. Shuningdek, g'azallardan oldin 2-4 baytli masnaviylar keltiriladi. Tazkirada shoir 2-g'azalini berishdan oldin quyidagi masnaviyni keltirган:

Masnaviy

*Tabibiy nechuk surgay uzun maqol,
Ki bu xayl aro bordur oshufta hol.*

*G'arazkim qilib jahdlar behisob
Bo'lub payravi Xisravi Jam janob.*

So'ng ushbu g'azal keltiriladi:

G'azali Tabibiy

*Yo rab etmak jurm subhi shom odatdur manga,
Yurgali yo'l borho dashti zalolatdur manga.*


*Tavba jomidin yeturgil shodlig' rahm aylabon,
 Kim nasibim jurmidin anduh-u kulfatdur manga.
 Afv-u g'ufroningni ro'zi qil manga behad-du son,
 Kim ko'ngilda jurmlar behaddu g'oyatdur manga.*

*Sen agar tutmas esang fazlingg'a men dilxastani,
 Qayda sud etkusidur gar ish ibodatdur manga.*

*Ne sanga maqbul o'lurg'a menda bor bir peshae,
 Ne janobing loyiqi zuhd-u itoatdur manga.*

*Hodi-yu lutfing bila yorutg'il emdi yo ahad,
 Kim ko'ngul g'aflatnishin shomi zulmatdur manga.*

*Qil rasulingni shafi'imkim, Tabibi zordek,
 Xotir ichra doim ummidi shafoatdur manga.*



Tazkiraning biz fikr yuritayotgan ushbu nusxasida Tabibiyning 100 ta g'azali kiritilgan. Jumladan, shoir she'rlari qo'lyozmada 22, 52, 82, 112, 142, 172, 202, 232, 262, 292, 322, 352, 382... tarzida raqamlanib (30 ta she'r farqi bilan ketma-ketlikda), 1415 ga kelib she'rlar raqamga olinmagan. 1441 dan boshlab she'rlar yana raqamlab ketilgan. Shu orada Tabibiyning ham (1422-raqamli) bir g'azali raqamlanmagan. Ushbu manbad shoirning so'nggi she'ri 3090-raqami bilan berilib, qo'lyozmaning oxiri 1714-sahifada shukrona mazmunidagi 64 misrali masnaviy bilan yakunlangan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Tabibiy tazkirasining matniy tadqiqi, ilm ahlini nafaqat shoir ijodi namunalari bilan, balki ko'plab yangi-yangi ijodkorlar va ular ijodiga mansub lirik asarlar bilan tanishtiradi.

Xulosa

Shoir devonlarining to'liq matniy tadqiqi hali-hanuz amalgaga oshirilgani yo'q. Biroq kuzatuvlardan shuni anglash mumkinki, Tabibiy lirik asarlarining aksariyati shaklan va mazmunan hazrat Mir Alisher Navoiy asarlariga o'xshatmalar tarzida yozilgan. Tabibiy xorazmlik shoirlardan Nishotiyga 1 ta, Munisga 8 ta, Ogahiya 12 ta, Komilga 2 ta, Avazga 2 ta, Rojiyga 5 ta, Mirzoga 2 ta, Doiy va Niyoziyga 3 tadan muxammas bog'lagan. Bundan tashqari, shoirning Sa'diy, Jomiy, Zebunniso va Mirzo G'olib she'rlariga fors-tojik tilida muxammaslar bog'lagani ham ma'lum. Tabibiy Navoiyning 20 dan ortiq g'azaliga muxammas bog'lagan. Jumladan, Navoiyning "Hikmati", "Bo'lsa", "Aylasa", "Bo'lubdur", "Kerak", "Aylarman", "Ollida", "Tuz", "Bo'lmgangiz", "Hanuz", "So'rmangiz", "Aylab", "Anga", "Xurram", "Bo'lmas" kabi radif va qofiyalar bilan tamomlanadigan g'azallariga muxammaslar bog'lagan [Tabibiy 1978, 31]. "Munisu-l-ushshoq" devonida ham Alisher Navoiy g'azallariga bog'langan 5 ta muxammas kiritilgan.

E'tirof etmoq joizki, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosi o'zidan keyingi barcha qalam ahllari ijodining shakllanishida juda katta ta'sir ko'rsatdi. Ular ulug' mutafakkirga o'xshab ijod qilishga harakat qildilar. Bu esa, o'z navbatida, milliy adabiyotimizning rivojiga ta'sir etdi. Yuqoridagi misollar esa, Navoiy izdoshlaridan farqli o'laroq, Ahmad Tabibiyning ulug' mutafakkir ijodiga naqadar ixlosmand bo'lgani, Alisher Navoiy asarlaridagi barhayot insonparvarlik g'oyalaridan nechog'li ta'sirlanganini ko'rsatadi.

Ahmad Tabibiy asarlari manbalarini to'liq to'plash, ularni qiyosiy-matniy tadqiq etish, shoir ijodini to'liq o'rganish, lirik

asarlarini tahlil etish, shubhasiz, bu ma'lumotlarni yanada kengaytiradi. Shu o'rinda, adabiyotshunos F.G'anixo'jayev Tabibiy haqidagi tadqiqotida shoirning "Munisu-l-ushshoq" devonida 53 ta, "Hayratu-l-ushshoq" devonida 114 ta, "Tuhfatu-s-sulton" devonida 14 ta, "Mir'otu-l-ishq" devonida 86 ta, "Mazharu-l-ishtiyoy" devonida 125 ta, jami 5 devonida 518 ta muxammas bor. Bulardan 307 tasi turkiy, 211 tasi forsiy tilda yozilgan, - deya ta'kidlaydi[Tabibiy 1978, 31]. Biroq F.G'anixo'jayev keltirgan muxammaslar soni 392 tani tashkil etadi. Nima uchundir muxammaslar soni 518 ta deb noto'g'ri ko'rsatiladi yoki qolgan muxammaslarning manbalari qayd etilmaydi.

Ahmad Tabibiy ijodiy merosi haligacha to'liq ilmiy tadqiq etilgani yo'q. Shoirning sanoqli she'rlarigina hamda "Vomiq va Azro" dostoni qisqartirilib nashr etilgan. Tabibiyning butun boshli devonlarini nashrga tayyorlash, shu asosda, shoir ijodining milliy adabiyotimiz tarixida tutgan o'rnini belgilash yechimini kutayotgan ilmiy muammo sanaladi. Buning uchun, avvalo, shoir asarlarining respublikamiz va xorijiy fondlarda saqlanayotgan manbalarini aniqlab, ularni to'liq to'plash talab etiladi.

Adabiyotlar

Bobojon, Tarroh-Xodim. 2011. *Xorazm shoir va Navozandalari*. Toshkent: Tafakkur qanoti.
Laffasiy. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №9494.
Laffasiy. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №11499.
Laffasiy. 1992. *Tazkirayi shuaro*. Urganch: Xorazm.
Маткаримова, Саломат. 2007. *Табибий – тазкиранавис*. Филол.фан.номз. дис.... .

Тошкент.
Қосимов, Бегали. 1983. *Излай-излай топганим*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
Қосимов, Бегали ва бошк. 2004. *Миллий уйғониши даври ўзбек адабиёти*. Тошкент:

Маънавият.
Salayeva, Munavvara. 1993. *Navoiy va Xorazm shoirlari*. Urganch: Xorazm.
Табибий, Аҳмад. 1968. *Танланган асарлар*. Тошкент: Ғ.Фулом номидаги бадиий адабиёт нашрёти.
Tabibiy, Ahmad. *Bayoz. G'azaliyoti Tabibiy. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №243.
Tabibiy, Ahmad. *Devon*. Toshbosma, O'zRFASHI, №8949.
Tabibiy, Ahmad. *Hayratu-l-oshiqin. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3460.
Tabibiy, Ahmad. *Mazharu-l-ishtiyoy. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №7083.

Tabibiy, Ahmad. *Mir'otu-l-ishq. Qo'lyozma.* O'zRFASHI, №928.

Tabibiy, Ahmad. *Munisu-l-ushshoq. Qo'lyozma.* O'zRFASHI, №3460.

Tabibiy, Ahmad. *Muxammasoti majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy. Qo'lyozma.* O'zRFASHI,
№1134.

Tabibiy, Ahmad. *Tazkira. Qo'lyozma.* O'zRFASHI, №1152, №5018.

Tabibiy, Ahmad. *Vomiq va Azro. Qo'lyozma.* O'zRFASHI, №1243.

Yusupov, Yunus. 1967. *Xorazm shoirlari.* Toshkent.

Фанихўжаев, Фатхулла. 1978. *Аҳмад Табибий.* Тошкент: Фан.

Sh. Amanov

(Tashkent, Uzbekiston)

amanov@navoiy-uni.uz

The Creative Works Of Ahmad Tabibiy And His Divan's Copies Which Was Named "Munisu-l-Ushshoq"

Abstract

Akhmad Tabibiy is one of the most active representatives of Uzbek literature in the late XIX and early XX centuries. He is known as a natural translator, dosonavis, tazkiranavis. He continued the classical literary tradition with dignity and composed five poetic Devonian works. At the moment, the sources of the poet's works are stored in various libraries and funds of the republic.

The poet's contribution to the literary activities of his time, to the popularization of the literature of peoples and the literary works of fraternal peoples is especially important. Akhmad Tabibiy continued the traditions of classical artists and worked in almost all genres. Even in his works there are some of his own genres that other poets do not have. It is obvious that there has not been investigation in the literature history on Turkic devons of Akhmad Tabibiy who is bilingual poet of literal epoch of Khiva.

This article deals with Akhmadjon Tabibiy's creativity his lyric works proceedings "Munis ul-ushshoq" and scientific descriptions lithographic manuscripts of devon. It gives information about distinctions be-

tween litographic and manual manuscripts. Moreover, the paper presents foundations of creativity heritage of Tabiby, genres of lyrics of poet.

Key words: *Akhmad Tabiby, poet, devon, Tukhfatu-s-sulton, Munisu-l-ushshoq, Khayratu-l-oshiqin, proceedings, bayoz, source, text, genre, debocha, shiru shakar, bakhri tavil, qasida.*

About the author: *Shermuhammad Amonov* – Doctor of Philosophy in Philology, Docent, Tashkent State University Of Uzbek Language And Literature Named After Alisher Navoi.

Recommended citation: Amonov, Shermuhammad. 2020. "Ahmad Tabibiy ijodi va uning "Munisu-l-ushshoq" devoni nusxalari". *Oltin bitiglar* 1: 22—42.

References

- Bobojon, Tarroh-Xodim. 2011. *Xorazm shoir va Navozandalari*. Toshkent: Tafakkur qanoti.
- Laffasiy. *Tazkira*. Qo'lyozma. O'zRFASHI, №9494.
- Laffasiy. *Tazkira*. Qo'lyozma. O'zRFASHI, №11499.
- Laffasiy. 1992. *Tazkirayi shuaro*. Urganch: Xorazm.
- Matkarimova, Salomat. 2007. *Tabibiy – tazkiraganavis*. Filol.fan.nomz. dis... Toshkent.
- Qosimov, Begali. 1983. *Izlay-izlay topganim*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Qosimov, Begali va boshq. 2004. *Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent:
- Ma'naviyat.
- Salayeva, Munavvara. 1993. *Navoiy va Xorazm shoirlari*. Urganch: Xorazm.
- Tabibiy, Ahmad. 1968. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: G'G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashryoti.
- Tabibiy, Ahmad. *Bayoz. G'azaliyoti Tabibiy. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №243.
- Tabibiy, Ahmad. *Devon*. Toshbosma, O'zRFASHI, №8949.
- Tabibiy, Ahmad. *Hayratu-l-oshiqin. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3460.
- Tabibiy, Ahmad. *Mazharu-l-ishtiqoq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №7083.
- Tabibiy, Ahmad. *Mir'otu-l-ishq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №928.
- Tabibiy, Ahmad. *Munisu-l-ushshoq. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №3460.
- Tabibiy, Ahmad. *Muxammasoti majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1134.
- Tabibiy, Ahmad. *Tazkira. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1152, №5018.
- Tabibiy, Ahmad. *Vomiq va Azro. Qo'lyozma*. O'zRFASHI, №1243.
- Yusupov, Yunus. 1967. *Xorazm shoirlari*. Toshkent.

D. Xujanova*(Toshkent, O'zbekiston)*

dildora_tilla@mail.ru

Mahmud Zamaxshariy “Al-qistros fi ilm al-aruz” asarining Berlin va Istanbul nusxalari qiyosi

Abstrakt

Mazkur maqolada jahon madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan movarounnahrlik buyuk alloma Mahmud Zamaxshariyning arab aruzi nazariyasiga bag'ishlangan "Al-Qistros al-mustaqim fi ilm al-aruz" asarining arab aruzshunosligi rivojidagi o'rni va ushbu asarning dunyo fondlarida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari haqida so'z boradi. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik jihatidan ilk marotaba tadqiq qilanayotgan mazkur asarning Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi "Rais al-kuttab" fondida saqlanuvchi nusxasi hamda Berlin Tubinger davlat kutubxonasi fondida saqlanayotgan nusxalarining ilmiy tavsifi beriladi. Unda "Al-Qistros" ning Tubinger nusxasi bilan Rais al-kuttab nusxasi bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilgan bo'lib, qo'lyozmaning tarkibiy tuzilishi, aruz bahrlariga berilgan misollar hamda aruz doiralarida keltirilgan baytlardagi farqlar ko'rsatilgan. Tahlil jarayonida Rais al-kuttab nusxasi nuqsonisiz, to'liq hamda asarning ilmiy tanqidiy matnnini yaratishda tayanch nusxa sifatida foydalanish mumkin bo'lган nusxa deb topildi. Tubinger nusxasi esa asarning barcha nusxalaridan tarkibi jihatidan farq qiluvchi o'ziga xos nusxa hisoblanib, qo'lyozmaning uchinchi qismi matni boshqa muallifga tegishli ekanı ma'lum bo'ldi. Kotib ushbu qismidagi matnni aruzshunos olim Abu al-Jaysh al-Andalusiyning "Ar-risala al-Andalusiya" asaridan ko'chirganligi aniqlandi. Undagi aruziy bahrlarga berilgan she'riy namunalar Abu al-Jaysh al-Andalusiy tomonidan mahorat bilan yozilgan. Maqolada boshqa aruzga doir manbalarda uchramaydigan baytlarning vazni va tahlili berildi. Shuningdek, Tubinger nusxasidagi aruziy doiralar uchun berilgan she'riy misollar ham tahlil etilib, ushbu baytlar Mahmud Zamaxshariy tomonidan yaratilganligi, ularning originalligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: “Al-Qistros” qo'lyozmalari, Tubinger nusxasi, muqaddima qismi, aruziy bahrlar, aruz doiralari, tavil, basit, she'riy misollar, zihaf, illa, “Ar-risala al-Andalusiyha” asari, abjad hisobi, ichki qofiya.

Muallif haqida: Dildora Xujanova – doktorant, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: Xujanova, Dildora. 2020. “Mahmud Zamaxshariy “Al-qistros fi ilm al-aruz” asarining Berlin va Istanbul nusxalari qiyosi”. *Oltin bitiglar* 1: 43—63.

Kirish

Aruz vazni nazariyasi ilk bora VIII asrda arab diyorida vujudga keldi, keyinchalik u fors-tojik va turkiy xalqlar mumtoz she'riyatining ham asosiy vazn turi sifatida shakllandi va takomillashib bordi. Arab she'rshunosligi, jumladan aruz ilmining rivojlanishida xizmatlari beqiyos bo'lgan movarounahrlik olimlar shu sohada bir qancha qimmatli asarlar yozishgan. Ulardan: Abu Abdulloh al-Xorazmiyning *Mafotih al-'ulum* (*Ilmlarning kalitlari*) asari, Abu Nasr ibn al-Hammod Javhariyning *Aruz al-Varaqat* (*Aruz sahifalari*) asari, Yusuf Sakkokiyning *Miftoh al-ulum* (*Ilmlarning kaliti*) nomli qomusiy asaridagi she'r ilmiga oid bo'limi, Abu Hafs Nasafiyning *Muxtasar al-'aruz 'ala usul al-ma'ruz* (*Aruzga oid qisqa risola*) risolasi, Mahmud Zamaxshariyning *Al-Qistros al-mustaqqim fi ilm al-aruz* (*Aruz ilmida aniq mezon*) kabi asarlari butun arab dunyosida mashhur. Yurtimiz olimlari sof arab aruzi asoslariiga bag'ishlangan risolalari arabiylar aruzning yozma matnnini yaratishda muhim o'rinnegallagan [Talabov 2004, 11]. Shunday asarlar qatorida XII asrda yaratilgan ulug' olim Mahmud Zamaxshariyning (1075-1144) “Al-Qistros al-mustaqqim fi ilm al-aruz” (“Aruz ilmida eng to'g'ri mezon”) risolasi o'zining mukammalligi va originalligi bilan ajralib turadi. Asarning mukammal bo'lishida olimning lug'atshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik sohalarida katta bilim va tajribasi muhim ahamiyat kasb etgan. Mazkur asar aruz nazariyasining asosiy tarkibiy qismlaridan bayt qurilishi, aruz asoslari, aruz bahrlari hamda mukammal berilgan aruziy doiralardan tashkil topgan. Shu nuqtayi nazardan Mahmud Zamaxshariyning “Al-Qistros” asari yaratilgan davridan boshlaboq juda muhim manba sifatida keng shuhrat topgan. U aruz nazariyasiga oid ma'lumotlar bera oladigan nodir asar bo'lgani uchun o'z davrida ko'plab nusxalarda tarqalgan. Shu sabab bo'lsa kerak, ushbu risola

qayta-qayta ko'chirilgan va uning qo'lyozma nusxalari jahonning turli mamlakatlariga noyob manba sifatida tarqalgan.

"Al-Qistros"ning turli davrlarda ko'chirilgan qo'lyozmalari hozirda dunyoning yirik kutubxonalarini va qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda, ulardan bizga ma'lum bo'lganlari quyidagi 22 ta qo'lyozma nusxadir:

- 1) Germaniya, Berlin Tubinger davlat kutubxonasi fondi Ms.or.quart. 118 inventar raqamli 1 qo'lyozma;
- 2) Nederlandiya, Leyden kutubxonasi qo'lyozmalar fondida № 654 raqamli qo'lyozma;
- 3) Rim, Afina kutubxonasi qo'lyozmalar fondida № 191:1 raqamli qo'lyozma;
- 4) Suriyadagi Xalab milliy kutubxona fondida № 146 raqamli qo'lyozma;
- 5) Saudiya Arabiston Ar-Riyod universiteti kutubxonasining qo'lyozmalar fondida № 1242 raqamli qo'lyozma;
- 6) Misr, Qohira milliy kutubxonasida № 60, 2, 1584 raqamli 3 qo'lyozmalar;
- 7) Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining "Rais al-kuttab" fondida № 990 inventar raqami ostida;
- 8) Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining "Rashid Afandi" fondida № 1117 inventar raqami ostida;
- 9) Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining "Laleli" fondida № 1984 inventar raqami ostida;
- 10) Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining "Lala Ismoil" fondida № 740 inventar raqami ostida;
- 11) Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining "Holid Afandi" fondida № 213 inventar raqami ostida;
- 12) Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasining "Ayo Sofiya" fondida № 4525 inventar raqami ostida;
- 13) Anqara Milliy kutubxonasining "Burdur" fondida № 124-01 inventar raqami ostida;
- 14) Beyazit davlat kutubxonasining "Valiyuddin Afandi" fondida № 2934 inventar raqami ostida saqlanadi.

Biror-bir asarni tadqiq va tahlil qilish uchun shu asar matniga ega har bir qo'lyozma nusxasi ahamiyatli bo'lgani bois, Zamaxshariyning "Al-Qistros al-mustaqiyim fi ilm al-aruz" asarini ilmiy tadqiq etish uchun yuqorida sanab o'tilgan har bir qo'lyozma bilan tanishib chiqish lozim. Yuqorida keltirilgan qo'lyozma nusxalardan o'nta: Qohira, Istanbul, Anqara, Berlin, Leydin, Xalab qo'lyozmalarining foto nusxasini olishga muvaffaq bo'ldik.

Asosiy qism

Bir muallifning bitta asari turli davrlarda, turli makonlarda va turli kotiblar tomonidan ko'chirilganligi bois, nusxalar bir-biridan farq qiladi. Mahmud Zamaxshariyning "Al-Qistros" asarining qo'lyozma nusxalarini ham qiyosiy tavsiflash jarayonida birnecha farqlari kuzatildi. Ayniqsa, Berlindagi Tubinger davlat kutubxonasida saqlanuvchi qo'lyozma e'tiborimizni tortdi. Mazkur maqolada "Al-Qistros"ning Tubinger nusxasi Rais al-kuttab nusxasi bilan qiyosiy tavsif qilindi hamda ushbu Tubinger nusxasidagi boshqa nusxalarda uchramaydigan tafovutga alohida to'xtalib o'tdik.

Avvalambor, Mahmud Zamaxshariy "Al-Qistros fi ilm al-aruz" asarining yuqorida keltirilgan Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi "Rais al-kuttab" fondida № 990 inventar raqami ostida saqlanadigan qo'lyozma nusxasining ilmiy tavsifiga to'xtalsak [Mahmud Zamaxshariy № 990].

Ushbu qo'lyozma hij. 1154-yilda (mil. 1732-y.) Rais al-kuttab Mustafo Afandining o'g'li Mustafo Ashir tomonidan vaqf qilingan. Qo'lyozma yaxshi saqlangan bo'lib, jigarrang karton muqovaga ega. Muqovaning burchak qismlari charm bilan qoplangan, markazida o'yib ishlangan tamg'a mavjud. Tamg'a ichida yozuv yo'q, chiroyli naqshlar bilan bezatilgan. Oddiy bezakli to'rtburchak hoshiyalar chizilgan. Orqa muqovasida ham tamg'a bor, lekin ichidagi naqshlar davr o'tishi bilan urinib qolgan. Qo'lyozmaning 1^a varag'i bo'sh, 1^b varag'ining tepe qismida asar unvoni qora siyohda, bezaklarsiz, oddiy qilib yozilgan. Unvонни yonida mayda yozuvda quyidagi jumla yozilgan:

حمد الله المالك الأحد عند عبده مصطفى محمد

Tarjimasi: *Bandasi bo'l mish Muhammad Mustafo uchun yakka-yu yagona bo'lgan Molik Allohga hamd-u sanolar bo'lsin.*

Varaqning markazida bodom shaklidagi muxr bor. Muxrda quyidagi ma'lumot aks etgan:

حسب الله، بسم الله الرحمن الرحيم. وقف هذا الكتاب مصطفى رئيس الكتاب السابق لوجه الله الخالق و سلمه للمتولى و حكمه بصحته حاكم الشرع الشريف و شرط الاسقدادة منه لا ولادة فثم و بعدهم. يعمل كما في الوقفية الى قيام الساعة و اخرى الله من اشتراه و باعه. ٤٥١٦

Tarjimasi: *Alloh (barcha ishlarimda)menga kifoya*

qiluvchidir(Alloh hisob qiluvchidir).

Bismillahir-rohmanir-rohiym. Ushbu kitobni Xoliq Allohning yo'lida Rais al-kuttab Mustofo vaqf qilgan. Va uni vaqf mutavallisiga topshirgan. Uning sahih ekaniga hokimush-shar'ish-sharif hukm qilgan. Bundan uning (vaqf qiluvchining) avlodlari, so'ng keyingilar, so'ng yana keyingilar foydalanishini shart qilgan. Keyin esa to qiyomatgacha vaqf mulki singari amal qilinadi. Buni sotib olgan yoki sotganni Alloh xor qilsin. 1154-yil (hijr.)¹ [Mahmud Zamaxshariy № 990, 1^b].

Varaqning chap burchagida qo'lyozmaning inventar raqami va u Sulaymoniya kutubxonasi Rais al-kuttab Mustofo Ashir Afandiga tegishli ekani qayd etilgan.

Asar arab tilida yozilgan bo'lib, so'zlar harakatlangan. Matn qora siyohda nasx xatida chiroyli ko'chirilgan. Qo'lyozma jami 24 varaq (48 sahifa) dan iborat. Asar matni 2^a varaqdan boshlanadi. Har bir sahifa 15 satrdan iborat. Poygirlari batartib berilgan. Matnda fasllar, asl ruknlar, bahr nomlari va baytlar qizil siyohda yozilgan. Ayrim so'zlarni tagiga qizil siyohda chizilgan. Asarning ko'plab sahifalarining hoshiyalarida matnlar mavjud. Bu matnlar she'r va aruz ilmiga oid quyidagi asarlardan olingani ma'lum bo'ldi:

1. Muhammad ibn Abdurrahmon as-Saxoviyning “Izhab al-aruz” asari

(أذهب العروض لمحمد بن عبد الرحمن السخاوي).

2. Abu Bakr ash-Shantariyniying “Al-Mi'yar fi avzan alash'ar” asari

(المعيار في أوزان الأشعار لأبي بكر الشنطري).

3. Abu Nasr al-Javhariyning “As-Sihah” asari

(الصحاح لأبي نصر الجوهري).

4. Abu Bakr al-Ansoriyning “Shifa al-g'aliyl fi ilm al-Xalil”

(شفاء الغليل في علم الخليل لأبي بكر الأنصاري).

5. Abduvahhob az-Zinjoniying “Mi'yar an-nazzor fi u'lum alash'ar”

(معيار النظار في علوم الأشعار لعبد الوهاب الزنجاني).

6. Ibn Shakh Ahmad ibn Muhammadning “Tavdiyh al-Xazrajiyya”

(توضيح الخزريية لابن شكم أحمد بن محمد).

7. Ibn Hishomning “Sharh ash-Shawahid”

(شرح الشواهد لابن هشام).

Mazkur asarlardan olingan parchalar, asosan, asardagi ba'zi terminlarning yanada kengroq ta'riflashda, bahrlarga qo'shimcha

1 Maqoladagi barcha tarjimalar muallifga tegishli.

she'riy misollar berishda, ayrim so'zlarning ma'nolarini ifodalashda qo'llanilgan. Masalan, qo'lyozmaning 2^б varag'idagi «لِفْغَ» (g'aflat) so'ziga hoshiyada Abu Nasr al-Javhariyning "As-Sihah" asaridan shu so'zning to'liq ta'rifi berilgan. Har bir berilgan parcha yakunida asar nomi va muallifi qayd etilgan. Mazkur asarlarni matn hoshiyalarida berilishi qo'lyozmaning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, matnda ayrim noto'g'ri, tushunarsiz yozilgan, ba'zi tushib qolgan so'zlar, iboralar ham qo'lyozmaning hoshiya qismida yozib qo'yilgan.

Asarning basmala qismidan so'ng «نَسَأَ اللَّهُ عَزَّ ذَلِكَ إِلَيْهِ وَرَأَيْمِنِي» (*Allohdan so'raymiz*) deb asarning muqaddima qismi boshlangan:

Adolat mezonini to'g'ri qilgan, o'zininig olish va berish tarozilarini rostlagan va o'z kitobida tarozidan urib qolganlarga azobni va'da qilgan, bandalariga isrof qilish va ziqnalikni man qilgan, ularni savdoda haddan oshish va zarar qilishdan ogohlantirgan Allah taolodan bu keltirayotgan va yozayotgan ishlarimda to'g'ri va kamsuqum bo'lismiga yordam berishini hamda bu ishlarini to'g'ri aql tarozisi bilan o'lchashimga O'zi ko'makchi bo'lismini so'raymiz. Zero, aql mo'tadil tarozi, aniq mezondir (الْقِسْطَاسُ الْمُسْتَقِيمُ). Buning natijasida shoyad haq yo'lda, haq bilan yuradiganlardan, to'g'ri joydan to'g'ri manzilga boradiganlardan bo'lsam.

Zamaxshariy so'zlaridan ko'rinish turibdiki, aruz bobida asar yozishda muallif juda ham ehtiyojkor, xatoga yo'l qo'ymasdan, nihoyatda ziyraklik bilan yondashish zarurligiga ishora qilmoqda. Chunki aruz nazariyasi vaznga asoslangan bo'lgani uchun aruz vaznida yozilgan she'riy asarlar o'qilganda uning qonun-qoidalariga nihoyatda rioya qilib, baytdagi eng qisqa tovushini ham zoye ketkazmasdan to'g'ri vaznda o'qish muhimdir. Shuningdek, bu muqaddima qismi orqali asarni nima uchun aynan "Al-Qistos al-mustaqqiy fi ilm al-aruz" deb nomlaganini ham bilib olish mumkin.

Shuni qayd etish joizki, asarning Qohira, Xalab, Ar-Riyod nusxalari

قال الشيخ الإمام الأجل العلامة، جار الله، فخر خوارزم، أبو القاسم، محمود بن عمر الزمخشري، رحمه الله تعالى: أسأل الله...».

Ya'ni, *Eng buyuk alloma, imomlarning peshvosi, Allohnинг qо'shnisi, Xorazm faxri Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy aytadi: Allohdan so'raymanki...* jumlesi bilan boshlangan.

Zamaxshariy muqaddima qismining davomida aruzni adab ilmini chuqur tushunib yetish uchun qator boshqa ilmlar bilan bog'liq ekani haqida yozadi va ularni o'n ikki sinfga ajratadi:

1. Ilmu-l-lug’at – lug’atshunoslik ilmi, tilning izohli lug’ati, har bir so’zning mazmun-mohiyatini yaxshi anglab yetmoq.
 2. Ilmu-l-abniyat — o’zgarmas shaklga ega, tushinish qiyin bo’lgan arxaik so’zlar haqidagi ilm.
 3. Ilmu-l-ishtiqoq — so’zning bir o’zakdan kelib chiqishi haqidagi ilm.
 4. Ilmu-l-i’rob — arab tili grammatikasiga oid ilm.
 5. Ilmu-l-ma’oni — gapning barcha bo’laklarini to‘g’ri tuzish, mazmunga boy toifalarning to‘g’ri, ochiqdan-ochiq, aniq, yashirin va har xil ifodalash [Ziyovuddinova 2005, 177].
 6. Ilmu-l-bayon — oz miqdordagi so’zlardan foydalanib, fikrning aniq va tiniq ma’nosini ifodalash.
 7. Ilmu-l-arud — aruz nazariyasiga oid qonun-qoidalarni mukammal egallash- she’riy asarni ma’lum bir maromda o’qishga, she’rning jilva-jilosidan zavq olishga yordam beradi.
 8. Ilmu-l-qavafi — qofiya haqidagi ma’lumotlar majmuasini to’la-to’kis anglash.
 9. Insha-u-n-nasr — nasriy matn yozish san’ati.
 10. Qirdu-sh-shi’r¹ — she’rni ruknga monand bo’lagini biroz pauza bilan o’qilgandagina ma’lum bir musiqiy ohang paydo bo’ladi. Mazkur jarayon taqt’i deb ataladi.
 11. Ilmu-l-kitaba — xat yozish san’ati, xattotlik san’ati haqidagi ilm.
 12. Ilmu-l-muhadarat — notiqlik san’ati haqidagi ilm.
- “Al-Qistros”ning mazkur nusxasi “Yangi yaratilgan vaznda arab she’riyatining qurilishi”, “She’r asoslari”, “She’r bahrlari tarkibi”, “Baytlar taqt’i’si”, “Bayt qurilishi”, “She’riy misollar” kabi fasllardan tarkib topgan.
- “Al-Qistros fi ilm al-aruz” asari “Rais al-kuttab” nusxasining boshqa nusxalardan yana bir farqli tamoni, 11^a sahifasida “Taqt’i alabyat” faslidan oldin beshta aruziy doiralar qizil siyohda chizilgan. Faqat birinchi doira — “muxtalifa” doirasi to’liq berilgan. Qolgan doiralarni ichi bo’sh, hech qanday yozuv aks etmagan. Shu faslning o’zida baytlarning taqt’i’ jarayoni boshqa nusxalarga nisbatan to’liq ifodalangan. Masalan, tavil bahriga berilgan bayt taqt’i’si quyidagicha:
- سقى الله ربى ام عمر و ان عفت
معنىها مسح من الوب هطلا

Taqt’i’si:

معانى هما سحن متلوب لهطلا

فولن | مفاعيلن | فولن | مفاعيلن

سقلاء هر بع أيام معمرن وإنعفت

فولن | مفاعيلن | فولن | مفاعيلن

1 Qo’lyozmada “qird” so’zi “qat’a”deb izohlangan.

Shu ko'inishda 16 bahriga berilgan misollarning barchasi taqt'i qilib chiqilgan. Asarning Xalab nusxasidagi "Taqt'i al-abyat" qismida esa shu baytlarning faqat taqt'i qilingan shakli berilgan, ya'ni baytni asli berilmagan, ruknlari ham yozilmagan. Qolgan qismlari Xalab nusxasi bilan deyarli bir xil. Lekin birgina Tubinger nusxasida bunday fasl umuman mavjud emas, uni o'rnida "Aruziy doiralar" mavzusi boshlangan. Shu mavzudan boshlab ikki nusxa bir-biridan farq qiladi. Tubinger nusxasidagi "Bahrlar" qismida bahr ta'rifi qisqa berilib, umuman yangi she'riy misollar berilgan. Bu haqda quyida yana to'xtalamiz.

"Al-Qistos fi ilm al-aruz" asarining Rais al-kuttab nusxasining kolofonida kotib ismi va ko'chirilgan sanasi haqida ma'lumot berilmagan. Asar xotimasi quyidagi jumlalar bilan tugallangan:

وصلتُ إلى ما وَجَهْتُ فكري إِلَيْهِ، وَطَمَحْتُ بِهِمَّتِي نَحْوَهُ، مِنْ إِتَّمامِ الْكِتَابِ. وَالْحَمْدُ لِلَّهِ عَلَى كُلِّ ذَلِكَ، ثُمَّ لِسَيْدِنَا، فَإِنَّ التَّبَرَّكَ بِخَدْمَتِهِ وَالتَّحْرَمُ بِعِبُودِيَّتِهِ هُوَ الَّذِي يُبَرِّزُ لِي الْغَایَةَ، وَيُحَرِّزُ إِلَيَّ السَّبِقَ، وَيُوَصِّلُنِي إِلَى كُلِّ مَطْلُوبٍ، وَيَعْدُ بِنَاصِيَّتِي كُلَّ خَيْرٍ.

Tarjimasi: *Fikrimni jalb qilgan va himmatimni u tarafga sarflagan kitobimni yakunlashga erishdim. Buning barchasi uchun Allohga hamd bo'lsin. So'ngra Paygambarimizga maqtovlar bo'lsin. Zero, Allohning xizmatini barokati, unga qullik qilish hissi menga maqsadni belgilab berdi, saboq berdi hamda barcha istaklarga yetkazdi, peshonamga barcha yaxshiliklarni bitdi.*

Endi esa biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan ikkinchi nusxa — "Al-Qistos al-mustaqim fi ilm al-aruz" asarining Berlindagi davlat Tubinger kutubxonasi "Sharq manbalari" fondida Ms.or.quart. 118 raqami ostida saqlanuvchi Tubinger qo'lyozmasi xususida to'xtalsak [Mahmud Zamaxshariy №118]. Qo'limizda qo'lyozmaning fotonusxasi bo'lganligi bois, uning kodikologiyasini to'liq berishning imkoniy yo'q. Lekin ushbu fotonusxa orqali asarni biz uchun muhim qismlarini tavsif qila oldik.

Qo'lyozma yaxshi holda saqlangan, uning umumiy hajmi 32 varaqni tashkil etib, har bir sahifa 13 satrdan iborat. Har bir satrga 9-11 oralig'ida so'zlar joylashtirilgan, matn o'lchami: 23.5x15,5. Matn o'ziga xos riqo' xatida qora tush bilan ko'chirilgan. Yozuvning sifati yaxshi.

Asarning asosiy matni boshlanishidan oldin ikki sahifadan iborat Zamaxshariy qalamiga mansub qasida ko'chirilgan. So'ng qo'lyozmaning uchinchi varag'ida asarning unvoni quyidagicha

yozilgan:

كتاب القسطاس في علم العروض للعلامة الزمخشري عفى الله عنه وكرمه

Tarjimasi: *Alloma az-Zamaxshariyning "Al-Qistos fi ilm al-arud" kitobi, Alloh uni mag'firat etsin va hurmatga sazovor qilsin.*

Unvonning yonida quyidagi jumla ham bor:

من فضل الله تعالى على العبد الفقير لعفو ربه في الدارين عبد المعطي بن حاج أحمد
زوين سنة ٤٦١١

Tarjimasi: *Alloh taoloning fazli karami ila faqir bandasi Abdu al-Mu'tiy bin Hoji Ahmad Zaviynning ikki olamda Robbisi kechirsin. Sana 1164.*

Mazkur qo'lyozma tarkibini uch qismga bo'lish mumkin:

Birinchi qismda basmaladan so'ng muqaddima qismi
quyidagicha boshlanadi:

قال الشيخ الإمام الأجل الزاهد جار الله العلامة رحمه الله : أسأل الله الذي عَدَّلَ موازينَ
قِسْطِهِ وعايز مكاييل قبضِهِ وبسيطِهِ ودعا في كتابه بالوليل، على المطففين في الكيل وكره لعباده
السَّرَّف والبخس، وحضر عليهم الشّرط واللوکس أن يحملني على السُّوَيْةِ فيما أورد وأصُدِرُ،
والاقتصاد فيما آتى وأذْرُ. ويأخذ بيدي، إلى وزن الأمور بميزان العقل السليم، فإنه المعيار
المعتدل والقسطاس المستقيم، حتى تكون من القائمين على الحق وبه والذاهبين عن الصواب
وإليه. وأحمده وأصلّى على خير خلقه، محمدٌ، وآلِه.

Tarjimasi: *Shayx, imom, allomalarining ulug'i, Jorulloh (Alloh uni rahmatiga olsin) shunday deydi: Adolat mezonini to'g'ri qilgan, o'zining olish va berish tarozilarini rostlagan va o'z kitobida tarozidan urib qolganlarga azobni va'da qilgan, bandalariga isrof qilish va ziqlanalikni man qilgan, ularni savdoda xaddan oshish va zarar qilishdan ogohlantirgan Alloh taolodan bu keltirayotgan va yozayotgan ishlarimda to'g'ri bo'lishimga, bu borada kamsuqum bo'lishimga yordam berishini hamda bu ishlarni to'g'ri, aql tarozisi bilan o'lchashimga ko'makchi bo'lishini so'rayman. Zero, aql mo'tadil tarozi, to'g'ri mezondir. Buning natijasida shoyad haq yo'lida, haq bilan yuradiganlardan, to'g'ri joydan to'g'ri manzilga boradiganlardan bo'lsam [Zamaxshariy №118, 2].*

Shuningdek, muqaddima qismida Zamaxshariy "Al-Qistos" asarini yozishdan bo'lgan maqsadini, ustozи Mahmud bin Jarir ad-Dabbiy al-Isfahoniyning Xorazm diyorida adabiy ilmlarni taraqqiy etishida bo'lgan yuksak xizmati hamda ushbu asarni ustoziga hadya qilganligi haqida yozadi.

Mazkur birinchi qism uch fasldan iborat. Zamaxshariy birinchi

faslda asl arab she'riyati hamda ajamliklar qo'llaydigan "muxtara" vazni haqida o'z fikrlarini bayon etadi:

أَقْدَمُ، بَيْنَ يَدِيِ الْخَوْضِ فِيمَا أَنَا بِصَدِّدِهِ، مَقدَّمَةً. وَهِيَ أَنَّ بَنَاءَ الشِّعْرِ الْعَرَبِيِّ عَلَى الْوَزْنِ الْمُخْتَرِعِ، الْخَارِجُ عَنْ بَحْرِ شِعْرِ الْعَرَبِ، لَا يَقْدُحُ فِي كُونِهِ شِعْرًا عَنْدَ بَعْضِهِمْ. وَبَعْضُهُمْ أَبَى ذَلِكَ، وَزَعَمَ أَنَّهُ لَا يَكُونُ شِعْرًا حَتَّى يُحَامِيَ فِيهِ وَزْنُ مِنْ أَوْزَانِهِمْ. وَالَّذِي يُنْصَرُ الْمَذْهَبُ الْأَوَّلُ هُوَ أَنَّ حَدَّ الشِّعْرِ لَفْظٌ، مَوْزُونٌ، مَقْفَى، يَدْلِلُ عَلَى مَعْنَى فَهَذِهِ أَرْبَعَةُ أَشْيَاءٍ: الْلَّفْظُ، الْمَعْنَى، الْوَزْنُ، الْقَافِيَّةُ. فَالْلَّفْظُ وَحْدَهُ هُوَ الَّذِي يَقْعُدُ فِي الْاِخْتِلَافِ بَيْنَ الْعَرَبِ وَالْعَجمِ. فَإِنَّ الْعَرَبِيَّ يَأْتِي بِهِ عَرَبِيًّا، وَالْعَجَمِيَّ يَأْتِي بِهِ عَجَمِيًّا. وَأَمَّا التَّلَاثَةُ الْآخَرُ فَالْأَمْرُ فِيهَا عَلَى التَّسْاوِي بَيْنَ الْأَمْمَ قَاطِبَةً. إِلَّا تَرَى أَنَا لَوْ عَلِمْنَا قَصِيدَةً عَلَى قَافِيَّةٍ، لَمْ يُفَقَّ بِهَا أَحَدٌ مِنْ شُعُراءِ الْعَرَبِ، سَاغَ ذَلِكَ مَسَاغًا لِمَجَانِ فِي الْإِنْكَارِ.

Tarjimasi: *Bu faslni mavzuga qo'l urishdan avval muqaddima sifatida keltirib o'tmoqchiman. Asl arab she'riyatidan yiroq bo'lgan muxtara' vaznidagi she'rlarni ba'zilar she'r deb hisoblaydi. Ba'zilar esa bunga e'tibor qaratmagan. Balki ularning fikricha, bunday she'rlar biror vazn bilan himoyalananmaguncha she'r bo'lmaydi. Birinchi toifani qo'llaydiganlar she'rning vaznga tushirilgan, qofiyali, ma'noni ifoda etuvchi lafz (nutq) bo'lishi lozim deb hisoblovchilar. Lafzning o'zi borasida ham arab va arab bo'limganlar orasida turli ixtiloflar mavjud. Zero, arab shoiri arabiylafzlarni ishlatadi. Ajamliklar esa arabiylafz so'zlarni ishlatadilar. Qolgan uchta narsa, ya'ni vazn, qofiya va ma'no barcha kishilar o'rtasida bir xildir.*

Keyingi fasllarda "She'r asoslari" mavzusi va "She'r bahrlari tarkibi" mavzulari qamrab olingan. Mazkur mavzudagi matn "Al-Qisitos"ning boshqa nusxalari bilan bir xil qilib ko'chirilgan. Faqatgina ayrim so'zlar sinonimlarining qo'llanilishi yoki ba'zi so'zlarning tushib qolishi kabi juz'iy farqlar kuzatiladi.

Ushbu qism sakkiz varaqdan iborat. Har bir sahifasi 13 satr dan tashkil topgan. Har bir sahifada poygirlar batartib berilgan. Ko'plab so'zlar ostiga va tepasiga o'sha so'zning sinonimi yoki izohi hoshiyada berib o'tilgan. Masalan, "اي قوم" "عَدَلْ" so'zi tagiga so'zi kotib tomonidan yozib qo'yilgan.

Mazkur qism quyidagi jumla bilan tugaydi: *وصورة المتحرّك*: *harakatli harfning belgisi "mim" bilan, sukunlangan harfning belgisi "alif" bilan ifodalangan*). Bu ta'rif aruziy doiralarga tegishli bo'lib, bunda doiralalar ichidagi belgilar nazarda tutilgan.

« وَهَذِهِ الدَّوَائِرُ: الدَّائِرَةُ الْأَوَّلَى تُسَمَّى الْمُخْتَلَفَةُ لَا خَلَافٌ لَفَاعِيلِهَا (Va mana bu doiralar: birinchi doira ruknlarining turli xilligi uchun "muxtalifa" deb nomlanadi) kabi jumladan boshlanadi.

Aruz ilmining asosini bahrlar tashkil qiladi. Bahrlar bir-birlariga yaqinligi va umumiy o'zak xususiyatlariga ko'ra alohida alohida guruhlarga — aruz doiralariga bo'linadi. Qo'lyozmaning mazkur qismida beshta aruziy doiralar mukammal va original tarzda bayon qilingan. Beshta aruziy doiralar alohida alohida sahifalarga ketma-ketlikda chizilgan. Har bir doira kichik va katta doira ko'rinishida bo'lib, markazida mazkur doiraning hosil bo'lishi haqida ma'lumot yozilgan. Kichik doiraning tashqi tomoniga o'sha doiraga kiruvchi bahrlarning o'zagidan yasalgan so'zlardan bayt tuzilgan.

E'tiborli jihat shundaki, ushbu berilgan baytlarni faqat Zamaxshariyning “Al-Qistros” asarida uchratish mumkin. Katta doiraning tashqari tomonida baytning paradigmasi hamda doiraga kiruvchi bahr nomlari aylana bo'ylab yozilgan. Bundan tashqari shu varaqning yuqori qismida doiraning nomi, ta'rifi yozilgan, doiraning quyi qismida esa shu doiraga kiruvchi bahrlarning ruknlari qismi batatsil yoritib berilgan. Beshta doira ham shu tartibda birmabir keltirilgan. Doiralardan to'rttasining hoshiya qismlari bo'sh, faqatgina ikkinchi “Mu'talifa” doirasining chap tomoni hoshiyasida quyidagi izoh berilgan:

و الفك في البيت مخالف لما في وسط الدائرة فإن الاشارة الى الكامل على ما هو
دأب الناظم يقتضي ان ينفك ”الكامل“ من الوافر من عين مفاعلتن الواقع في العجز، و عباره
الكاتب صريحة في أنه الواقع في الصدر.

Tarjimasi: *Doiraning markazida qarama-qarshi keluvchi baytning ajralishi, a'jzda joylashgan "mufa':alatun"dan "a'yn"ni ajralishi, ya'ni komilni vofirdan ajralishiga ishora.*

Mazkur Tubinger nusxasining boshqa nusxalardan farqli jihat shundaki, unda beshta aruz doiralari to'liq berilgan hamda ularning har biriga she'riy bayt yozilgan. “Al-Qistros”ning bizda mavjud bo'lgan to'qqizta nusxasidan faqatgina Anqara nusxasida aruziy doiralar shu tarzda berilgan. Misol qilib, birinchi doira “muxtalifa”ga berilgan baytni keltiramiz:

اند عدّتى كفت العدى عنك

| فعولن | مفاعيلن | فاعولن

عدّتى كفت العدى عنك مسؤول اند
فاعلاتن | فاعلن | فاعلاتن

أطل مدّتى بسط المدىء منك مأمول
مسعول

| فعولن | مفاعيلن | فاعولن | مفاعيلن
فاععلن | فاعلن | فاعلاتن

مدّتى بسط المدىء منك مأمول أطل
فاعلاتن | فاعلن | فاعلاتن | فاعلن

فعلن	بسط المدىء منك مأمولن أطل مدّتي
مستفعلن فعلن مستفعلن	مستفعلن فعلن مستفعلن فعلن
	فعلن

Ushbu she'riy baytlarning o'ziga xosligi, har bir doiraning ketma-ket keladigan bahrlari o'zagidan boshlanadigan baytlar berilganlidadir. Baytning birinchi so'zi *tavil* bahrining o'zagidan yasalgan “لطفاً” so'zi bilan kelgan. Ikkinchisi so'z *madid* bahrining o'zagidan tarkib topgan “يَتَدَمِّرُ” so'zi bilan kelgan va uchinchi so'z esa, basit bahrining o'zagidan tarkib topgan “طَسْبٌ” so'zi ishtirok etgan. Baytning yana bir ahamiyatli jihatni, ikki misradagi har bir so'zning biri-biriga qofiyalangani:

اطل – اند، مدّتي – عدّتي، بسط – كفت، المدى – العدى، منك – عنك، مأمول -
مسعول

Arab she'riyatida bu ichki qofiya tarsi' hodisasi deb qaraladi. Tarsi' — bu qofiyalangan, yasalishiga ko'ra bir xil o'lchamdagagi nutq bo'lib, u bayt bo'laklarining oxiridagina emas, balki ichki bo'laklarining bir-biri bilan qofiyalanishidir [Ziyovuddinova 2001, 20].

Ushbu baytlarda Zamaxshariy o'zining muqaddimasida aruz ilmini mukammal o'zlashtirish uchun sanab o'tgan adab ilmlaridan ishtiyoq, qofiya ilmlari namunalarini ko'rishimiz mumkin.

Zamaxshariy o'zining “Al-Qistros” asaridagi aruz doiralarini ta'riflash uchun she'riy misollarni keltirishda qo'llagan usuli ushbu mavzuni o'rganishni osonlashtiradi. Doiralarning har biri uchun berilgan alohida bayt o'sha doiraning tarkibida keluvchi bahrlarning o'zagidan tashkil topgan so'zlar yordamida bitilgan. Aruziy doiralarga mazkur usulda berilgan baytlar boshqa hech bir aruzga oid manbalarda uchramaydi. Ehtimol, Zamaxshariy ushbu asarning muqaddima qismida bu ishga undan oldin hech kim qo'l urmaganligini bejiz aytib o'tmagan:

وقد لاحت لي، ببركات الانتماء إلى حضرته، وميامن الانصواء إلى سُدّته، طريقة
في باب العروض عذراء، ما أظُنُّها وُطئت قبلي. فعمدت إلى تحرير هذه النسخة منها...

Tarjimasi: *U zotning huzurlariga muntazam bog'langanligim va yonlarida doimiy birga bo'lganligim sababli menga ham aruz bobida bir yangi yo'l namoyon bo'ldi. Menden avval kimdir bu yo'ldan yurgan deb o'ylamayman. Shuning uchun bu nusxani tahrir qilishni*

maqsad qildim.... .

Bu so‘zlar Zamaxshariyning mohir shoir ekanligini ham hisobga olgan holda, ushbu baytlarni o‘zi yaratgan degan xulosaga kelishga turtki bo‘ladi.

“Aruz doiralari”ga bag‘ishlangan mazkur qism qo‘lyozmaning 21–25 sahifalarini o‘z ichiga oladi. Ma‘lumot o‘rnida aytish kerakki, “Al-Qistros”ning Anqara nusxasidagi aruziy doiralarda ham yuqoridagi baytlar doira ichida berilgan. Lekin boshqa nusxalarning ba‘zilarida doiralarga misollar berilmagan yoki beshta doira uchta doiraga kirg‘izilgan, ayrim nusxalarda esa umuman aruziy doiralar chizilmagan [Xudjanova 2018, 51].

Qo‘lyozmaning *uchinchı qismi* 26–32-betlarni qamrab olgan. Ushbu qismdagi matnning boshqa qismlardan farqi — uning hoshiyalarida juda ko‘p matn berilgan. Bu matnlar ayrim so‘zlarning sinonimlari va baytdagi ba‘zi so‘zlarga boshqa manbalardan keltirilgan sharhlariga tegishlidir. Qolaversa, biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan o‘ziga xoslik aynan shu qismda berilgan. Chunki asarning aynan shu “Bahrlar” mavzusiga tegishli qismi qolgan to‘qqizta nusxadan butunlay farq qiladi. Tadqiqotimizning ilk bosqichlarida qo‘lga kiritgan ilk nusxa aynan shu Berlin nusxasi bo‘lib, ushbu fotonusxa olim O‘. Qoriyev tomonidan Misrning “Dar al-kutub” fondidan olib kelingan edi. O‘zbekistondagi kutubxonada fondlardan topa olmaganligimiz uchun magistrlik ishimizda shu nusxadan foydalanilgan [Xudjanova 2015].

Tadqiqot davomida “Al-Qistros”ning chet el kutubxonasi, fondlarida saqlanuvchi qo‘lyozmalarning nusxalariga ega bo‘ldik. Asarning Tubinger nusxasi bilan qiyosiy tavsif qilish jarayonida ma‘lum bo‘ldiki, ushbu nusxaning uchinchi qismi kotib tomonidan boshqa manbadan ko‘chirilgan ekan. Bu manba aruzshunos olim Abu al-Jaysh al-Ansoriy al-Andalusiyning “Ar-risala al-Andalusiyya” asari ekanligi aniqlandi [Abu al-Jaysh al-Ansoriy 1957]. Ushbu asarning ayrim nusxalarida asar nomi “Ilal al-a‘riyd” deb ham yozilgan¹.

Muhammad bin Abdulloh bin Muhammad Abu al-Jaysh al-Ansoriy al-Andalusiy Andalusiyada tug‘ilgan va keyinchalik Misrga ko‘chib ketgan hamda hijriy 626-yilda Iskandariyada vafot etgan. Ma‘lumot o‘rnida aytib o‘tish joizki, Abu al-Jaysh al-Andalusiyning hayoti va ijodi haqidagi ma‘lumotlar juda qisqa berilgan. Olimning nasabi, vafoti hamda asarlari haqidagi ma‘lumotlarda ixtiloflar kuzatiladi. Ayrim kitoblarda Abu al-Jaysh al-Andalusiyning nasabi

1 أبو الجيش الأنصاري وكتاب «علل الأعرايض» <http://www.habous.gov.ma/daouat-alhaq/item/2712>

“Qasida al-Xazrajiyya”ning muallifi Diya ad-Din Abu Muhammad al-Xazrajiyning nasabi bilan bir xilligi hamda vafot etgan yili ham bir hil sanaligi kuzatiladi. Masalan, arab olimlaridan Hoji Xalifa, Az-Zarkaliy hamda Umar Rizo Kahalalarning mashhur asarlarida Diya ad-Din Abdulloh bin Muhammad al-Ansoriy al-Xazrajiy al-Andalusiy al-Molikiy hijriy 626-yili Iskandariyada vafot etganligi hamda 100 baytdan iborat “Qasida al-Xazrajiyya” yoki “Ar-Ramiza ash-Shafiyya ilm al-aruz va al-qofiya” qasidasining muallifi ekani qayd etilgan [Khoji Xalifa hijr.1137, 96]. Tadqiqotchi Muhammad al-Mag’roviy o’zining Abu al-Jaysh al-Ansoriyga bag’ishlangan tadqiqotida Diya ad-Din al-Xazrajiy va Abu al-Jaysh al-Andalusiyning bir shaxs ekanligini isbotlagan [Mukhammad al-Mag’roviy 1981, 117].

Shunday qilib, “Al-Qistros”ning Tubinger nusxasining uchinchi qismi kotib tomonidan shu qadar mohirona ko’chirilganki, Abu Jaysh al-Andalusiyning “Ar-risala al-Andalusiyia” asarini ko’rmagan o’quvchi ushbu qismni ham Zamaxshariy asarining mantiqiy davomi deb o’ylaydi. “Al-Qistros”ning qolgan nusxalarida, jumladan, yuqorida aytib o’tganimizdek, Rais al-kuttab nusxasida ham ikkinchi qism “Doiralar” mavzusidan so’ng “Baytlar taqtisi” mavzusi quyidagi jumla bilan boshlangan: (وكيفية تقطيع الأبيات أن تتبع اللفظ *baytlar taqtisi lafz (so’z)ga suyanadi*). Bu mavzudan so’ng “Bayt qurilishi” mavzusi hamda “Aruziy bahrlar” mavzusi davom etgan. Lekin asarning Tubinger nusxasida ushbu mavzular tushib qolib, o’rniga yuqorida qayd etganimizdek, Abu Jaysh al-Andalusiyning “Ar-risala al-Andalusiyia” asaridagi “Zihoflar” haqidagi ta’rif va “Bahrlar” mavzusi ko’chirilgan. Ushbu qism “Aruziy doiralar” mavzusidan so’ng 27-sahifadan quyidagicha boshlanadi:

بعدها ساكن فهو «بلغكم» ولابد من ذكر القاب العل..

Tarjimasi: *Undan so’ng sukunlangan harf keladi, masalan, "balag’akum" so’zi. Albatta, illalarning nomlarini eslatib o’tish lozim...*

Mazkur jumlaning yarmi “Ar-risala al-Andalusiyia” asaridagi aruzning eng kichik bo’laklaridan biri — fosilayi kubroga berilgan misolga tegishli, yarmi esa “Illalarning nomlari” mavzusiga oid. Nima sababdan kotib ushbu qismni aynan shunday g’aliz jumla bilan boshlagani bizga noma’lum. Be yerda illalarning 22 turiga qisqa ta’rif berilgan, ular quyidafgilar: *xabn, idmor, habl, tay, qabd, ‘asb, qasr, qat’, kaf, kasaf, qatf, vaqf, kaff, hadd, salm, tamsiys, hazf, batr, juz’, shatr, nahk, tarfiyl, tasbiyg’.*

Bu mavzudan so’ng aruz bahrlaridan o’n oltiasi aruz doiralarini

ketma-ketligida berilgan. Avval har bir bahrning asl ruknlari, so'ng o'sha bahrning sog'lom ko'rinishiga bitta bayt berilgan. Masalan, basit bahriga Tubinger nusxasidagi “Ar-risala al-Andalusiyia” asarida quyidagi bayt berilgan:

ابسط رجاءك بالأيام مبتهجا واغنم من الأنس قبل الشيب ماسنحا

Tarjimasi: *Umidingni kunlar ila xursandchilikka keng yoygin, sochlaring oqarmasdan yoshlik davringdan unumli foydalangan* [Zamaxshariy №118, 10].

ابسط رجا عَكْ بِلْ	أبيام مب أَيَّامٌ مَبْ	تهجن
مستقعلن فعلن مستقعلن فعلن		
سالم مخبون سالم مخبون		

و غنم منزل أنس قب لششيب ما سنحا	
مستقعلن فاعلن مستقعلن فعلن	
سالم سالم مخبون	

Ko'rib turganimizdek, bu misra aruzi va darbi maxbun bo'lgan basit bahrining musamman shaklidadir. Mazkur nusxada o'n olti bahrning faqatgina bir ko'rinishiga bittadan bayt berilgan. Lekin Abu Jaysh al-Andalusiyning “Ar-risala al-Andalusiyia” asarining haqiqiy matniga murojaat qilganimizda, o'n olti bahrning nechta aruzi va darbi bo'lsa, barchasiga alohida she'riy baytlar mayjud bo'lib, umumiyligi baytlarning soni 65ta ekanligini aniqladik. Ushbu baytlarning o'ziga xosligi shundaki, al-Andalusiy aruziy bahrlarga misol keltirishda Halil ibn Ahmad keltirgan shavohidlar (namuna sifatida berilgan an'anaviy baytlar)ni bermasdan, har bir bahrning o'zagidan olingan so'zlar bilan mohirona yaratgan baytlarni keltirgan. Abu Jaysh al-Andalusiy asarning muqaddimasida shunday deydi:

فقد قصدت في هذا المختصر ان اذكر علل الأربعين والثلاثين والضروب
الثلاثة والستين حاصة و لا اتعزّز بشيء من زهاف الحشو غالباً و صنعت فيه ستة عشر
بيتاً

Tarjimasi: *Men ushbu qisqa asarni xashvdagi zihoflarga to'xtalmasdan, 34ta aruz va 63ta darblar xususida yozishni maqsad qildim va ularga oid 16ta bayt yaratdim.*

Shuningdek, mazkur baytlarning yana bir ahamiyatlari jihatida, muallif baytlarni tuzishda abjad hisobidan mohirona foydalangan. Baytdagi qavs ichiga olingan harflarga e'tibor qaratilsa, baytning

birinchi ““ طس با““ so'zi basit bahrini, aruz qismining oxirgi harfi» ج « basit bahrining aruzlar sonini bildiradi, ya'ni basit bahrining uchta aruzi bor: maxbun, majzu' solim va maqtu'. Baytning shatr qismidagi birinchi harf «و» esa darblar sonini bildiradi. Basit bahrida darblar soni oltita: maxbun, maqtu', majzu' muzal, majzu' solim, majzu' maxbul, matviy muzal. Baytning darb qismidagi «ح» harfi bahrning ruknlar sonini bildiradi. Basit bahrining ruknlar soni sakkiztadir. Shu baytdan bahrning tarmoq ruklaridan yasalgan baytlar ketma-ketlikda tuzilgan. Ikkinci baytning darb qismidagi so'nggi “ب” harfi zihof va illalarning tartibini bildiradi. Ya'ni “maqtu” bo'lgan darb tartibi bo'yicha ikkinchi darb bo'lib keladi:

(ابسط) رجاءك بالأيام مبتهه(ج)ا

(و) اغنم من الأنس قبل الشيب ماسن(ح)ا

ابسط رجاءك بالأيام مبتههجا

واغم من الأنس قبل الشيب ما شيب(ب)ا

ابسط رجاء لوصل كذبت

فيه ظنون فتاهت في لجا(ج)

ابسط رجاء لوصل كذبت

فيه ظنون تروي من صـ(د)ـي

ابسط رجاء لوصل كذبت

فيه ظنون ترد السـ(هـ)ـي

ابسط رجاء مع الأولـالـ

وارقب نضارة غصن ذـ(وـ)ـي

Aruz bahrlarining har biri uchun muallifning bitgan she'rlarni badiiy san'at asari darajasiga ko'tarilgan deb hisoblasak mubolag'a bo'lmaydi, bu misralar oddiygina she'r bo'lib qolmay, balki aruz qoidalari sharhi yashiringan she'riy baytlar degan xulosaga kelishga imkon beradi.

“Al-Qistros fi ilm al-aruz” asarining qolgan barcha nusxalarida esa basit bahrining darbi va aruzi maxbun ko'rinishiga keltirilgan she'riy misollar bir xil, masalan, Anqara nusxasidagi Johiliya davri shoiri Zuhayr ibn Abi Salmaga tegishli misrani keltiramiz:

لم تلقها سُوقَةٌ، قَبْلِي، وما مَلِكٌ

يا حار، لا أَرْمَيْنُ منكم، بداهيةٌ

Tarjimasi: *Ey, Xari (Xaris), men sizlarga keltirmayman na oddiy avom, u xoh oddiy, xoh shoh yo'liqadigan* [Zamaxshariy № 124, 1-16].

يا حار لا | أَرْمَيْنُ منكم بدا | هيتن
مست فعلن | فاعلن | مست فعلن | فعلن

سالم | سالم | سالم | مخبون

لم تلقها| سُوقتن| قَبْلِي وَمَا مَلَكُ
مستعملن| فاعلن | مستفعلن | فعلن
سالم | سالم | سالم | مخبون

Al-Andalusiy va Mahmud Zamaxshariyning bu ikki asarini qiyoslaydigan bo'lsak, Al-Andalusiyning “Ar-risala al-andalusiyya” asari hajm jihatidan kichikroq va unda faqat aruz bahrlari mavzusi yoritilgan. Lekin bahrlarga keltirilgan baytlar biror-bir aruzga oid manbalarda uchramaydi. Arab olimlarining qayd etishicha, Al-Andalusiy aruz vaznlari qoidalarini oson o'zlashtirish uchun ushbu baytlarni o'zi yozgan [Shahabiddin al-Ulusiy hij/131, 4]. Zamaxshariyning “al-Qistros” asari aruz nazariyasini to'liq qamrab olgan, aruz bahrlariga esa Johiliya davri arab shoirlaridan Imr ul-Qays, Tarafa, Zuhayr Ibn Abi Salma, Antara, Huteya va boshqa shoirlarning qasidalaridan baytlar misol qilib berilgan. Bu baytlar Halil ibn Ahmad tomonidan namuna sifatida berilgan baytlar va ular boshqa olimlarning aruz nazariyasiga bag'ishlangan asarlarida ham uchraydi. Arab aruziga oid bu ikki manbning bir-biriga o'xshash jihatni —ikki olim ham she'riy misollar berishda o'ziga xos uslubni qo'llagan, ya'ni yuqorida zikr etganimizdek, bahr o'zagidan yasalgan so'z bilan boshlangan baytlar keltirgan. Faqatgina bu kabi usulni Zamaxshariy “al-Qistros”dagi aruziy doiralarda, Al-Andalusiy esa o'n olti bahrga berilgan misollarda qo'llaydi.

Mazkur Tubinger nusxasining kolofon qismiga kelsak, uning yakuni o'n oltinchi “mutadorak” bahri bilan tugagan. Afsuski, nusxani ko'chirgan hattot kim bo'lganligi noma'lum, asarda ham bu haqda yozilmagan. Uning qayerda ko'chirilganligi ham aniq emas, yozilgan vaqt ham ko'rsatilmagan. Qo'lyozma faqat»«مَت»» so'zi bilan yakunlangan.

Xulosa

1. Mahmud Zamaxshariyning aruz ilmiga bag'ishlangan “Al-Qistros al-mustaqim fi ilm al-aruz” risolasi arab aruzi nazariyasini to'liq qamrab olgan, har bir mavzu mukammal yoritilgan, misollar bilan boyitilgan hamda aruz ilmini yaxshi o'zlashtirish uchun ham qulay, ham o'ziga xos usullar qo'llanilgan asar. Aruz ilmida murakkab mavzulardan hisobalangan aruz doiralari oson yo'l bilan va mukammal yoritilgan. Aruziy doiralalar uchun keltirilgan baytlarlarning originalligi va Zamaxshariyning o'zi tomonidan

yaratilganligi olimning mohir shoir va adib ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

2. Mahmud Zamaxshariyning “Al-Qistros fi ilm al-aruz” asarini manbashunoslik va matnshunoslik jihatidan tadqiq etishda yuqorida tavsif qilingan “Rais al-kuttab” nusxasi muhim manba sifatida xizmat qiladi. Chunki ushbu nusxa yaxshi holatda saqlangan, matni to’liq, asarning boshi hamda kolofon qismi ham mavjud, shuningdek, asar hoshiyasidagi aruz ilmiga doir manbalardan parchalar nusxaning ilmiy qimmatini yanada oshirgan.

3. “Rais al-kuttab” va Tubinger nusxalarini qiyosiy tafsiflash natijasida Tubinger nusxasining bir qismi Abu Jaysh al-Andalusiyning “Ar-risala al-andalusiyya” asariga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi. “Tubinger” nusxasining kotibi aruzga oid mavzularni mantiqan bog'lab ketgan. Kotib “Ar-risala al-Andalusiyya” asarini to’liq ko’chirmasdan, faqatgina o’n olti bahrga original berilgan sog’lom vazndagi she’riy baytlarning o’zini ko’chirgan. Lekin shunga qaramasdan, biz tadqiq qilgan Tubinger nusxasidan Zamaxshariyning “Al-Qistros” asarini yig’mal ilmiy-tanqidiy matnnini yaratishda, asarni tahlil qilishda, qolaversa, mazkur asarni qiyosiy-tipologik o’rganishda foydalanish mumkin. Chunki aynan Tubinger nusxasida aruziy doiralar mukammal berilgan va har bir doiraga alohida original baytlar taqdim etilgan. Shuningdek, ushbu nusxaning uchinchi qismida keltirilgan Abu Jaysh al-Andalusiyning “Ar-risala al-Andalusiyya” asaridan ham aruz nazariyasini yoritishda, aruz bahrlarini o’rganishda foydalanish, tadqiqotimizning samarali bo’lishiga xizmat qiladi.

4. Manbashunoslik va matnshunoslik sohasida tadqiqot ishimizda kuzatilgan holat kabi muommolar uchrab turadi, bu esa tadqiqotchini chalg’itishi va asar haqida noto’g’ri xulosalarga kelishiga sabab bo’lishi mumkin. Shuning uchun biror-bir manbani ilmiy istifodaga kiritish uchun manbashunosdan katta mehnat talab qilinadi. Manbaning tahliliga kirishishdan oldin, boshqa mavjud nusxalarni topib qiyosiy va tekstologik jihatdan o’rganib, asar ilmiy-tanqidiy matnnini yaratish kerak.

Adabiyotlar

Талабов, Э. 2004. *Араб шеъриятида аruz тизими*. ДДА. Тошкент.

Худжанова, Д. 2015. *Маҳмуд ибн Умар аз-Замахшарийнинг аruz илмига oid “Ал-Қистос фи илми-л-аруз” асари*. МД. ТошДШИ.

Худжанова, Д. 2018. “Маҳмуд ибн Умар аз-Замахшарийнинг “Ал-

Қистос фи илм ал-ъаруз" асарида аруз доираларининг берилиши". Шарқшунослик 2: 47-52.

Замахшарий, Маҳмуд. Ал-Қистос фи илм ал-ъаруз. Анқара Миллий кутубхонасининг "Бурдур" фондидағи № 124-01 инвентарь рақамли қўлёзма фотонусхаси.

Замахшарий, Маҳмуд. Ал-Қистос фи илм ал-ъаруз. Берлин давлат Тубингер кутубхонаси "Шарқ манбалари" фондидағи Ms.or. quart.118 рақамли қўлёзма фотонусхаси.

Зиёвуддинова, М. 2001. Абу Абдуллоҳ ал-Хоразмийнинг "Мағомотиҳ ал-улум" асарида поэтика. Тошкент: ТошДШИ.

Зиёвуддинова, М. 2005. "Юсуф ас-Саккокий ва унинг "Мифтоҳ ал-улум" асари". Шарқ филологиясининг тугун ва ечимлари, 177-181. Тошкент.

الفوائد الاوليسية على الرسالة الاندلسية. شهاب الدين الاولسي. دار السلام. بغداد، ٢١٣١
كتشf الظنوں عن أسامي الكتب والفنون، المؤلف: حاجی خلیفہ، تحقیق محمد شرف الدین،
الناشر: دار إحياء التراث العربي، ٢١٧٣١

الاعلام ، خیر الدين بن محمد بن علي بن فارس، الزركلي الدمشقى المتوفى:
٢٠٠٢ م - ٦٩٣١ هـ ،الناشر: دار العلم للملايين ،الطبعة : الخامسة عشرة ٤٢٦١

معجم المؤلفين: عمر كحاله، دار إحياء التراث- لبنان، ٦١١١
الزمخشري محمود بن عمر. القسطاس المستقيم في علم العروض. . الدار الكتب المصرية.
٨٣٥هـ. بخط سنة ٣٥٨١ ميلادية.

أبو الجيش الانصاري الاندلسي. الرسالة الاندلسية. جامعة الملك سعود. ٧٥٩١.
<http://www.habous.gov.ma/daouat-alhaq/item/2712>
أبو الجيش الانصاري وكتاب «علل الأعاريض»

D. Xujanova

(Tashkent, Uzbekistan)

dildora_tilla@mail.ru

The Comparison Of The Two Copies Of Mahmud Zamakhshariy's Work "Al Qistos fi Ilm al-Aruz" Brought From Berlin And Istanbul

Abstract

This article deals with the scientific significance of the manuscript work on the theory of Arabic Aruz "Al-Kistas al-mustakim fi ilm al-aruz", written by the great scholar from Mawarounnahr, Mahmoud Zamakhshari, who made a significant contribution to world culture. The article also examines the copies of this source stored in the collections of the state

libraries of Istanbul, Ankara, Cairo, Berlin and other cities. In the article for the first time in textual and literary sources it was made a comparative analysis of the copy of the work "al-Kistas" stored in the "Tubinger" Foundation, Berlin, with other manuscript copies, in particular with the copy stored in the Fund "Rais al-Kuttab" in the Suleymania library of Istanbul. As a result, it turns out that the copy of "Rais al-kuttab" is complete, well preserved, has no gaps and shortcomings, so it is suitable for compiling a critical text of the work "al-Kistas". The copy of "Tubinger" differs from other copies by the structure and originality in the presentation of the material on meters (buhur), as well as in the originality of the poems given in the Aruz circles. It should also be noted that the third part of this manuscript includes excerpts from the work on Aruz "Ar-Risala al-Andalusiya", belonging to the scientist Abu al-Jaish al-Andalusi. The work with great skill uses the poetic examples given to illustrate meters, which were written by Abu al-Jaish al-Andalusi himself, and not found anywhere else. It was revealed in the process of research and comparative analysis that the examples for the illustrations of Aruz circles were written by Mahmoud Zamakhshari himself.

Key words: *Al-Kistas manuscripts, Berlin copy, aruz meters, Aruz's circles, poetic examples, "Ar-risala al-Andalusiyia", Abjad's letters, inner rhyme.*

About the author: *Dildora Xujanova – doctoral candidate, Tashkent State University Of Oriental Studies.*

Recommended citation: Xujanova, Dildora. 2020. "Mahmud Zamakhshariy "Al-qistros fi ilm al-aruz" asarining Berlin va Istanbul nusxalari qiyosi". *Oltin bitiglar* 1: 43—63.

References

- Talabov, E. 2004. *Arab she'riyatida aruz tizimi*. DDA. Toshkent.
- Xudjanova, D. 2015. *Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariyning aruz ilmiga oid "Al-Qistros fi ilmi-l-aruz" asari*. MD. ToshDShI.
- Xudjanova, D. 2018. "Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariyning "Al-Qistros fi ilm al-'aruz" asarida aruz doiralarining berilishi". *Sharqshunoslik* 2: 47-52.
- Zamaxshariy, Mahmud. *Al-Qistros fi ilm al-'aruz*. Anqara Milliy kutubxonasining "Burdur" fondidagi № 124-01 inventar raqamli qo'lyozma fotonusxasi.
- Zamaxshariy, Mahmud. *Al-Qistros fi ilm al-'aruz*. Berlin davlat Tubinger kutubxonasi "Sharq manbalari" fondidagi Ms.or.quart.118 raqamli qo'lyozma fotonusxasi.
- Ziyovuddinova, M. 2001. *Abu Abdulloh al-Xorazmiyning "Mafotih al-ulum"*

asarida poetika. Toshkent: ToshDShI.

Ziyovuddinova, M. 2005. "Yusuf as-Sakkokiy va uning "Miftoh al-ulum" asari". *Sharq filologiyasining tugun va yechimlari*, 177-181. Toshkent.

الفوائد الاوليسية على الرسالة الاندلسية. شهاب الدين الاولسي. دار السلام، بغداد، ٢١٣١
كتشf الظنون عن أسامي الكتب والفنون، المؤلف: حاجي خليفه، تحقيق محمد شرف الدين،

الناشر: دار إحياء التراث العربي، ٢١٧٣١

الاعلام ، خير الدين بن محمد بن علي بن فارس، الزركلي الدمشقي المتوفى:
٤٢٦١ م ٦٩٣١ هـ ، الناشر: دار العلم للملايين ،طبعة : الخامسة عشرة ٢٠٠٢

معجم المؤلفين: عمر كحاله، دار إحياء التراث. لبنان، ٦١١١
الزمخشري محمود بن عمر. القسطاس المستقيم في علم العروض . الدار الكتب المصرية.
٤٨٣٥ هـ. بخط سنة ٣٥٨١ ميلادية.

أبو الجيش الانصاري الاندلسي. الرسالة الاندلسية. جامعة الملك سعود. ٧٥٩١

أبو الجيش <http://www.habous.gov.ma/daouat-alhaq/item/2712>
الأنصاري وكتاب «علل الأعاريض»

R. Alimuhamedov

(*Toshkent, O'zbekiston*)

rixsitilla@gmail.com

Qadimgi turkiy asarlarda matn ikki tilliligi

Abstrakt

Qadimgi turkiy adabiyot uzoq o'tmishta ega. Undagi an'analar, matn tuzish ko'nikmasi ham qadim zamonlardan shakllanib kelgan. Ikki tilda asar yaratish ko'nikmasi turkiy matnnavislik tarixida qadimdan shakllangan bo'lib, ularning ilk namunalari islomdan avvalgi yozma yodgorliklar orasida ko'plab uchraydi. Bu davrga kelib, turkiy xalqlarning qo'shni millat va davlatlar bilan o'zaro savdo va iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy aloqalari kuchayib ketdi. Natijada adabiy matnlar ikki (hatto uch) tilda yaratila boshlandi. Matn ikki tilliligi masalasi yerli aholining ikki tilda so'zlashuvi hamda tarjimachilik bilan bog'liq. Ushbu maqola qadimgi turkiy adabiy manbalaridagi ikki tilli matnlar yaratish tahliliga bag'ishlangan. Unda ikki tilli matnlarning yaratilish sabablari, tuzilishi kabi masalalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *qadimgi turkiy matnnavislik, ikki tilli matn (bilingvizm), qadimgi turkiy adabiyot, turk-moniy adabiyoti, adabiy aloqalar.*

Muallif haqida: Rixsitilla Alimuhamedov – filologiya fanlari doktori, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

Tavsiya etiladigan havola: Alimuhamedov, Rixsitilla. 2020.

"Qadimgi turkiy asarlarda matn ikki tilliligi masalasi". *Oltin bitiglar* 1: 64—79.

Kirish

Qadimdan turkiy xalqlar yashaydigan yerlar Osiyoning eng gavjum hududlaridan biri sanalgan. Bu yerda ko'plab karvon yo'llari kesishgan bo'lib, bozorlar, saroy va karvonsaroylar joylashgan edi. Xususan, Buyuk ipak yo'lining mazkur yerdidan o'tishi madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy, diniy-falsafiy sohalarning jadal rivojlanishiga olib

keldi. Karvon yo'llarida turkiy til bilan birga qadimgi xitoy, hind, sug'd va boshqa tillarning qo'llanilishi ushbu hududda yashovchi xalqlarning bir nechta tillarni o'zlashtirishlariga turtki bo'lgan.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududida ko'plab diniy-falsafiy ta'limotlar rivoj topgan. Xususan, buddaviylik, moniylik, xristianlik va ko'plab boshqa diniy ta'limotlarning yoyilishi va rivojlanishida asosiy rolni o'ynagan. Shu bilan birga, mazkur diniy ta'limotlarni targ'ib etuvchi yoki ayni adabiy muhitda yaratilgan manbalar ko'plab uchraydi. Ahamiyatlisi shundaki, mazkur yozma yodgorliklarning ayrimlari ikki tilda yaratilgan.

Turkiy matnnavislik tarixida bir asarni ikki tilda ko'chirish an'anasi qadimdan shakllanib keladi. Matn ikki tilliligi qadimgi turkiy adabiyotning turk-budda va turk-moniy adabiy muhitlarida yaratilgan diniy-falsafiy mazmundagi asarlarda hamda O'rxun-Yeniseydan topilgan epigrafik yodgorliklarda uchraydi.

Fikrimizcha, matnlarning ushbu ko'rinishda yaratilishining o'ziga xos sabablari bor. Birinchidan, turk-moniy va turk-budda adabiy muhitida yaratilgan asarlarning ko'pchiligi sanskrit, sug'd, xitoy, tohar tillaridan tarjimalar bo'lib, ular orasida turli duolar, tavbanoma matnlari va boshqa asarlar bor. Marosim jarayonida topinuvchi duoni turkiy tilda aytgan. Oradagi ayrim so'zlar yoki duo jumlalari (formulalari) asar tarjima qilingan tilda qo'llangan. Asarning bunday o'rirlari matnning ajralmas komponenti bo'lib, asosan, asliyatda keladi.

Ikkinchidan, Buyuk Ipak yo'lida turkiy til bilan bir qatorda sug'd, xitoy va boshqa tillar iste'molda bo'lgan. Turkiy tilning o'sha kezdagi mavqeyi va uni o'rganishning foydalari to'g'risida Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit turk" asarida ma'lumot keltiradi [Koshg'ariy 2017, 14].

Uchinchidan, turk-budda jamoalarida sanskrit tilini, turk-moniy jamoalarida sug'd tilini bilish ahamiyatli sanalgan. Chunki ta'limotning asosi shu tillardan tarjima qilingan matnlar orqali turkiy xalqlarga yetkazilgan. Ta'limot tarqatilgan tilni bilish boshqa dinlarda ham uchraydi.

Tarixda yaratilgan ikki tilli matnlar bir yozuv doirasida yoki turli yozuvlarda bitilgan.

Matnnavislik tarixi uchun matn ikki tilliligi masalasi ahamiyatli voqeadir. Uni o'rganish matn tuzish bilan bog'liq ko'plab masalalarga oydinlik kiritadi. Bunda matn tuzish prinsiplarini o'rganish, tarjimaning o'ziga xos afzalliklarini aniqlash mumkin. Hozirgi kunga qadar qadimgi turkiy adabiyotda ikki tilda yaratilgan

matnlar to'g'risida tadqiqot ishlari nashr etilgan [Clark 2013]. Ammo ularda asosiy e'tibor matn va uning talqiniga qaratilgan. Bunday matnlarning ikki tilliligi masalasi xali tahlil etilgan emas. Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida quyida qadimgi turkiy adabiyotda yaratilgan ikki tilli matnlar to'g'risida, ularning xususiyatlari haqida to'xtalamiz.

Asosiy qism

Qadimgi turkiy adabiyotda ikki tilda baravar yaratilgan matnlar qadimdan mayjud. Ularning yaratilishiga ko'plab omillar turki bo'lgan. Xususan, xududda yashovchilar turli tillarda so'zlashsa yoki yaratilgan asar o'zga tildan tarjima bo'lsa bunday holat kuzatilishi mumkin.

Turkiy adabiyot tarixida ikki tilli asarlardan tashqari bir til doirasida, lekin ikki xil yozuvda bitilgan asarlar ham bor. Bular sirasiga Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" va boshqa ko'plab asarlarni keltirish mumkin.

Insoniyat tarixida yozuvning paydo bo'lishi katta kashfiyot bo'lgan. Endilikda kishilar tomonidan bajarilgan turli ishlar, tarixiy jarayonlarni qog'ozga tushirish imkoniyati yaratildi. Bora-bora matn tuzish alohida bir sohaga aylandi. U ham boshqa fan sohalari kabi rivojlandi, taraqqiy topdi. Matn bituvchilik kasbi paydo bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan birga turli vaziyatlarda tuzilajak matnlarning qoliplari ishlab chiqildi. Matn bitishda muayyan an'ana shakllandi. Bir muhitda yaratilgan matn tuzish an'anasi keyingi davrda o'zlashtirilib, yanada shakllantirildi. Shu tariqa matn tuzish an'anasi rivojlandi.

Bunday soha turkiy xalqlar orasida ham qadimdan shakllangan bo'lib, ular yaratgan, bizgacha yetib kelgan go'zal namunalarini Kul tigin, Bilga xoqon va boshqa epigrafik manbalar matnlarida kuzatish mumkin.

Matn tuzishdan oldin uning qay maqsadda tuzilishi inobatga olinadi. Shundan kelib chiqib, matn bituvchi matn mazmuniga xos bo'lgan matn komponentlarini tanlab, ishni boshlaydi.

Ikki tilli turk-moniy alqovlari

Qadimgi turkiy adabiyot tarixida alqovlar, asosan, turk-moniy muhitida yaratilgan. Ularning xudolar va payg'ambar sharafiga, turli marosimlar oldidan aytiladigan va kundalik hayotda tangridan o'z gunohlarini kechirilishini tilab qilinadigan turlari mavjud [Clark 2013, 135–280].

Alqov g'arb adabiyotshunosligidagi gimnlarga o'xshaydi. **Gimn** —[*yunoncha hymnos*] “tantanavor qo'shiq” degan ma'noni anglatib, qadimda xudolar sharafiga to'qilgan she'rlarni anglatgan. Keyinchalik gimn u yoki bu g'alaba, qahramon yoki biror xalq, davlat sharafiga aytildigan madhona qo'shiqqa aylandi. Olimlarning fikricha, gimnlar oddiy sig'inish qo'shiqlaridan tortib, madh qo'shiqlarigacha bo'lgan katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan [Hotamov va Sarimsoqov 1983, 84–85]. “Uning spetsifik tomonlari tik turib, xor bo'lib aytilishi, rasmiy marosimlar va tantanalarda g'urur bilan kuylanishidir. Janrning muhim belgilaridan yana biri gimn matni va musiqasining tantanavorligi va yuksak uslubda ekanligi, unda faxr, ruhan tetiklik hissining bo'rtib turishi, mazmunning dastur xarakteridaligi, publisistik pafosdaligi, maqtov va madhiya tusini olishidir” [Adabiy turlar va janrlar 1992, 185].

Qadimgi turkiy tilda yaratilgan gimn(alqov)lar ham xuddi shu xarakterga ega bo'lib, ularning biror kimsani maqtash xususiyatiga ko'ra sharq musulmon adabiyotida yaratilgan “qasida”larga, g'arb va rus she'riyatida “oda”ga, qadimgi hind adabiyotidagi “veda”larga, zardushtiylikdagi “yasht”larga o'xshatish mumkin [Shomuhamedov 2004, 8-20; The encyclopaedia of Islam 1997, 715-716; Nosirov va boshqalar 1979, 127–137; Hotamov va Sarimsoqov 1983, 148; 224-225; Yelizarenkova 1989, Is'hoqov 2001].

Gimnning turkiy muqobili alqov sanaladi. Darsliklarda madhiya (arabcha madaha مَدَح — “maqtamoq, madh qilmoq” [Baranov 1989, 746]) deb beriladi. Alqov atamasi haqida Mahmud Koshg'ariy quyidagi fikrni beradi: alqiš — olqish, maqtash; duo qilmoq; tabrik; birovning yaxshi xislatlarini eslash kabi ma'nolarni anglatadi [Koshg'ariy 2017, 104]. Qadimgi turkiy adabiyotda bunday she'riy parchalar turk-budda, turk-moniy adabiy muhitlarida yaratilgan.

Kunimizgacha yetib kelgan turk-moniy alqovlari ikki ko'rinishda: faqat turkiy tilli hamda sug'dcha-turkcha alqovlardir [Tugusheva 1972, 239].

Turk-moniy muhitida yaratilgan mashhur hamda ikki tilli alqovlardan biri Moniyga atab yaratilgan. Matn parchalari hozirda Germaniyada, Berlindagi Brandenburg akademiyasi Turfanforschung, Digitales Turfan-Archiv fondida saqlanayotgan Uigurische Texte bo'limidagi U 0099, U 0100, U 0101a,b, U 0102a,b, U 0103a,c recto ko'rsatkichli parchalardan o'rin olgan. Kitobat usuliga ko'ra alqov kichik potxi¹ kitobi ko'rinishiga ega.

1 Potxi – qadimgi hind kitobat usulidan biri bo'lib, asosan, buddaviy matnlarda

Alqov matni tohar va turkiy tilda, yozuvi moniy xatida. Matnda alqov avval tohar tilida, so'ng nuqta (•)dan keyin turkiy tilda berilgan (*ylaiñiktense mukur ram • [xormuzta] täjri[niŋ dïdïm] t[äg •] bramñiktense pääsak ram • [azruwā] [täj]rini]ŋ [pääsak täg •]*).

Toharcha matn	Turkiy tarjimasi
<i>lkäsi šuke pidär-mani</i>	<i>körgäli toqiliğ qanım mani burxan</i>
<i>tusa tusa pällämar</i>	<i>anin anü üzä ögä yükünür män</i>

L. Klarkning ta'kidlashicha, ushbu alqov turk-budda muhitidagi Buddhastotra asariga o'xshab ikki tilli ko'rinishda [Clark 2013, 184].

Qatorlardagi hijolar soni bir xil emas. Turkiy matn so'ngida alqov Aryaman Frishtum Xoshtir degan kishi ibodati uchun yozilgani qayd etilgan [Clark 2013, 183]. Ushbu shaxsning nomi "Xuastuanivt"ning moniy yozuvli parchalarida ham kelgan (U10 recto: 12; verso: 1). Ahamiyatlisi shuki, ushbu alqov qadimgi turkiy adabiyotda ko'plab yaratilgan ikki tilli asarlardan biri sanaladi.

Alqovning turkiy tarjimasida alliteratsiyaga amal qilishga intilish bo'lgani yaqqol sezilib turadi:

xormuzta t(ä)jrininj dïdïm täg — azrua t(ä)jrininj pääsäk täg —čintamani ärdäni täg; sän tägimlig ärür sän — ançilayu yaltirayur sän. Kesim so'zlovchi birligi (I shaxs, birlik)da: qanım, yükünür män, yükünü-täginür män.

Ikkala tildagi alqov mazmun jihatidan, ba'zi so'zlar qo'shilganini hisobga olmaganda, aytarli bir xil. Matn so'ngida qizil siyohda: *k[ä]si bätti täjri ... küsän ...* — "Kasi bitdi (yozdi) tangri ... Kucha ...". Anglashiladiki, alqov Kucha shahrida ko'chirilgan.

Ikki tilda yaratilgan alqovlardan yana biri Oy tangri va yorug'lik ma'budasiga atab yaratilgan (MIK. III 35a+b (TM 327). Xati ko'k turk yozuvida, qora va qizil (recto 2-4, verso 5) siyohda. Matn

qo'llanilgan. Hind o'lkasida bunday kitob palma yaproqlarini bir-birining ustiga qo'yish orqali yasalgan, yaproqning yuqori yoki pastki burchagidan ip o'tkazish uchun joy qoldirib, matn o'sha joyiga kelganda to'xtab, ip o'rnining boshqa joyidan davom ettirilgan. Palma yaproqlaridan yasalgan potxi kitoblar faqat hind manbalarida uchraydi. Turk-moniy muhitida ushbu uslubdag'i kitoblar qog'ozdan tayyorlangan, manbalarda ularning ikki xil ko'rinishini uchratish mumkin: kichik potxi va katta potxi kitobi. Kichik potxi kichik hajmga ega varaqlardan tayyorlangan. Unda matn gorizontal uzunlikdagi qog'ozga parallel qilib o'ngdan chapga bitilgan. Potxi tizimchasi o'tkaziladigan o'rni qog'ozning o'ng tomonida joylashgan (namuna uchun qaralsin: U 0083 seite1, U 0083 seite2, U 0087 recto). Ip o'tkaziladigan joy atrofi doiraga olingen bo'lib, bu hol varaq yirtilganida matnga ziyon yetkazmaslik uchun qilingan.

turkiy va eroniy tillarning birida aralash berilgan. Turkiy matndan ma'no chiqarish mumkin. Lekin ko'k turk xati eroniy tilning fonetik qurumini o'zida aks ettira olmasligi hisobga olinsa, o'qilgan taxminiy matndan biror ma'no chiqarish mushkul. Shunga qaramay L.Klark undan umumiylar ma'no chiqarishga harakat qilgan [Clark 2013, 191–192].

Matnda moniylikda qo'llanuvchi *ay täjri, manastar xirza, ormizta, frešte* so'zlari keladi. Shu bilan birga, mazkur she'riy parchanening alqovligiga ishora etuvchi o'rni ham bor. Matnda sug'dcha *pašik* — “*alqov*” so'zi ishlataligani [Gharib 2004, 261]. Bundan tashqari sug'dcha bo'lgan *afrušn* — “*maqtov, madh, alqov*” [Gharib 2004, 26] so'zi turli ko'rinishda (*afrin*) uchraydi. Matnda uning muqobili *alqiš* ham kelgan.

Ushbu alqovni ham bilingual (ikki tilli) alqovlar sirasiga kiritish mumkin: *tükäti afrušnlar* — “*alqov (maqtov)lar tugadi*” [verso 4].

Bundan tashqari, turk-monyiy muhitida yaratilgan “Irq bitigi”da ham matn ikki tilda: turkiy hamda xitoy tilida. Xitoycha matn asarning boshi va oxirida keltirilgan. Asarning asosiy qismida turkiy matn bitilgan [Tekin 1993].

Matn ikki tilliligi hodisasi butun matnning ikki tilda bo'lishi bilan bir qatorda, matnning bir qismida yoki uni to'ldiruvchi jumla sifatida ham kelishi mumkin. Masalan, Tong tangri sharafiga bitilgan alqov qo'lyozmasida, alqov matnidan avval sug'dchada *vam vağinuň paš*, ya'ni “*tong tangriga alqov*” deb yozilgan. Xuddi shu matn davomiga bitilgan boshqa bir alqovning boshida *vağ rāšan zavar žiriftnuň paš* so'zi yozilgan. Uni o'zbekchaga “*yorug', kuchli, bilga tangri alqovi*” deb tarjima qilish mumkin.

Ikki tilda matn bitish amaliyoti ushbu hududda yashovchi xalqlarning til o'rganish ko'nikmasi yaxshi rivojlanganining [Yazberdiyev 1993, 5] hamdaturkiyadabiyottarixidatarjimashunoslik qadim o'tmishga ega ekanligini yana bir bor isbotlamoqda.

Asarni ikki tilda ko'chirtirish bejizga emas. Ibodat qiluvchi rohib (yoki nig'o'shak) alqovni tohar tilida aytishi uni Moniy bilan yaqinlashtirsa, uning turkiy varianti esa o'zi tushunishi, o'z tilida ham Moniyini maqtashi uchun yozilgan bo'lishi kerak. Yoki ushbu alqov avval tohar tilida yaratilgan bo'lib, keyinchalik moniy rohiblari yoki biror nig'o'shak tomonidan turkiyga o'girilgan va shu bilan ikki tilli alqov paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. Aslida, boshqa dinlarda ham ibodat, asosan, din targ'ib etilgan tilda amalga oshiriladi.

Ikki tilli epigrafik yodgorliklar

Qadimgi epigrafik yodgorliklar orasida Ikkinci turk xoqonligi davrida yaratilgan Kul tigin (732) bitigining uch tomoniga turkiy tilda, sharqiy tomoniga esa xitoy tilida matn bitilgan. Turkiy matnda Kul tiginning yurishlari, g'alaba va yutuqlari tarixi yozilgan (Tänri küc birtük üçün qajim böri-täg ärmis, yağisi qoñ-täg ärmis — “Tangri kuch bergani uchun otam xoqonning qo’shini bo’ridek ekan, dushmani qo’ydek ekan” [Sodiqov 2009, 34; 43]). Yodgorlikning xitoycha matnida xitoyliklarga Kul tiginning qilgan ishlari o’rnak bo’lsin deb, shu qatori chinliklarga o’z kuch-qudratini ko’rsatish maqsadida ushbu tilda ham tiklangan.

Shunday epigrafik yodgorliklardan ikkitasi Uyg’ur xoqonligi davrida yaratilgan. Shulardan biri Sevrey somon (763) yodgorligi ikki: sug’diy va turkiy tilda bitilgan. Mutaxassislarning fikricha, yodgorlik moniylik muhitida yaratilgani sababli sug’dcha matnga ega [Klyashtorniy va Livshits 1971, 110].

Uyg’urxoqonligidavridayaratilganyanabir epigrafikyodgorlik Qorabalg’asun (821) nomi bilan mashhur. Fanda ushbu yodgorlik uch kompleks shaklida o’rganiladi. Shulardan 3-Qorabalg’asun bitigi uch: turkiy, xitoycha va sug’dcha tilda(trilingva)dir. Mazkur yodgorlik Uyg’ur xoqonligi davrida, moniylik rasmiy ravishda davlat dini sifatida qabul qilingandan so’ng yaratilgan. Yodgorlik matnlari bir-birini aynan takrorlamasligi [Sodiqov 20041, 24] ular uch muallif tomonidan bitilgan degan xulosaga olib keladi. Yodgorlikning uch tilda yaratilganining o’ziga yarasha sabablari bor. Uyg’ur xoqonligida davlatning rasmiy tili turkiy bo’lgan. Moniy dinining turkiy xalqlar orasiga sug’dliklar olib kirganliklari sababli yodgorlikka sug’dcha matn kiritilgan. Xitoycha matnning yaratilishi esa o’sha davrda turkiy xalqlar sharqda asosiy savdo-iqtisodiy aloqalarni xitoy bilan olib borgani sabablidir.

Ushbu epigrafik yodgorliklarning har ikki (uch) tildagi matnlari bir-birini aynan takrorlamaydi. Ya’ni bir matn aynan tarjima qilinmagan. Chunki matnlar boshqa-boshqa bituvchi-kotiblar tomonidan yaratilgan. Shunday bo’lishiga qaramay, ular bir maqsadga yo’naltirilgan; ularning mavzu doirasi bir. Jumladan, Kul tigin bitigining har ikki matnida sarkardaning yurishlari, uning el-ulus oldida qilgan xizmatlari bayon etilgan. 3-Qorabalg’asun yodgorligida esa Uyg’ur xoqonligi davrida moniylikning amalda bo’lishi, xoqonlarning qilgan ishlari hamda boshqa tarixiy jarayonlar aks etgan.

Uyg’ur xoqonligi davrida yaratilgan Sevrey (763) yodgorligi

ham ikki tillidir. Unda matn turkiy va sug'diy tilda bitilgan. Olimlarning fikricha, yodgorlik moniylik muhitida yaratilgani uchun sug'diy matnga ega [Klyashtorni va Livshits 1971, 110].

Ilk o'rta asrlarda turkiy xalqlar yashaydigan hududlarda sug'd va xitoy tili qo'llanishining tarixiy sabablari bor. Turkiy xalqlar sug'dlar, xitoyliklar bilan qadimdan savdo-iqtisodiy aloqalar olib borgan. Shu bilan birga, ikki tillilik muayyan hudud bilan ham bog'liq. Masalan, turkiy hududda sug'd tili sug'd aholi yashaydigan hududlardagina, ularning o'zaro munosabatlarida qo'llanilgan.

Matn ikki yoki ko'p tilligi, aftidan, turkiy matnnavislik tarixi uchun begona emas: ushbu an'ana qadimda paydo bo'lган bo'lib, ilk o'rta asrlar uning cho'qqiga chiqqan pallasi sanaladi. Uning saqlangan namunalari ilk o'rta asrlarga tegishli. Kunimizgacha yetib kelgan ikki va ko'p tilli asarlar, epigrafik matnlar diniy-falsafiy mazmunga ega. Shu bilan birga, matnlarda tarjima turlarini kuzatish mumkin: so'zma-so'z tarjima yoki umumiy ma'no tarjimasi. Bu tarjimachilik o'tmishda yaxshi rivojlanib, uning usullari o'sha davrlardayoq tarmoqlarga ajralganini bildiradi.

"Xuastuanivt" — tarjima asar

Turk-moniy manbalari orasidagi tavbanoma tipidagi asarlardan biri bu "Xuastuanivt"dir. Kunimizga qadar mazkur asarning uch to'liq holidagi nusxasi yetib kelgan (Sankt-Peterburg va Berlin nusxalari) [Sodiqov 2015, 143-148]. Uning nomi asarning uyg'ur yozuvli Sankt-Peterburg nusxasi so'ngida quyidagicha keltirilgan: *tügädi n(i)جوڭلارنىڭ سۈيىن يازۇقىن öküngü Xuastuan(i) vt* [Xuastvanift 2008, 16]. Bu nom asarning moniy yozuvli Berlin uzindisida ham uchraydi. Jumladan, Berlin akademiyasida saqlanayotgan moniy yozuvli U 0007recto ko'rsatkichli uzindining 11 qatorida qizilda (xuastuanift) yozilgan.

"Xuastuanivt" — tarjima asar. Bu to'g'rida olimlarning turli fikrlari bor. Jumladan, L. Dmitrieva va Q. Sodiqovning fikricha, u qadimgi eroniy tillardan birida yaratilgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan, turkiy qabilalarga moniy dinining qoidalarini tushuntirish maqsadida turkiy tilga o'girilgan [Dmitrieva 1963, 214; Sodiqov 1997, 35]. Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda Q. Sodiqov mazkur asar ilk o'rta asrlarda o'rtancha eroniy, sug'diy, turkiy, xitoycha versiyalarda keng tarqalganini ta'kidlaydi [Sodiqov 1997, 33].

Turkshunoslikda hozirgi kunga qadar "Xuastuanivt"ning qaysi davrda tarjima qilingani aniqlanmagan. Olimlar ushbu asar tarjimasi to'g'risida turlicha fikrlar bildiradi. Masalan, Q. Sodiqov

"Xuastuanivt"ni turklar orasida moniylik keng yoyilgan va ijtimoiy-madaniy hayotda uning mavqeyi yuqori bo'lgan VIII asrda turkiyga o'girilgan [Sodiqov 1997, 35] degan fikrni bersa, L. Tugusheva qo'lyozmaning xat uslubiga ko'ra, uni XI asrda tarjima qilingan, degan fikrni ilgari suradi [Xuastvanift 2008, 12]. Bularning orasida S. Malov asarni O'rta Osiyoda madaniyatning o'zgarishi, jumladan, VII-VIII asrlarda arablarning islom bilan kirib kelganlarini inobatga olib, mazkur asarni milodiy V asrda, islom kirib kelmasidan burun tarjima qilingan, degan fikrni ta'kidlaydi [Malov 1951, 108]. Fikrlarning bu qadar xilma-xilligi olimlarning asar tili, yozuv uslubi bilan bog'liq fikrlaridan kelib chiqqan. Taxminimizcha, mazkur asar turkiy xalqlar hududiga islom dinining kirib kelishidan avval, turkiy xalqlar moniylikni qabul qilgan paytlarida omma orasiga moniylikni yoyish maqsadida o'girilgan va nusxalari tarqalgan. Keyingi davrlarda, ya'ni Sharqiylar Turkiyida Uyg'ur xoqonligining qulashi bilan (840-yil) moniylik davlat dini darajasidan tushgan va ikkinchi darajali dinka aylanib qolgan. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda mazkur asarni taxminan VIII-IX asrlarda turkiy tilga o'girilgan, degan fikrni ilgari surish mumkin.

Asarning sug'dcha variantining ikki uzindisi V. B. Henning tomonidan nashr etilgan. Olimning ta'kidlashicha, asarning mazkur sug'dcha varianti turkiysi bilan deyarli bir xil (*mot á mot*). Uzindilarni asarning turkiy variantiga solishtirganda ular asarning yakunlovchi bo'limi, o'ninchi hamda o'n birinchi bo'limlarining bosh qismiga to'g'ri kelmoqda [Henning 1940, 63-67].

Ikki tilli turk-mony duolar

Qadimgi turkiy muhitda yaratilgan turli mazmundagi matnlarning tuzilishi har xil. Jumladan, turk-budda va turk-mony muhitida yaratilgan diniy-falsafiy asarlar o'ziga xos matn tuzilishiga ega. Masalan, turk-budda muhitida yaratilgan "nom bitig"larda, turk-mony muhitida yaratilgan duo, tavbanoma va alqov matnlarida matn mazmunidan kelib chiqqan holda matn komponentlari tanlangan. Ushbu asarlarda komponent sifatida matn so'ngida unda aytilgan tilak va istaklarning amalga oshishi uchun duo jumlesi, iltijo so'zları beriladi. Bu kabi so'zlar boshqa ta'limotlardagi asarlarda ham xuddi shu ko'rinishda uchraydi.

Qadimgi turkiy diniy-falsafiy asarlarda matn so'ngida kelgan duo jumlalari matn tuzilishida muhim rol o'ynaydi: matn badiiyligini ta'minlaydi, mazmun ekspressivligini oshiradi, uslub ravonligi, ohangning bir tekisda chiqishi uchun xizmat qiladi.

Qadimgi turkiy muhitda yaratilgan matnlarda duo jumlalari an'anaga ko'ra asar boshida, oxirida yoki ikkala o'rinda, tilak-istikdan so'ng keladi. Ular anglatgan ma'nosiga ko'ra turlicha: ba'zi duo jumlalari dinning asosiy ustunini anglatadi, qolganlari "*gunohlardan xalos bo'lish*" yoki "*duolarning ijobat bo'lishi*" kabi mazmundagi fikrni bildiradi. Turkiy matnlarda ushbu duo jumlalari ikki xil ko'rinishda: matn yaratilgan asliyat tilida (ya'ni sanskrit tilida yaratilgan bo'lsa, sanskrit tilida, sug'd tilida yaratilgan bo'lsa, sug'dchada) yoki turkiy variantda qo'llanilgan. Bunga misol qilib Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi basmalani (*bayat ati birlä ...*) keltirish mumkin [Sodiqov 2006, 189-191]. Turkiy matnnavislik tarixida har ikkiko'rinishi amalda bo'lgan.

Duo jumlalari matnning sintaktik butunligini ta'minlaydi. Bunda matn anglatgan ma'no bilan duo jumlesi aniq bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi, ya'ni matnda keltirilgan fikrning amalga oshishi uchun duo qilinadi. Shu bilan birga ular asarning janr xususiyatini ham belgilaydi. Ushbu duo jumlalari vaqt o'tishi bilan qolip formaga (duo formula) tushib qolgan. Endi duo formulalarini misollar orqali ko'rib chiqsak.

Turk-moniy muhitida yaratilgan "Xuastuanivt"ning uch qo'lyozma va ko'plab uzindilari fanga ma'lum [Sodiqov 2015, 143-148]. Asarning barcha bo'limlarida bilib-bilmay qilingan ayb-gunohdan panoh tilab, yozuqlarning kechirilishi uchun yolboriladi. Har bir bo'lim so'ngida qilingan tavba-tazarrularning ijobat bo'lishini tilab, quyidagicha duo qilinadi: *yazuqda boşunu ötüñür-biz, m(a) nastar hirza*. Ushbu duo jumlesi formulaga solinsa quyidagicha chiqadi: **YÖ+MH**. Bu yerda **YÖ** — gunohdan xalos bo'lish jumlesi (*yazuqda boşunu ötüñür-biz*), **MH** — esa duo formulasidir (*m(a) nastar hirza*).

Ushbu duo jumla "Xuastuanivt"da turli variantlarda qo'llangan:

yazuquğ boşunu ötüñür-biz, m(a)nastar hirza // amtii t(ä) ñrim yazuqda boşunu ötüñür-biz, m(a)nastar hirza // t(ä)ñrim amtii öküñür-biz, yazuqda boşunu ötüñür-biz m(a)nastar hirza // t(ä) ñrim amtii öküñür-biz, yazuqda boşunu ötüñür-biz, m(a)nastar hirz. Ushbu misollarda duo jumlasiga yana bir-ikki komponent qo'shilgan.

Bular ham formulaga solinsa, quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi: täñrim+Ö+YÖ+MH. Bu yerda: täñrim — tangriga murojaat, Ö — o'kinch (öküñür-biz).

Asar turkiyga o'girilganida duo formularasi aslicha qoldirilgan. Aslida ushbu formula pahlaviy tilidan olingan bo'lib (*mna:sta:rhi:rz-a*

pahlaviy tilidan: *str, mnstr* — ayb, gunoh, yozuq) [Desmond Durkin-Meisterernst 2004, 55], o'zbek tiliga “*yozug'imizni kechirgaysan!*” [Sodiqov 2015, 146] yoki “*gunohimizni kechirgaysan!*” ko'rinishida o'girish mumkin.

Ushbu duo formula “Xuastuanivt”ning turli nusxalarida turlicha ko'rinishda, masalan, “Xuastuanivt”ning uyg’ur yozuvli Sankt-Peterburg qo’lyozmasida *m(a)nastar hirza* ko'rinishida, moniy yozuvli Berlin qo’lyozmalarida *m(a)nastar hirz* yoki *m(a) nastar hirza* ko'rinishida qo'llangan. Turk-moniy muhitida yaratilgan boshqa tavbanomalarda har ikkala ko'rinishi yoki *yazdān astar xirza* (*yazdān* — ko'pl. “ilohiy, xudo” [Desmond Durkin-Meisterernst 2004, 376]) — “*ilohim, yozug'imizni kechirgaysan!*” ko'rinishida amalda bo’lgan.

Ushbu adabiy muhitda yaratilgan boshqa bir duo matnida *mäjigü inča bolzun* — “*mangu shunday bo'lsin!*” ko'rinishidagi duo formulasi qo'llangan. Ushbu duo formulasi turk-budda diniy-falsafiy matnlarida ham qo'llangan bo'lib, turli ko'rinishda keladi [Zieme 1986, 131-139].

Duo formulalari matn uslubini boyitadi. Uning bir tekis, ravon o'qilishini ta'minlaydi. Buni turk-moniy muhitida yaratilgan duo misolida ko'rsak:

...ymä köjylümüz, köküzümüz turqaru busušuzun-qadğusuzun turzun! barča ädgü qilinčqa tükkällig bolalim! özütümüz qurtulmaq-boşunmaq, yigädmäk-utmaq, täŋri yirintä tägimlig bolzun! ***mäjigü inča bolzun!*** [Gabain 1950, 260-261]

“... yana ko'nglimiz, ko'ksimiz doim g'am-qayg'udan holi bo'lsin. Barcha ezgu ishda tugallik bo'lsin. Vujudimiz ozod bo'lgan, (kasalliklardan) tuzalgan, g'alaba qilgan (bo'lsin), tangri yerida bo'lish nasib etsin. ***Mangu shunday bo'lsin!***”

Matnda tilaklar va istaklar birma-bir sanalib, ularning ijobat bo'lishi uchun matn so'ngida duo qilingan. Jumlalardagi kesim shart-istak maylida (*un; -(a)lüm*) kelgan. So'zlarni juftlash (*qurtulmaq-boşunmaq, yigädmäk-utmaq*) matn mazmuniga, uning uslubiga katta ta'sir qilgan. Bu hol matn ma'nosini kuchaytirgan.

Yana bir misol, üč *y(i)girminč* ay *t(ä)ŋrii künin sayu t(ä)ŋrikä nomqa arıg dintarlar: suyumuznii yazuqumuznii bošuyu qulmaq k(ä) rgäk ärtii : y(ä)mä ärkligin ärksiz(i)n ärinip ärmägürüp iškä ködükä tiltanip yazuqda boşungalii barmad(i)m(i)z ärsär: t(ä)ŋrim amtii yazuqda bošunu ötünür-biz m(a)nastar hirza :* (261-271) [Özbay 2014, 229].

“o'n uchinchi (bo'lim). Oy tangri, kun sayin tangriga, qonunga,

pok dindar(moniy topinuvchi)lar oldida gunoh-aybimizdan qutulishni so'rab, o'tinishimiz kerak edi. Yana bilib-bilmay, parvosizlik bilan ishni bahona qilib gunohdan qutulishni xohlamagan bo'lsak, tangrim, endi gunohlarimizdan qutulaylik deya o'tinurmiz, gunohlarimizni kechirgaysan".

Matnda bir qancha bilib-bilmay qilingan ayb-gunohlarning kechirilishi so'ralib, o'tinch tilanadi. An'anaga ko'ra matn so'ngida barcha aytilgan tilaklarning ijobat bo'lishi uchun duo jumlesi keltirilgan. Bu yerda ham duo jumlesi mazmun birligi hamda uslub ravonligini ta'minlayapti.

Turk-budda adabiy muhitida yaratilgan Maytri bilan uchrashishning muqaddas kitobi "Maytri simit nom bitig" asarida, har bir bo'limning boshi va oxirida quyidagicha duo formulasi qo'llangan: *namo bud, namo d(a)r(a)m, namo say* — "Buddaga ta'zim, ta'lomitga ta'zim, jamoaga ta'zim". Duo formula asarning har bir bo'limida qo'yilishining o'ziga yarasha sababi bor. Har bir bo'lim alohida shakl va mazmunga ega. Duo formulasining asar boshi va so'ngida qo'yilishi uning muqaddasligini anglatadi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar asar bo'limlari alohida ko'rinishda hamda butun holida ko'chirilgan, degan fikrni olg'a suradilar [Sodiqov 2004, 62–63].

Ushbu asar anatkak (sanskrit) tilida yaratilgan va u avval tohar, so'ng turkiyga o'girilgan. Tarjima jarayonida mazkur formula aslicha saqlangan. Formulada buddaviylik ta'lomitining asosini tashkil etgan uch g'oya, ya'ni uch javohir ifodalananadi. Bular Buddha, dxarma va sangxadir.

Xulosa

Qadimgi turkiy adabiyot tarixida ikki tilli asarlar yaratish uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bu o'rinda turkiy xalqlarning turli qo'shni mamlakatlar bilan olib borgan ijtimoiy-madaniy aloqalari ham alohida ahamiyatga ega. Tarixda turkiy xalqlar g'arbda sug'd o'lkalari (eroniyl tilda so'zlashuvchi xalqlar), sharqda xitoyliklar hamda hindlar bilan o'zaro savdo hamda madaniy aloqalarni miloddan burungi davrlardan o'rnatganlari ma'lum. Jumladan, miloddan avvalgi I asrda hind o'lkasidan buddaviylik, milodning III–IV asrlarida esa fors o'lkasidan moniylik kirib keldi. Buning natijasida o'zga tillardan turli diniy-falsafiy asarlarni turkiyga o'girishga talab ortdi. Shuning natijasida ko'plab asarlar turkiyga o'girildi, ba'zida ular ikki tilda ham yaratildi. Tarjimachilik rivojlandi. Qadimda yaratilgan ikki tilli asarlar faqatgina diniy-falsafiy mazmunda yaratilmagan. Turkiy

xalqlarning islomdan burungi eng qadimgi yozma yodgorliklarining saralari sanalmish Kul tigin (732) va Qorabalg'asun (821) yodgorliklarida turkiy matn bilan birga xitoycha versiyaga ham ega. Qadimgi Uyg'ur xoqonlig'i davrida yaratilgan Sevrey (763) yodgorligi esa turkiy hamda sug'dcha matndan iborat. Shu bilan birga, yaratilgan matnlarda tarjimaning qanday bajarilgani: so'zmaso'z qilingan tarjima hamda umumiylar ma'no tarjima qilingan hollarini ko'rishimiz mumkin. Bunday hol tarjima usullarining o'z davridayoq tarmoqlarga ajralganining yorqin dalilidir. Matn yaratishning bunday usuli, aftidan turkiy matnnavislik tarixi uchun begona emas: ushbu an'ana qadimda paydo bo'lgan bo'lib, ilk o'rta asrlarda cho'qqiga chiqqan pallasiga to'g'ri keladi.

Qadimgi turkiy adabiyotda ikki (uch) tilda yaratilgan matnlar ushbu muhitda bunday ko'nikma (ya'ni, matnni ikki (uch) tilda yaratish ko'nikmasi) ancha qadim o'tmishga egaligini ko'rsatmoqda. Ehtimol, uning ildizlari meloddan avvalgi asrlarga (yoki turkiy xalqlarning boshqa til vakillari bilan o'zaro madaniy-iqtisodiy aloqalarining boshlanishiga) borib taqalar. Shubhasiz, bularning negizida savdo-iqtisodiy aloqalarning o'rni yuqori.

Qadimgi turk-moniy va turk-budda muhitida yaratilgan diniy-falsafiy asarlarda kechgan duo jumllalari qadimgi turkiy muhitda shakllangan matnnavislikda matn komponentlari tanlanishining go'zal namunasidan biridir. Ular duo jumllalaridan to qolip so'z ko'rinishiga qadar taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Matn uslubi va semantikasini to'ldiradi. Qadimgi turkiy matnlarda kelgan duo jumllalari tarjimada asliyatdagidek berilishi qadimdan qolgan an'ana hisoblanadi.

Adabiyotlar

- Адабий турлар ва жанрлар (тариҳи ва назариясига оид). 1992. Уч жилдлик. 2- жилд. Лирика. Тошкент: Фан.
- Баранов, Х.К. 1989. Арабско-русский словарь. Москва: Изд. Русский язык.
- Desmond, Durkin-Meisterernst. 2004. *Corpus fontium manichaeorum. Dictionary of Manichaean texts*. Volume III. Texts from Central Asia and China. Part 1. Dictionary of Manichaean middle Persian and Parthian. Brepols.
- Елизаренкова, В. 1989. Ригведа: Мандалы I-IV. Москва: Наука.
- Gabain, von A. 1950. *Alttürkische Grammatik*. Leipzig.
- Gharib, B. 2004. *Sogdian dictionary (Sogdian-Persian-English)*. Tehran. Farhanghan Publications.
- Henning, W.B. 1940. *Fragments of the sogdian Khwastwaneft* // Sogdica. The Royal Asiatic Society. London.
- Хотамов, Н., Саримсоқов, Б. 1983. *Адабиётшунослик терминларининг*

- руска-ўзбекча изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи.
- Исҳоқов, М.М. 2001. *Авесто: Яшт китоби*. (Худо Ахура Мазда ва у яратган маъбудалар шаънига айтилган алқовлар). Ўзбек тилига илмий-изоҳли таржималар. Тошкент: Шарқ.
- Кляшторный, С.Г., В.А. Лившиц. 1971. *Сэврэйский камень*. Советская тюркология. Баку.
- Махмуд, Кошғарий. 2017. *Девону луғати-т-турк* (Туркий сўзлар девони). Нашрга тайёрловчи: Қ.Содиқов. Тошкент: Ғафур Ғулом.
- (Манихейское покаяние в грехах) *Хуастванифт*. 2008. Предисловие, транскрипция уйгурского текста, перевод Л.Ю. Тугушевой. Комментарий А.Л. Хосроева. Факсимиле текста. Санкт-Петербург: Нестор-История.
- Малов, С.Е. 1951. *Памятники древнетюркской письменности*. Тексты и исследования. Москва – Ленинград: Издательство АН СССР.
- Носиров, О., Жамолов, С., Зиёвиддинов, М. 1979. *Ўзбек классик шеърияти жанрлари*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Clark, Larry. 2013. *Uygur Manichaean Texts: Volume II. Liturgical Texts: Texts, Translations, Commentary. Corpus Fontium Manichaeorum: Series Turcica II*. Turnhout: Brepols Publishers.
- Содиқов, Қ. 1997. *Үйғур ёзуви тарихи* (Манбашунослик ва китобат тарихи масалалари). Тошкент.
- Содиқов, Қ. 2004. *Қадимги туркий халқларнинг диний-фалсафий қарашлари*. Тошкент.
- Содиқов, Қ. 2004. *Қорабалғасун ёдгорликларининг туркий матни ва үйғур хоқонлиғи даврида тарихий-монументал матн тузиш анъанаси*. Хитой ва Марказий Осиё халқларнинг маданий, адабий, тил алоқалари: ўтмиш ва ҳозирги замон. Тошкент.
- Содиқов, Қ. 2006. *Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши*. Тошкент.
- Содиқов, Қ. 2009. *Эски туркий битиглар*. Тошкент.
- Содиқов, Қ. 2015. "Хуастуанивт"нинг қадимги туркий версияси". *Жаҳон адабиёти журнали 7*: 143 – 148.
- Tekin, Talat. 1993. *Irk Bitig: The Book of Omens*, Harrassowitz Verlag, Wiesbaden.
- The encyclopaedia of Islam*. 1997. New edition. Volume IV. Leiden.
- Тугушева, Л.Ю. 1972. *Поэтические памятники древних уйгуров*. Тюрокологический сборник. Москва: Наука.
- Язбердиев, А. 1993. *Книжное дело в Средней Азии и Туркменистане* (с V в. до. н.э. по 1917 год). Автореферат на соискание ученой степени доктора исторических наук. Ашгабат.
- Zieme, Peter. 1986. *Mängi bulzun! – Ein Weiterer Neujahrssegen*. Dr. Emel Esin'e Armağan'dan ayri basim. Ankara Üniversitesi Basimevi. Ankara.
- Özbay, Betül. 2014. *HUASTUANİFT: Manihaist Uygurların Tövbe Duası*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
- Шомуҳамедов, Ш. 2004. *Форсий шеъриятнинг асосий шакллари*. Тошкент.

R. Alimuhamedov

(Tashkent, Uzbekistan)

rixsitilla@gmail.com

The Issue Of Bilingualism In Texts In The Historical Turkic Works

Abstract

Ancient Turkic literature has a long history. Its traditions and skills in making text have also come from ancient times. There is a tradition of making parallel (bilingual) texts in the history of making text in Old Turkic. We can find the first such works in Turkic literature before epoch of Islam. At this time, the trade, economic, social and cultural relations of the Turkic nations with neighboring nations and states intensified. As a result, texts that are created in the literature began to be produced in two (or three) languages. Making bilingual texts is connected with translation work. This article is analyzing of bilingual texts from Turkic-Manichaeian literature. In article gives emergence and structure of these bilingual texts.

Key words: *Old Turkic history of making text, parallel text (bilingual), Old Turkic literature, Turkic-Manichaeian literature, literary relationships.*

About the author: *Rixsitilla Alimuhamedov – Doctor of Sciences in Philology, Tashkent State University Of Oriental Studies.*

Recommended citation: Alimuhamedov, Rixsitilla. 2020. "Qadimgi turkiy asarlarda matn ikki tilliligi masalasi". *Oltin bitiglar* 1: 64—79.

References

- Adabiy turlar va janrlar* (tarixi va nazariyasiga oid). 1992. Uch jildlik. 2- jild. Lirika. Toshkent: Fan.
- Baranov, X.K. 1989. *Arabsko-russkiy slovar*. Moskva: Izd. Russkiy yazik.
- Desmond, Durkin-Meisterernst. 2004. *Corpus fontium manichaeorum. Dictionary of Manichaean texts*. Volume III. Texts from Central Asia and China. Part 1. Dictionary of Manichaean middle Persian and Parthian. Brepols.
- Yelizarenkova, V. 1989. *Rigveda*: Mandali I-IV. Moskva: Nauka.

- Gabain, von A. 1950. *Alttürkische Grammatik*. Leipzig.
- Gharib, B. 2004. *Sogdian dictionary (Sogdian-Persian-English)*. Tehran. Farhangan Publications.
- Henning, W.B. 1940. *Fragments of the sogdian Khwastwaneft*. Sogdica. The Royal Asiatic Society. London.
- Hotamov, N., Sarimsoqov, B. 1983. *Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati*. Toshkent: O'qituvchi.
- Is'hoqov, M.M. 2001. *Avesto: Yasht kitobi*. (Xudo Axura Mazda va u yaratgan ma'budalar sha'niga aytilgan alqovlar). O'zbek tiliga ilmiy-izohli tarjimalar. Toshkent: Sharq.
- Klyashtorniy, S.G., V.A. Livshis. 1971. *Sevreyiskiy kamen*. Sovetskaya tyurkologiya. Baku.
- Mahmud, Koshg'ariy. 2017. *Devonu lug'ati-t-turk* (Turkiy so'zlar devoni). Nashrga tayyorlovchi: Q.Sodiqov. Toshkent: G'afur G'ulom.
- (Manixeskoe pokayanie v grexax) Xuastvanift. 2008. Predislovie, transkripsiya uygurskogo teksta, perevod L.Y. Tugushevoy. Kommentariy A.L. Xosroeva. Faksimile teksta. Sankt-Peterburg: Nestor-Istoriya.
- Malov, S.Y. 1951. *Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti*. Teksti i issledovaniya. Moskva – Leningrad: Izdatelstvo AN SSSR.
- Nosirov, O., Jamolov, S., Ziyoviddinov, M. 1979. *O'zbek klassik she'riyati janrlari*. Toshkent: O'qituvchi.
- Clark, Larry. 2013. *Uygur Manichaean Texts: Volume II. Liturgical Texts: Texts, Translations, Commentary. Corpus Fontium Manichaeorum: Series Turcica II*. Turnhout: Brepols Publishers.
- Sodiqov, Q. 1997. *Uyg'ur yozuvi tarixi* (Manbashunoslik va kitobat tarixi masalalari). Toshkent.
- Sodiqov, Q. 2004. *Qadimgi turkiy xalqlarning diniy-falsafiy qarashlari*. Toshkent.
- Sodiqov, Q. 2004. *Qorabalg'asun yodgorliklarining turkiy matni va uyg'ur xoqonlig'i davrida tarixiy-monumental matn tuzish an'anasi*. Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy, adabiy, til aloqalari: o'tmish va hozirgi zamon. Toshkent.
- Sodiqov, Q. 2006. *Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi*. Toshkent.
- Sodiqov, Q. 2009. *Eski turkiy bitiglar*. Toshkent.
- Sodiqov, Q. 2015. "Xuastuanivt"ning qadimgi turkiy versiyasi". *Jahon adabiyoti jurnali* 7: 143 – 148.
- Tekin, Talat. 1993. *Irk Bitig: The Book of Omens*, Harrassowitz Verlag, Wiesbaden.
- The encyclopaedia of Islam*. 1997. New edition. Volume IV. Leiden.
- Tugusheva, L.Yu. 1972. *Poeticheskie pamyatniki drevnix uygurov*. Tyurkologicheskiy sbornik. Moskva: Nauka.
- Yazberdiev, A. 1993. *Knijnoe delo v Sredney Azii i Turkmenistane* (s V v. do n.e. po 1917 god). Avtoreferat na soiskanie uchenoy stepeni doktora istoricheskix nauk. Ashgabat.
- Zieme, Peter. 1986. *Mängi bulzun! – Ein Weiterer Neujahrssegen*. Dr. Emel Esin'e Armağan'dan ayri basim. Ankara Üniversitesi Basimevi. Ankara.
- Özbay, Betül. 2014. *HUASTUANİFT: Manihaist Uygurların Tövbe Duası*. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
- Shomuhamedov, Sh. 2004. *Forsiy she'riyatning asosiy shakllari*. Toshkent.

O. Mahkamova

(*Toshkent, O'zbekiston*)
omahkamova@mail.ru

XIX asr oxiri XX asr boshlarida leksikografiya rivoji va unda “Lug'oti salos”ning o'rni

Abstarkt

Lug'atshunoslik tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biridir. Ushbu maqola XIX asar oxiri — XX asr boshlarida Salohiddinxo'ja Toshkandiy tomonidan yaratilgan leksikografiyaga doir asar “Lug'oti salos” haqida bo'lib, u arabcha, forscha va turkiycha lug'at. Maqolada, asosan, quyidagi masalalar yoritilgan: XIX asr lug'atshunosligi haqida ma'lumot, “Lug'oti salos” haqida umumiy ma'lumot, Salohiddinxo'ja Toshkandiy biografiyasi haqida, asarning adabiy qimmatini, ahamiyatini yoritish, asarning muqaddima qismi tahlili, asar hoshiyasi tadqiqi, asarning tarkibiy tuzilishi bilan tanishtirish, asarning umumiy tahlili. Shunindek, maqolada “Lug'oti salos”ning lingvistik xususiyatlari, tilshunoslikdagi o'rni, yozilish uslubi va ilmiy-amaliy ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: “Lug'oti salos”, leksikografiya, turkiy til, she'riy usul, Salohiddin Toshkandiy, Toshkent, “Temurnoma”.

Muallif haqida: Odina Mahkamova – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti

Tavsiya etiladigan havola: Mahkamova, Odina. 2020. “XIX asr oxiri XX asr boshlarida leksikografiya rivoji va unda “Lug'oti salos”ning tutgan o'rni”. *Oltin bitiglar* 1: 80—107.

Kirish

Tilning lug'at boyligi zamon va makon sathida doimiy ravishda rivojlanib, boyib boradi. Hayot, turmush tarzi, taraqqiyot va kashfiyotlar yangi-yangi so'zlar, tushunchalarning paydo bo'lishiga asos bo'ladi, ba'zi so'zlar esa eskirib iste'moldan chiqadi. Ayni paytda bu jarayonlar bilan birgalikda lug'atshunoslik sohasida ham rivojlanish yoki aksincha holat yuz berib boradi.

Lug'atshunoslik lug'at tuzish ishi sifatida turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida tushunarsiz (eskirgan, dialektal, maxsus yoki chet tilga mansub) so'zning qanday ma'no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo'ldi. Dastlabki tuzilgan lug'atlar umumlashgan, universal xususiyatga ega edi. Lug'atlarning turli shakllari, ko'rinishlari esa keyingi davrlarda yuzaga kelgan hodisadir.

O'zbek leksikografiyasi tarixi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan boshlangan deb aytish mumkin. Ushbu lug'at faqat so'zlar va ularning ma'nolarini tavsiflab qolmay, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlari, geografik joylashuvi kabi keng ma'lumotlar manbayi hamdir. Shu bilan birga "Devonu lug'otit turk" dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) lug'atlardandir. Mahmud Zamaxshariy ham o'zining "Asos ul-balogs'a", "Muqaddimat ul-adab" asarlari bilan amaliy ham nazariy leksikografiyaning rivojiga ulkan hissaqo'shdi. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodigabo'lgankatta qiziqish XV asrdan keyingi davrda bir qancha lug'atlarning yaratilishiga sabab bo'ldi: bunga XVI asrda Turkiyada yaratilgan "Abushqa" izohli lug'ati, Tole Imon Hiraviyning "Badoye ul-lug'at", Muhammad Rizo Xoksorning "Muntaxab ul-lug'ot", Mirzo Mehdixonning "Sangloh", Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma", Is'hoqxon Ibratning "Lug'ati sitta as-sina" ("Olti tilli lug'at") kabi lug'atlarini ko'rsatish mumkin. Mirzo Mehdixonning "Maboni al-lug'at" asarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan Zikrillo Umarov asar xususida shunday yozadi: "XVIII asrda fors turkologi Mirzo Mehdixonning "Maboni al-lug'at" grammatik ocherki Navoiy asarlari asosida yozilgan birinchi eski o'zbek tili grammatikasidir. Uning tadqiqi o'zbek tili tarixiy grammatikasini tuzishda, eski o'zbek tilining fonetik, grammatik xususiyatlarini va turkiy tillar tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega [Mirzo Mehdixon 2008, 2].

XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida turli xil sabab va ehtiyojlar, davr taqozosi bilan Turkistonda ikki tilli lug'atshunoslik rivoj topdi, o'nlab ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha lug'atlar, so'zlashgichlar tuzilib nashr etildi. Ushbu davrda yaratilgan

lug'atlarga Sharq qo'lyozmalar markazida saqlanayotgan toshbosma asarlar: V.M.Nalivkin va M.Nalivkinalarning -1912—1884yillar mobaynida bir necha marta nashr etilgan "Русско-сартовский и сартовско-русский словарь" ("Ruscha-sartcha va sartcha-ruscha lug'at"), Ashurali Zohiriy tomonidan 1927 yillarda tuzilib, nashr ettirilgan 2 jiddli "Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at" keyingi davrlarda O'zbekistonda yaratilgan ikki tilli lug'atlar uchun asos bo'ldi. Masalan, -1907yilda Shayx Utor Obazgildin noshirligi ostida yaratilgan, 42 sahifadan iborat ruscha-tatarcha, -1914yil Mirzo Abdulloh bin Abdulg'offor Tabiriziy muallifligi ostida chiqqan forscha-ruscha, Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoiy va turki usmoniy" ("Chig'atoycha-turkcha lug'at") [1843, شیخ سلیمان بخاری 300], Ali Sayyidining Istanbulda -1909yilda chop etilgan "لغات اجنبیه" "لغات اجنبیه" [عَلَى سَيِّدِي 1909], Ali Sayyidining Istanbulda -1909yilda chop etilgan "Lug'oti ajnabiy" ("Chet tili lug'ati") [210, 1909], Abdulloh Shenosiyning -1916yilda chop etilgan tatar tilida yaratilgan "Hikmati tabiiyya" [حکمت طبیعیه] [عبد الله شناسی 1917, 163], N. Rovijning -1928 yil "Mustafo Kamol posho esdaliklari" (موستافا کمۇل پوشۇرۇشلىرى) nomli tatarcha, K. Yodoxinning -1927yilda chop etilgan "Qisqacha o'zbekcha ruscha lug'at" [1927, قىشكەچە روسىيەن بىلەن بىلەن لغىتى] (لغات چە 816], Mulla Olimxon al-Borudiyning "Lug'oti salos" [ملا عالمخان البارودى 48, 1902] kabi asarlarini misol keltirishimiz mumkin.

Yana shunday lug'atlardan biri Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoiy va turki usmoniy" bo'lib, u chig'atoiy tilining leksik boyligini ko'rsatish maqsadida tuzilgan. Kitob ikki jild qilib tayyorlanadi va unga "Lug'oti chig'atoyi va turki usmoniy" deb nom qo'yadi. Lug'atning birinchi qismi Istanbulda 1881-yilda nashr ettiriladi. Bu kitob lug'atshunoslikda qabul qilingan sistema bo'yicha yozilgan bo'lib, u arab alifbosi tartibi bo'yicha berilgan. So'zlar harakatlarsiz yozilgan. Ikkinci jildi haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Olimning yozishiga qaraganda, asarning ikkinchi jildida nafaqat lug'at keltirilgan, balki turli o'zbek va boshqa urug' qabilalari haqida qimmatli ma'lumotlar ham berilgan:

*Badarqa qaysini-yu, kim oq uylı,
Qatg'on nedur, kimdur lo'li,
Bir-bir oltincha tuzildi hammasi,
Jildi soniyda, yozildi hammasi,
To'qson ikki , urug'ni yod etdim,
Tiyra-yu jinsini te'dod etdim [شیخ سلیمان بخاری 300, 1843].*

"Lug'oti chig'atoyi va turki usmoniy" 300 sahifadan

tashkil topgan. Asar uch muqaddimadan iborat bo'lib, birinchi muqaddimada muallif lug'atning yozilish sababi, tuzlishi, manbalari haqida ma'lumot beradi. Ikkinci muqaddima bo'lgan "Manzumayi chig'atoyi" 186 misrali avtobiografik she'riy asarni o'z ichiga olgan. Unda muallif qilgan ishlari haqida ma'lumotlar berib o'tgan. Lug'atning grammatik jihatlari, chig'atoy tilining xususiyatlari, uning boshqa turkiy tillarga o'xshash tomonlari va farqlarini "Qoidalar" orqali izohlab o'tgan. Lug'at 8 000 ming so'zdan tashkil topgan. Lug'atda so'zlar klassik leksikografiya qoidalariga binoan yozilgan. Unda, dastlab, eski o'zbek tilidagi so'z berilgan bo'lib, so'ngra uning ma'nosi usmonli turk tilida izohlangan. Izohdan so'ng zarur o'rnlarda badiiy asarlardan misollar keltirilgan.

Ali Sayyidiyning "Lug'oti ajnabiy" asari usmoniycha izohli lug'at bo'lib, unda avval usmoniycha so'z, so'ngra o'sha so'zning qaysi tildan olingani va so'zning usmoniy tilidagi izohi berilgan. Lug'at alifbo tartibida berilgan. Lug'atda muqaddima va qisqartmalarning berilish usuli tushuntirilgan qismi ham mavjud. Shundan so'ng lug'atning asosiy qismi boshlanadi. Unda keltirilgan so'zlar, asosan, fransuz, italyan, ingliz, yunon tillariga tegishli. Masalan: "*Telefon – yunoncha "telephone", ma'nosi: uzoqdan eshittiriladigan ma'rifat*" kabi ketma-ketlikda berilgan.

Isobek Ashurbekov nashriyoti tomonidan chop etilgan "قاموس روسي" (Qomusi rusiy) asari ham lug'at hisoblandi. U -1912 yil Ufa shahrida Doktor Qorabek Qorabekov muharrirligi ostida nashrga tayyorlangan. U ikki tilli turkcha-o'zbekcha lug'at bo'lib, 230 sahifadan iborat. Ushbu lug'at ham alifbo tartibida tuzilgan. U dan boshlanib, څ gacha bo'lgan so'zlarni o'z ichiga olgan. "Qomusi rusiy" qisqacha asar haqidagi ma'lumot va lug'at so'zlarining ma'nolaridan iborat.

Kuzmich Yudahin tomonidan ham 1927-yilda "Qisqacha o'zbekcha-ruscha" lug'at tayyorlangan. Toshkentda chop etilgan ushbu asar 816 sahifadan iborat bo'lib, alifbo tartibida yaratilgan. Kitob betlariga ham oddiy, hozirda biz foydalananayotgan arab raqamlari qo'yilgan.

Mulla Olimxon al-Borudiyning -1902yilda chop etilgan leksikografiyaga oid asari esa لغات ثلاث ("Lug'oti salos") deb nomlanadi. Kitob mazmuniy tuzilishga ega bo'lib, arabcha, forscha va tatarcha lug'atdir.

Asosiy qism

Biz tadqiq etmoqchi bo'lgan lug'at Salohiddin Toshkandiyga

tegishli bo'lib, bu asar hozirgacha o'zbek leksikografiyasiga ma'lum emas edi. Asar tahliliga kirishishdan oldin muallif borasida biroz to'xtalish maqsadga muvofiq. Chunki Salohiddin Toshkandiy biografiyasi va ijodiga oid ma'lumotlar kam saqlanib qolgan, odatda, uning ijodi haqida so'z ketganda faqat "Temurnoma" asari tilga olinadi.

Taxallusi Toshkandiy bo'lgan hassos shoir, mohir tilshunos Salohiddinxo'ja XIX asar ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida Toshkentda yashab ijod qilgan. "Hayotiga oid ma'lumotlar deyarli saqlanmagan. "Temurnoma" (1908) badiiy asarigina yetib kelgan. Salohiddin Toshkandiy "Temurnoma"ni yaratishda ko'pgina tarixiy, badiiy va ilmiy asarlardan foydalangan. Asar an'anaviy hamddan boshlangan. So'ng Movarounnahrda hukm surgan sulolalar tilga olingan. Asosiy qism 47 dostondan iborat. Amir Temurning bolaligidan tortib butun hayoti, Markaziy Osiyonidagi mo'g'ullar zulmidan ozod qilishi, Dashti qipchoq, rus yerlari, Ural sari qilingan yurishlar, Eron, Turkiya, Shom va Iroq, Hindistonga qo'shin tortishlar, Boyazid Yildirim bilan bo'lgan janglar, ular bilan bog'liq sarguzashtlar qiziqarli hikoya qilingan... Kamol Xo'jandi, Said Ahmad, Ismat Buxoriy kabi shoirlar hamda o'z she'rлaridan 1 030 misra she'r berilgan. Asar jahongir shoh hayoti misolida kishilarni mehr-oqibatli bo'lishga, o'tmishda yuz bergen qirg'inlardan saqlanishga, tinchlikning qadriga yetishga da'vat etadi" [Toshkent ensiklopediyasi 2009, 472].

Salohiddinxo'janing hozirgacha faqat "Temurnoma" asari ma'lum edi. Endi esa uning ijodiga leksikografiyaga oid "Lug'oti salos" asarini ham qo'shib qo'yish mumkin. XX asar boshlarida yaratilgan Salohiddinxo'janing لغات ثلاث ("Lug'oti salos") lug'ati lug'atshunoslik tarixida alohida ahamiyatga ega. Xususan, lug'atda muallif biografiyasi oid ayrim qimmatli ma'lumotlar ham uchraydi. Xususan, "Lug'oti salos" mundarijasidan so'ng muallif o'zi haqida ushbu ruboiyni keltiradi:

*Shahri Toshkand qariyb Ko'kaldosh,
Turg'uchidir bu Alovuddin.
Munga Sohib erur Ziyovuddin,
Nazmin so'zingiz Salohiddin*

[صلاح الدين خوجه بن علاء الدين ٩٠٩١].

Bundan ko'rinish turibdiki, adib Toshkentning Ko'kaldoshida tug'ilgan. Alovuddin uning otasi, Ziyovuddin esa do'sti.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi "Sharq qo'lyozmalar markazi"da ushbu lug'atning bir qancha nusxalari mavjud. Asar toshbosma bo'lib, u markazda 702, 4006, 9532, 9531, 19334, 15729, 18248, 20719 inventar raqamlar bilan saqlanadi (biz o'z tadqiqot ishimizda 702 inventar raqam ostidagi nusxdadan foydalandik).

Lug'atning birinchi sahifasida muallifning to'liq ism-sharifi, ushbu mavsuf (to'plam) kitob o'z ichiga olgan asarlar nomi, kitobning qaysi matbaada chop etilganligi haqida ma'lumotlar qayd etilgan. Muallifning to'liq ismi Salohiddinxo'ja bin Alouddinxo'ja bin Norxo'ja eshondir. Uning ushbu لغات ثلاث "Lug'oti salos" kitobi -1909 yil Toshkentda "G'ulomiya" matbaasida chop etilgan bo'lib, u uch tilli, ya'ni arab, fors, turkiy tillardagi so'zlarning ma'nolari tarjimasi berilgan lug'atdir. Ushbu lug'at chiroyli xat bilan qizil va qora siyohda yozilgan. So'zlar esa she'riy tarzda ikki ustunga joylashtirilgan. Asar chetlari ikki qizil chiziq bilan chegaralangan. Ilk sahifa esa ajoyib naqsh ila bezatilgan. Asarda, asosan, ikki xil rangdagi siyoh: qora va qizil ishlatilgan. Asardagi asosiy matn, hoshiyada so'zlarning izohi, she'riy baytlar, kitob sahifalari, ba'zi so'zlarning boshqa variantlari qora siyoh bilan ko'rsatilgan bo'lsa, bob, fasl nomlari va so'zning qaysi tilga oidligini bildirish uchun ular ustiga qo'yilgan ishoralar, bir-ikki misrani boshqa bir varianti, ba'zi bir asarning to'g'irlangan qismlari, qayta yozilgan so'zlar, asosiy matnga qo'shimcha tarzda hoshiyada aks etgan so'zlar qizil siyoh bilan yozilgan. Xati nasta'liq, juda tushunarli va chiroyli.

Ushbu asar XIX asr oxiri — XX asr boshlarida yaratilgan lug'atlar orasida alohida ahamiyatga ega. Avvalo, u o'sha davr maktab o'qituvchilari, o'quvchilari iltimosiga ko'ra yozilgan. Bu davrda yaratilgan lug'atlarning aksari mактабнинг boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun emas, balki katta yoshdagi maktab va madrasa o'quvchilari uchun yaratilgan. Muallif o'z asarini yosh maktab o'quvchilari va madrasada ta'lim oluvchilarga mos tarzda yaratgan. "Lug'oti salos" asari mazmuniy guruhlarga bo'lingan bo'lib, u ayni maktab o'quvchilari bilishi zarur bo'lgan so'zlar majmuasidir. Salohiddinxo'janing ushbu asari o'quvchilar so'zlarni oson esda saqlab qolishlari uchun she'riy usulda yozilgan. Bu haqda muallif quyidagilarni yozadi: "Ushbu "Lug'oti Salos" nazm bilan bo'lg'onin bir necha mактабда turguchi muta'alimlarimiz ko'rib, eshitib yana ba'zi toliblar iltimos qilib ayrimlar bu lug'at ba'zi g'azaliyot kitoblardan savod o'qiguvchi bolalarga yaxshi bo'libdir" صلاح الدين خوجه بن علاء الدين [4,1909].

“Lug’oti salos” adabiy manba sifatida

Qadim qo’lyozma, toshbosma asarlar qatorida filologik, ilmiy, tarixiy, adabiy-tarixiy asarlar ham mavjud. “Adabiy manba – biror adabiy janrga mansub xrestomativ harakterdagi badiiy asar yoki adabiyotshunoslikning sohalariga daxldor mavzularda yozilgan ilmiy asar” [Хасаний 2012, 119]. Biz tadqiq etayotgan “Lug’oti salos” asari leksikografik asar sifatida filologiyaga tegishli. Lekin ushbu lug’at adabiy-badiiy manba sifatida ham ahamiyatli. Uning adabiy manba ekanligini asarning muqaddima qismida muallif tomonidan keltirilgan quyidagi baytdan ham bilib olish mumkin:

بو نظمين وزنيدر بيل هر قيو ذات
فعيلاتن فعيلاتن فعيلايات

Bu nazmin vaznidur bil har qayu zot,

Fa’ilotun, fa’ilotun, fa’ilot

[صلاح الدين خوجه بن علاء الدين 1909، 5].

Asarning maktab o’quvchilari iltimosiga ko’ra tuzilishi uning badiiy, ya’ni she’riy shaklda tuzilishiga asosiy sabab bo’lgan. Lug’atning she’riy tarzda yozilgani, bundan tashqari, asarda ko’plab baytlarning mavjudligi uning adabiy manba sifatidagi qimmati va ahmiyatini belgilaydi. «Lug’oti salos» 51 sahifani o’z ichiga oladi, jami 492 bayt yoki 984 misrani tashkil etadi. Mazkur lug’at kabi badiiy xarakterga ega, ya’ni saj’ usulida yozilgan lug’atlardan biri Tole al-Imoniy al-Hiraviy tomonidan Alisher Navoiy asarlari uchun yozilgan “Badoye al-Lug’at” asaridir. Lekin bu lug’atning barcha qismi qofiyali tarzda yozilgan emas, uning faqatgina kirish qismi qofiyali bitilgan.

Biz tahlil etayotgan Toshkandiyning “Lug’oti salos” asari to’liq saj usulida yaratilgan. Bundan kelib chiqadiki, muallif arab, fors, turkiy tillarni yaxshi bilgan, adab ilmlarini chuqur egallagan. Asarning muhim xususiyatlaridan biri ham shunda. Asarning muqaddima qismidan ma’lum bo’ldiki, lug’atdagi so’zlar o’quvchi ongida tez va oson qolishi, saqlanishi uchun saj usulida yozilgan. Masalan:

دخي اعلي بلند يوقاري او سط
ميان اورته ادنا توبن بست

Daxi a’la bo’land yuqori avsat,

Miyon o’rta adno tuban past

[صلاح الدين خوجه بن علاء الدين 1909, 9].

Yuqoridagi baytni lug'at so'zligi yoki baytlarga taqsimlangan she'riy lug'at deb atash mumkin. Har ikki jihat muayyan asosga ega. Chunki *a'la*, *baland*, *yuqori* so'zlari, *avsat*, *miyon*, *o'rta* so'zlari o'zaro sinonim, ya'ni bitta so'zning forsiy, turkiy va arabiylardagi nomlaridir. Bu holat asarning lug'at ekanligini dalillasa, baytlardagi *avsat* va *past* hamda so'zlarining o'zaro qofiya hosil qilishi, ohang va vazn mutanosibligi kabi jihatlar fikr ifodasiga she'riy tus berib turibdi.

Bu borada quyidagi misol ham nihoyatda xarakterli:

دخي ضلع ايستحوان پهلو قابرغه
ديكيل بطن اول شكم قرصاق ده برغه

"*Daxi dal'u ostohan pahlu qobirg'a,*
Degil batn ul shekam qursoq de barig'a"
[صلاح الدين خوجه بن علاء الدين 1909, 4].

Ushbu parchada ham *dal'u*, *ostohan*, *qobirg'a* so'zlari va *batn*, *shekam*, *qursoq* so'zlari bir so'zning turli tillardagi ma'nolari bo'lib, baytdagi *qobirg'a* va *barig'a* so'zlari bir-biri bilan qofiyadosh bo'lib kelgan.

Lug'atning bu tarzdagi she'riy ifodaga ega ekani Salohiddinxo'janing nafaqat yaxshi tilshunos, leksikograf, ayni paytda, iste'dodli shoir bo'lganidan ham dalolat beradi. She'riy ifoda lug'at so'zligining xotirada oson qolishi, shuning barobarida, qiziqtirish, zeriktirmaslik kabi vazifalarni ham bajargan.

Masalan, asarning sonlarga atalgan bobida muallif shunday yozadi:

اددلارنى سناسىم دىمە چكى
دى واحد يك ده براثنان ايكى

"*Adadlarni sanasam dema chakki,*
De vahid yekda bir isnan do'ikki"
[صلاح الدين خوجه بن علاء الدين 1909, 48].

Ushbu baytning birinchi misrasi turkiy tilda yozilgan bo'lib, unda sonlar haqida gap ketayotganiga ishora qilinmoqda. Ikkinchi misrada esa lug'at so'zligi beriladi. Ya'ni adib, avvalo, o'quvchiga nima haqida gap borayotganini eslatib o'tadi, shundan so'ng leksemalarni

muayyan tartibda bayon qilindi.

لعل آرزو اميد شايدكه اي جان"
دى ليت آرزو كاشكى ارمان
كأن كوياب بولور لكن ليكن
كذا اوی همچنین شونداغ بيليب چين»

*"Laalla orzu umid shoyadki ey, jon,
De layta orzu koshki armon.
Kaanna go'yo bo'lur lakinna lekin,
Kaza de hamchenin shundog' bilib chin"*

[صلاح الدين خوجه بن علا الدين 1909]

Keltirilgan ushbu parcha "ضميرلار", ya'ni "Olmoshlar" bobidan olingan bo'lib, *laalla* arab tilida egaga ta'sir qiluvchi yuklama hisoblanib "shoyadki, balki, ehtimol" ma'nolarini bildiradi. Fors tilidagi *umid* hamda turkiy tildagi *shoyadki* (yoki shoyad) so'zлari esa uning muqobillaridir. *Layta* so'zining forsiy sinonimi *koshki*, turkiy tilga esa u *armon* deya tarjima qilinadi. Ikki baytda ham lug'at tarkibiga kiritilmagan holda forsiy-turkiy so'z hisoblangan orzu so'zi qo'llangan. Arab tilidagi *kaanna* yuklamasiga forsiy-turkiy so'z *go'yo*, *lakinna* yuklamasiga esa *lekin* so'zi sinonim sifatida keltirilgan. Baytning oxirgi misrasidagi *kaza*, *hamchenin* va *shundog'* so'zлari ham sinonimdir. Birinchi baytda *jon* va *armon* so'zлari, ikkinchi baytda *lekin* va *chin* so'zлari o'zaro qofiyadosh bo'lib kelmoqda.

Muallif lug'at so'zligini shunchaki sanab yoki ayrim so'zlarni qofiya sifatida keltirish bilan cheklanmaydi. Garchi asosiy maqsad so'z yodlatish, lug'at boyligini oshirishga qaratilgan bo'lsa-da, Saloxiddinxo'ja asarning ayrim o'rinalarda ikkilamchi ma'nolarni ham yuzaga keltira olgan. Jumladan, quyidagi bayt shu jihatdan e'tiborga molik:

"شتا قيش ده زمستان تحسيل ايتکيل
چو صيف اول ياز تابستانغه يتكيل"

*"Shita' qish de zemeston tahsil etgil,
Chu soyf ul yoz tobestong'a yetgil"*

[صلاح الدين خوجه بن علا الدين 1909]

Bunda *shita'*, *qish*, *zemeston* va *soyf*, *yoz*, *tobeston* so'zлари o'zaro bir so'zning uch tildagi ma'nodoshlari. Misralardagi turkiy *etgil* va *yetgil* so'zлари tashqi qofiyani, forsiy *tobeston* va *zemeston*

XIX asr oxiri XX asr boshlarida leksikografiya rivoji va unda "Lug'oti salos"ning o'rni so'zlari ichki qofiya vazifasini bajarmoqda. Ayni paytda, muallif o'quvchini ilm olishga ham targ'ib etmoqda.

Lug'at boshidan oxiriga qadar shu tarzda yozilgan.

Asar tuzilishining eng muhim jihatlaridan biri bu so'zlarning ma'nolarini tasdiqlovchi misollar keltirishdir. She'riy bayon asarni adabiy manba sifatida tahlil qilish uchun birinchi asos bo'lsa, uning tarkibida so'zlarning ma'nolarini bildirivchi ma'lum baytlarning berilishi ikkinchi asosdir.

«يو علم شهرغه تحسيل اتكون
احيرت تاكه بوستانىغە يتكونك»

*"Bu olam ilm shahrig'a tahsil etgung,
Oxirat toki bustonig'a yetgung"*
صلاح الدين خوجه بن علا الدين [30, 1909].

Ushbu baytda olim ilm olishga da'vat qilmoqda. Baytdagi *etgung* va *yetgung* so'zlari qofiya bo'lib kelmoqda. Inson ilm bilan farog'atga, rohatga erishadi. Ilm insonni yuksaltiradi, obro'sini oshiradi, boshqa insonlar oldida hurmat qozonish darajasiga yetkazadi. Shu bilan birga yuksak darajadagi ilm Olloh taolo huzurida ham insonning martabasi ortishiga sabab bo'luvchi omildir. Ze'ro, "Ilm olish har bir muslim va muslimaga farzdir", deydi payg'ambarimiz Muhammad solloholohu alayhi vasallam. Ilm egallah komillikning jihatlaridan biri. Iste'dodli shoir Salohiddin Toshkandiyining quyidagi bayti ham ilm egallah haqidadir:

«علم حماميغە كير غيل ايرته راق
جهل كيرىدىن بولورسۇ مندە آق»

*"Ilm hammomiga kirgil ertaroq,
Jahl kiridin bo'lursan bunda oq"*
صلاح الدين خوجه بن علا الدين [34, 1909].

Ushbu baytda *ertaroq* va *oq* so'zlari o'zaro qofiyadoshdir. Bu ham ilmi toliblarni bilimli bo'lishga chorlovchi bayt. Bu baytda Salohiddinxo'ja istiora, tazod san'atlaridan foydalangan. Ya'ni ilm hammomi, jahl kiri so'zlari ko'chma ma'no va metaforani ifodalab kelmoqda. Ma'lumki, hammom insonni poklaydigan, uni har-xil junublardan tozalaydigan maskan. Ilm esa insonni ruhiy poklikka va kamolotga yetaklovchi vositadir. Inson qanchalik erta ilm egallahni

boshlasa, go'yoki inson hammomdan pok holda chiqqanidek shuncha erta ruhiy poklikka erishadi va kaltabinlik, nodonlik kabi qusurlardan forig' bo'ladi.

نظم سلکیغه کھرلар تیردوک
طفل ایلیغەر کیمە سالب بیردوک

*Nazm silkig'a kaharlar terduk,
Tifl elig'a kima solib berduk*
[صلاح الدين خوجه بن علاء الدين 1909].

Ushbu baytda *terduk* va *berduk* so'zlari o'zaro qofiyani yuzaga keltirgan. Bunda muallif o'z asarini bir vazn bilan she'rga solib, bolalarga hadya qilganini bildirmoqda. Mohir tilshunos, iste'dodli shoir Salohiddinxo'ja o'z baytlarida shir-u shakar san'atidan ham ustalik bilan foydalangan. Bilamizki, shir-u shakar, ya'ni mulamma san'ati bu bir baytda ikki tildagi so'zlarni qo'llab she'r yozishdir. Baytdagi *tifl*, *nazm*, *silk* so'zlari arab tiliga mansub bo'lsa, *terduk*, *elig'a*, *kima*, *solib berduk* so'zlari turkiy tilga mansub. Baytlarda mulamma san'atining bu tarzda qo'llanishi uch tildagi so'zlarni o'rgatish masalasi bilan ham mutanosiblik hosil qilgan.

Asar hoshiyasidagi baytlar, albatta, lug'atda berilgan so'zlarning ma'nosini ochib berishga xizmat qilgan, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, o'sha so'zlarning izohidir.

Asarning yana bir muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda uch tilda bir xil o'zakdan hosil bo'lib, yangi so'z yasalganda ham uch tilda bir xil ma'no beruvchi so'zlar ham keltirilgan. Masalan:

رئیس سردار باشلق رأس سر باش
دیكيل حاجب بيلوب ابرو كيلوب قاش

*"Rais sardor boshliq ra's sar bosh,
Degil hojib bilub abru kelub qosh"*
[صلاح الدين خوجه بن علاء الدين 1909].

Bunda ko'rinish turibdiki *rais*, *boshliq*, *sardor* so'zlarining o'zagi har uch tilda ham bir hil "bosh" ma'nosiga ega bo'lgan so'zdir. Inson tana a'zosini anglatuvchi bosh so'zi arab tilida *ra's*, forsiyda *sar* deb ataladi. So'zlarni bu tarzda o'zakdosh qilib berilishi, o'quvchini yanada qiziqtirib, so'zning lug'aviy ma'nosini oson tushunish hamda yaxshi eslab qolishga yordam beradi. Arab tilida *hojib*, fors

tilida *abru* so'zlari turkiy tilda *qosh* so'ziga to'g'ri keladi. Parchada keltirilgan *bosh* va *qosh* turkiy so'zlari, bir payta, qofiya vazifasini ham bajarib kelgan.

Adibning lug'atini o'rganib chiqar ekanmiz, asar ibtidosidan oxiriga qadar *shahd-u shir-u shakar*, *mullamma* badiiy san'atiga tayanganiga guvoh bo'lamiz. Chunki lug'at uch tilli va har bir misraning o'zida uch: arab, fors, turkiy tillardagi so'zlar mavjud. Bu esa *mullamma* san'atining asosiy sharti bo'lish bilan birga ayni san'atlarni yuzaga keltirishga qulay imkoniyat ham edi. Ma'lum bir tartibda ikki til, uch til ishtirokida yozilgan she'r *shir-u shakar* (fors. "sut-u shakar") deyiladi. Agar bunday she'r uch tilda bitilsa, "*shahd-u shir-u shakar*" deb ataladi.

Lug'at maktab o'quvchilari uchun yozilganligi uchun ba'zan adib lug'at so'zlari orasida "ey" deya o'quvchilarga xitob qiladi va estetik ta'sirni oshirish yoki lug'atdagi qofiyadoshlikni saqlash uchun ularning ismlarni ham kiritadi.

Masalan:

بىشىسىنىڭ كىچىسى كىچىسىنىڭ
جىسىد جىسىد بىن اندام كودە

*"Bashar inson kishi kas ey, Nigora,
Jasad jism badan ondom gavda"*
صلاح الدين خوجه بن علاء الدين [4, 1909].

Mavzusiga ko'ra inson a'zolariga oid so'zlarga bag'ishlangan ushbu faslda *kishi* manosini anglatuvchi arab tilidagi *inson* va *bashar* so'zlari forsiy tildagi *kasi* so'zi bilan muqobil tarzda keltirilgan. Forsiy tildagi *andom* so'zi turkiy tilga *gavda* deya tarjima qilinadi. Arab tilida esa ushbu so'zning uchta sinonimi: *jasad*, *badan*, *jism* borligi ko'rsatib o'tilgan.

Yoki yana bir misol:

جو حلقوم ناي كلو سولوق يولي بيل
دخي حلق اول كلو بوغز اي ولي بيل

*"Chu halqum nay galu suluq yo'li bil,
Dahi halq ul galu bo'g'iz ey, Vali bil"*
صلاح الدين خوجه بن علاء الدين [3, 1909].

Halqum, nay yo'li turkiy tilda *suluq yo'li*, ya'ni so'lak yo'lidi. *Galu* (fors), *xalq* (arab) so'zlari *bo'g'iz* (turkiy) degani. Baytdagi "bil" so'zi lug'at tarkibiga kirmaydi, u faqatgina qofiya uchun qo'llangan.

Vali ismi ham shunday, muallif undan misralardagi bog'inxilar miqdorini me'yorga solish maqsadida foydalangan, shu bilan birga o'quvchiga o'z fikrlari ta'sirliroq bo'lishiga intilgan.

Yoki:

دی ظاب سلف باجه همزلف
ضرة انباغ کنداش اي مشرف

*"De zoab silf boja hamzolf,
Darra anbog' kundosh ey, Mashraf"*
[صلاح الدين خوجه بن علاء الدين 1909].

Ushbu misralarda turkiy tilda boja ma'nosini anglatuvchi *hamzolf* so'zi hamda *Mashraf(b)* ismi qofiya bo'lib xizmat qilmoqda. Baytdagi *Mashraf* so'zi faqatgina qofiya vazifasini bajarib qolmay, o'quvchiga murojaat va ta'kid funksiyalarini ham bajargan. Olmoshlarga bag'ishlangan fasldagi quyidagi misol ham bu borada e'tiborga molik:

انا من نحن ما بز منكا اي اي
مرا ايانا مارا بزغه اي باي»

*"Ana man nahnu mo biz menga iyyoy,
Maro iyyana moro bizg'a, ey boy"*
[صلاح الدين خوجه بن علاء الدين 1909].

Misralarda turkiycha *men, biz, menga, bizg'a* olmoshlariiga muqobil sifatida arab tilidagi *ana, nahnu, iyyoy, iyyana*, forsiy tildagi *man, mo, maro, moro* olmoshlari berilmoqda. "Ey boy" undalmasi esa o'quvchilarga qaratilgan ta'kidni kuchaytirgan.

Quyidagi misralarda ham muallif murojaati yaqqol sezilib turadi:

”دى منه عنه از وى اندن اي حى“
ان رسقى هم چنلقدە بولكاي“

*"De minhu anhu az vey ondan, ey Hay,
Anna rosti ham chinliqda bo'lg'ay"*
[صلاح الدين خوجه بن علاء الدين 1909].

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinish turibdiki, muallif o'z asarida "ey jon", "ey boy", "ey Hay", "ey Nigora", "ey Bek" kabi

undalmali birikmalarni qo'llab, lug'at foydaluvchilari: kitobxon, talaba, o'qituvchi, o'quvchilar diqqatini lug'atdagi so'zlarning yodlanishiga qaratishga xizmat qilgan. O'quvchi ushbu asarni o'zi uchun yozilgandek his qilishini xohlagan Salohiddin Toshkandiy, aytish mumkinki, o'z maqsadiga to'la erisha olgan.

"Lug'oti salos" hoshiyalari va ularning yozilish uslubi

"Lug'oti salos" asarining yana bir o'ziga xos xususiyati asarda hoshiyalarning mavjudligidir. Biz qadimda yaratilgan lug'atlar: Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Zamahshariyning "Muqaddimatu-l-adab", Muhammad G'iyosiddinning "G'iyos al-Lug'at", "Attuhfatuz – zakariyat fi al-lug'otit turkiya", Olimxon al-Borudiyning "Lug'oti salosiy" kabilardan bilamizki, ularda hoshiyalar mavjud emas. Bundan tashqari, mazkur lug'at asarlar she'riy usulda yozilgan emas. Toshkandiyning asari saj' usulida, she'riy uslubda yozilgani tufayli uni adabiy manba deb hisoblash mumkin.

Sharq kitobatidan bizga ma'lumki, hoshiya bu – kitobning asosiy matni joylashgan qismiga qo'shimcha ma'lumotlarni qamrab oluvchi qism. Qo'lyozma kitoblarda hoshiya yozuvlari – asosiy matndan tushib qolgan qisqartmalar, asosiy matnning o'sha yeriga berilgan izohlar, boshqa asar matnidan keltirilgan parchalar, ba'zan esa boshqa muallifning butun boshli asari joylashtirib yuborilishi mumkin. Ushbu asarda ham Salohiddinxo'ja hoshiyadan mohirona foydalangan. Aksar lug'at asarlarni kuzatadigan bo'lsak, unda hoshiyalar mavjud bo'lmaydi. Ushbu asarda hoshiyaning borligi asarning ilmiy ahamiyati va qimmatini yanada oshirgan.

Asardagi hoshiyalar berilish uslubi ham o'ziga xos bo'lib, hoshiyada keltirilgan ma'lumotlarni olti guruhga bo'lish mumkin:

1. So'zlar izohi.
2. So'zlarning qo'shimcha ma'nolari.
3. Asosiy matnga qo'shimcha misralar.
4. Asosiy matnga yordamchi baytlar.
5. Asosiy matnga qo'shimcha so'zlar.
6. Ba'zi qoidalar.

So'zlar izohi

Qo'lyozma, toshbosma kitoblarning hoshiyasida, asosan, so'zlarning izohi beriladi. Ushbu asarda ham hoshiyadan birinchi navbatda so'zlarga izohlar berish uchun foydalananilgan. Bu asar muktab o'quvchilari uchun yaratilgani bois muallif asardagi muktab o'quvchisi uchun tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni izohlab boradi.

Toshkandiy asarning hamd va na't qismini Alloh ismi bilan boshlab, "Bismillahir Rohmanir Rohim"ga asar hoshiyasida quyidagicha sharh keltiradi:

بسم الله يعني باشلايomin تنكر تعالى آقى بيله اوшибوكتاب نى الرحمن نعمة ييركوجي آخرتهد مؤمنلاركه وكتقلاركه الرحيم يعني يازوقلارين كچوركوجي آخرتهد مؤمنلاركنىه غه

"Bismilloh, ya'ni boshlayurman tangri taolo oti bilan ushbu kitobni. Ar-Rohman, ya'ni ne'mat berguvchi dunyoda mo'min va kofirlarga Ar-Rohim, ya'ni yozuqlarin kechirguvchi oxiratda mo'minlarnigina" [4 ,1909 صلاح الدين خوجه بن علا الدين]. Ya'ni ushbu kitobni yozishishini, avvalo, Allohnning buyuk nomi bilan boshlayman. U barchaga mehribon va rahmdildir. Barchaga, butun insoniyatga ne'matlarni, rizqni, ilmni berguvchi Allohdir. Ushbu sifat faqat Alloh taologa xos bo'lib, oxiratda mo'minni ham, mo'min bo'lмаганларни ham o'z xohish irodasiga ko'ra kechirishi mumkin. Ar-Rohim yozuqlarni kechirguchi, ya'ni insonlarning gunohini kechiruvchi, oxiratda esa faqatgina mo'minlarninggina panoh topishini aytgan zotdir, deya o'z asarini boshlaydi.

Asarning na't qismida esa payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga salovot-u salomlar keltiriladi hamda hoshiyada matn tarkibida kelgan "elchimizga" so'ziga quyidagicha sharh beriladi:

«رسلنا محمد مصطفى صلى الله عليه وسلم سلم سووچميذورلار. افديميذ و سيدميذورلار»

"Rasuluna Muhammad Mustafu solollohu alayhi vasallam sevuvchimiz, afandimiz va sayyidimizdurlar" [صلاح الدين خوجه بن علا الدين]. Ya'ni bizning yo'l ko'rsatuvchi elchimiz bo'lgan zot Muhammad (s.a.v.) insonlar ichida eng sevikli zotdir. U bizni afandimiz, sayyidimiz, ya'ni hurmatga eng loyiq bo'lgan insonmizdir, deya payg'ambarimizga o'z maqtovlarini, ul zotga salovat va salomlarini yetkazadi.

Asarda hamd va na't tamom bo'lgach, muallif asarni boshlaydi va unda quyidagicha misralarni keltiradi:

”جليل الله رحمن رحيم در
ملک قدوس مهیمین هم کریم در
خدا یزدان ایزد بیر باریم
ینه پروردگار کردگاریم
چلب تنکریم غانیم معنی کیم بیل
یر تکانیم ایکم خواجم ایدیم بیل

ملک يعنى فرشته جن پريدر
دی شيطان معنى سينى ديو ايا حر
رسول ايله بني ايلچى پميرپر
”دليل هادى قلاوز يولچى رهبر“

*Jalilulloh(1) Rohman-u Rohimdur,
Malik Quddus Muhaymin ham Karimdur.
Xudo yozdan izod bir-u borim,
Yana parvardigori kirdikorim.
Chalab tangrim u g'anim ma'no kim bil,
Yer tikonom ikim hujam izim bil.
Malak(2) ya'ni farishta jin(3) paridur,
De shayton(4) ma'nosini dev-u oyo hur.
Rasul bilan nabiy elchi payg'ambar,
Dalil hodi qilovuz yo'lchi rahbar*

[صلاح الدين خوجه بن علا الدين 1909]

Ushbu parchda belgilangan so'zlarga muallif hoshiyada quyidagicha izohlar yozib qoldirgan:

الله تعالى شندای ذات دورکیم قدرت کامله سی بیله اون سکیز منک عالم نینک يراتканدور و
اني اوحشاشی و تنکداشی يقتورور

"Alloh taolo shunday zotdurkim, qudrat komilasi bilan o'n sakkiz ming olamni yaratgandur va aning o'xhashi va tengdoshi yo'qturur" [4, 1909 صلاح الدين خوجه بن علا الدين].

Ya'ni Allah o'n sakkiz ming olamni yaratgan, qudrati cheksiz, yagona zotdir. Unga hech kimni sherik qilib bo'lmaydi. Uning qudrati qarshisida dunyo, insoniyat ojizdir. O'n sakkiz ming bir-biriga o'xshamas bo'lgan olam mo'jizalarini yaratishga tanho Allahdan boshqa kimning qudrati yetardi? Undan boshqa hech zot dunyoda Allah yaratgan biror narsani yarata olmaydi. U tenggi yo'q, qiyosi yo'q zotdir.

ملک شوندای نرسه دورکیم انکا تنکر تعالى جسم لطیف برکандور. کوزغه کورونمس يمس
”ایچمس ایرکک اور غاچی بلمس. دائم عبادته دور لار.“

“Malak shunday narsadurkim, Tangri Taolo jismi latif bergandur. Ko'zga ko'rınmas, yemas, ichmas, erkak va urg'ochilar bo'lmas. Doim ibodatdadurlar [4, 1909 صلاح الدين خوجه بن علا الدين]. *Malak so'zi bizning davrimizda xalqmizda farishta sinonimi bilan iste'molda qo'llanilmoqda.*

Asarning asosiy matnida keltirilgan “malak” so'ziga

muallifning izohini ko'rdik. Bilamizki, farishtalarni Alloh taolo beg'ubor, sof, go'zal qilib yaratgan. Xalqimizda "farishtadek beg'ubor", "farishtadek begunoh", "farishtaday beozor" degan iboralar mavjud. Ya'ni farishtalar beg'ubor, begunoh bo'lishi, ular tabiatan shunday yaratilganini bilamiz. Ular insonlarga ko'rinxaydi, chunki nурдан yaratilgan. Hech qachon yemaydi ham, ichmaydi ham. Ular erkak va ayolga ajratilmaydi.

"جس هم شندي اى نرسه دوركيم اير و خاتونلارى بولور يرلا ايچارلار مؤمن و كافىلرى بولور"

"Jin ham shunday narsadurkim, er va xotinlari bo'lur. Yerlar, icharlar. Mo'min va kofirlari bo'lur" [4, 1909]. صلاح الدين خوجه بن علاء الدين. Endi shoir jinlarga ta'rif bermoqdaki, farishtalardan farqli ravishda ularning erkak va ayolga ajratilishini, yeyishlarini, suv ichishi va insonlar kabi ularning ham musulmon va kofirlari bo'lishini aytib o'tmoqda.

"شيطان معنى سى دو تورور. بولار جماعە سىنى اصلا مؤمنلارى بولمس. ايركىلارين ابلىس و اورغايچى لارин حبانى دىلور. بولار كافر مطلق ترور. مسولманلارنى يولدىن آزدورور"

"Shayton ma'nosi dev turur. Bular jamoasina aslo mo'minlari bo'lmas. Erkaklarin iblis va urg'ochilarin haboil (arabcha yozuvda bu so'z yo'q???) deyilur. Bular kofiri mutlaq turur. Musulmonlarni yo'ldan ozdirur" [4, 1909]. Shayton bu – devdir. Dev so'zi bizning lug'atimizda yomon maxluq sifatida tushuniladi. Aslida esa uning etimologiyasi, kelib chiqishi shaytonga borib taqaladi deyilmoqda. Ya'ni shayton deganda ko'z oldimizda eng yomon, badbashara, xunuk, insoniyatning dushmani gavdalananadi. Shaytonlar orasida hech qachon musulmonlari bo'lmas, ularning ishi faqat musulmonlarni yo'ldan ozdirish, yomonlikka boshlash bo'lganligi uchun ham dev deganda yomon maxluqni tushunsak ajab emas. Toshkandiy jinlar kabi shaytonni ham erkak va ayolga bo'linishini aytadi. Ya'ni shaytonning erkagi *iblis*, ayoli esa *haboil* deyiladi. Ko'rinish turibdiki, hoshiyalarda berilgan izohlar ma'rifiy ahamiyatga ham ega.

So'zlarning qo'shimcha ma'nolari

Adib asarda lug'at qismidagi maktab o'quvchilariga tushunilishi qiyin yoki mujmal bo'lgan so'zlar izohini ham keltiradi. Ya'ni asar birinchi bobining "ایماقات اسلامى", ya'ni "Qarindosh-urug'

XIX asr oxiri XX asr boshlarida leksikografiya rivoji va unda "Lug'oti salos"ning o'rni ismlari nomli to'rtinchi faslidagi "arus" so'ziga hoshiyada "arus ma'nisi kelindir" deya izoh beriladi.

Hoshiyalarda berilgan ma'lumotlarning yana bir turi bu — asar mazmuniga qo'shimcha ma'lumotlardir. Asar ikkinchi bobining اولاغ اسملرى nomli birinchi faslida *g'azal, kiyik, ohu* deya so'zlarning uch tildagi nomini aytib o'tar ekan, "g'azal" so'ziga hoshiyada:

”بعضى ريم غزلنى كيک بلاسى ديرلار“

صلاح الدين خوجه بن [علا الدين 1909] degan ma'lumotni berib o'tadi.

Asarning xuddi shu bob va shu faslida *kalb, it, ko'fak* so'zlarni keltirar va shu asnoda "ko'fak" so'ziga doir quyidagicha qo'shimcha ma'lumotni keltiradi:

”كوفك ايت نинك ايركакى قنجىغ اورغاخى سى كوچوك بلاسى دور“

Ya'ni, *Ko'fak itning erkaki, qanchig' urg'ochisi, kuchuk bolasi*dir [صلاح الدين خوجه بن علا الدين 1909]. Ko'fak bu fonetik hodisa tufayli o'zgarib, hozirda ko'ppak shakliga kelgan so'zdir. Biz ko'ppak deganda umuman itni tushunadigan bo'lsak, uning urg'ochisi va bolasi boshqacha nom bilan atalishini yuqoridagi ma'lumotlardan bilib olish mumkin.

So'zlar tovush almashinushi, assimilyatsiya, dissimilyatsiya kabi fonetik hodisalar ta'sirida hozir boshqacha shaklga kelib qolgan bo'lishi mumkin. Xuddi shunday so'zlardan biri bu *kalabak*dir. Kalabak hozirda biz *kapalak* deb ataydigan chiroyli hashoratning nomi. Lug'atning ikkinchi bob, oltinchi ya'ni "hashorat ismlari"ga bag'ishlangan faslidagi kapalak so'ziga:

”بعض ترك كله بک و كوده ديرلار“

Ya'ni, *bazi turk kalabak va kadu derlar* [علا الدين 1909] deya hoshiyada izoh beriladi. Shunday qilib, muallif hoshiyadagi izoh orqali ba'zi turkiy xalqlar kapalakni *kalabak*, ba'zilari esa *kadu* deb ham atashi haqida qo'shimcha tushuntirish bermoqda.

Asar hoshiyasida yana shunday qo'shimcha ma'nolar keltirilganki, ular o'quvchini qiziqtirmay qolmaydi. Shunday ma'lumotlardan biri asarning beshinchi bob "Makon ismlari" nomli birinchi faslidagi "jannat" so'zining turkiy tildagi ma'nodoshi qilib "uchmoq" so'zini keltiradi. Va ushbu so'z izohi uchun quyidagi

ma'lumotlarni berib o'tadi:

اوچماق скізір. Ол Хлдэ Айкнчى دар اسلام الوجونچى دар القرار تортончى جнт عدن
”بیشینچى جنت الماء آلتینچى جنت النعيم یتچى علیین سکزңچى فردوس ترور.

Ya'ni, *uchmoq sakkizdir. Avval halda, ikkinchi dar islom, uchunchi dar al-Qaror, to'rtinchi jannat adn, beshinchi jannat al-Ma'u, oltinchi jannat an-Naim, yettinchi illiyin, sakkizinchi firdavs erur*” [35, 1909] [صلاح الدين خوجه بن علاء الدين]. Jannatning sakkizta ekani haqida ko'p eshitganmiz, lekin aksariyatimiz ularni nomma-nom bilmaymiz. Ushbu hoshiyada keltirilgan ma'lumot orqali muallif buni o'quvchiga bildirib o'tadi. Ya'ni bunda jannatning sakkiz eshigini sanab o'tmoqda. Bu ham, albatta, makon ismlariga misol bo'la oladi.

Biror so'zning ma'nosini to'liqroq tushunushimiz uchun uning antonimidan ham foydalanamiz. Jannat so'zi bilan birga do'zah so'zi o'zaro antonim va ikkisi ham joy nomidir. Adib ham ularni yonmayon qo'yadi va do'zah, saqar, jahannam, tamuq so'zlari bir so'zning turli tillardagi atalishi ekanini tushuntiradi. Bu yerdagi “tamuq” so'zi turkiychadir. Ushbu joyni ham adib yetti qavati borligini aytib, o'quvchiga tushunarli tilda izohlab beradi:

«اما تموقنى بر در لار. طبقه سى يىتى در: اوں سقر ایكىنچى سعير اوچونچى لظى تورتونچى
حطمە بىشىنچى جەيم التچى سجىن یتچى ھاوېه ترور

Ya'ni, *Amma tamuqni bir derlar. Tabaqasi yettidur. Ul saqar, ikkinchi sair, uchinchi lazzo, to'rtinchi xutomah, beshinchi jahim, oltinchi sijiyin, yettinchi haviyah turur*” [صلاح الدين خوجه بن علاء الدين] [35, 1909]. Ya'ni do'zah bitta, lekin uning yetti qavati bor deyilmoqda.

Yana shunday qo'shimcha ma'lumotlardan biri asarning uchinchi bobи “اسلىرى” Asos ismlari” deb ataladigan ikkinchi faslida eshik so'ziga quyidagicha ma'lumot kiritadi:

«اشىك دب قاپيو ارقاسىن ھم دىرلر»

Ya'ni, *Eshik deb qopu orqasin ham derlar*” [صلاح الدين خوجه بن علاء الدين] [37, 1909]. Izohdagи qopu so'zi ham, eshik so'zi ham turkiy, ya'ni sinonim so'zlardir. Muallif o'z asarining oltinchi bobи “نمیرلر” ya'ni “Olmoshlar” deb nomlanuvchi birinchi faslida forsiy tilda ham, turkiy tilda ham yozilishi bir xil bo'lgan “من” so'zining talaffuzida farq borligini aytib, bunga aniqlik kiritib ketadi.

Ya'ni:

Ya'ni, *Man bi al-fatha forsiy ast, bi al-kasra turkiy lafzdur*" [صلاح الدين خوجه بن علا الدين 1909, 46]. Agar **m** va **n** undoshlari yonmaydon turganda so'zni "man" deb o'qisak fors tilida, agar uni kasra harakat bilan "men" deb o'qisak turkiy tildagi ma'nodoshi kelib chiqishi aytilmoqda.

Asosiy matnga qo'shimcha misralar

Ajoyib baytlar yaratgan Salohiddinxo'ja o'z asarining misralariga qo'shimcha o'xshash misralar ham yaratgan va ularni ham asar hoshiyasida aks ettirgan. Asosiy matn qora siyoh bilan yozilgan bo'lsa, o'xshash misralar qizil siyoh bilan yozilgan. Asarning muqaddima qismida berilgan:

لذیدر سوز اوکاسدر پوچ
حديث بر آیت ایکی فقه ایله اوج

Lazizdur so'z o'zgasidur puch,
Hadis bir oyat ikki fiqh bilan uch
[صلاح الدين خوجه بن علا الدين 1909].

baytiga o'xshash quyidagi baytni hoshiyada shunday bayon qilgan:

مئدور سوز اوچ اوزکاسیدур کوچ
عرب بر فارسی ایکی ترک ایله اوج

"Mislidur so'z uch o'zgasizdir kuch
Arab bir forsiy ikki turk bilan uch"
[صلاح الدين خوجه بن علا الدين 1909].

Ya'ni, muallif o'z lug'atining muqaddima qismida asari haqida ma'lumot berar ekan, uni eng go'zal hadis, fiqh, oyat tillarida yozganini aytib, ma'lumot beradi. Asar hoshiyasida esa ularning qaysi tillar ekani haqida bayon qiladi. Ular ota-bobolarimiz ijod qilib, o'zining betakror, juda zaruriy, adabiy, ilmiy qiymatga ega bo'lgan asarlarini yartagan arab va fors tillari hamda so'z mulkinining sultonini bo'lgan Navoiy "qayta tiriltirgan" turkiy til ekanini bayon qiladi.

Asosiy matnga yordamchi baytlar

Asar hoshiyasida asarning asosiy matniga qo'shimcha o'quvchilarni ilm olishga, o'qib-o'rganishga chorlovchi baytlar ham mavjud. Asarning to'rtinchi bob زمان اسلامى زمانى nomli birinchi faslidagi:

شتا قىش ده زمىستان تحسىل يېتكىيل
چو صيف اول ياز تابستانغە يېتكىيل

*Shita' qish de zemeston tahsil etgil,
Chu soyf ul yoz tobestong'a yetgil*
[صلاح الدين خوجه بن علا الدين 1909]

misralariga hoshiyada muallif shunday qo'shimcha bayt keltiradi:

بو عالم علم شهرغە تحسىل انكونك
احبرت تاكە بوسنانيغە يتكونك

*Bu olam ilm shahriga tahsil etgung,
Oxirat toki bustonig'a yetgung*
[صلاح الدين خوجه بن علا الدين 1909].

Ko'rinish turibdiki, mazkur misralar bilan Salohiddinxo'ja o'quvchilarni ilm olishga, ilm olib oxiratini obod qilishga undamoqda.

Yana bir shunday baytni ushbu bobning "الو اسلاملىرى", ya'ni "Olov ismlari" deb nomlanuvchi to'rtinchi faslida:

«دى موقۇد كاتون آتشدان اوچاق
حمام كرمابە مۇنچە كىر بولوب اق»

*De mavqid konun otashdon o'choq,
Hammom garbore muncha kir bo'lib oq*
[صلاح الدين خوجه بن علا الدين 1909]

deya isituvchi narsalar – pechka, o'choq, hammom so'zlarini keltirib, ushbu misralarga quyidagi ajoyib qo'shimcha baytni keltiradi:

«علم حمامىيغە كىر غىل ايرته راق
جهل كىريدىن بولورسۇ مندە آق»

*Ilm hammomiga kirgil ertaroq,
Jahl kirdin bo'lursan bunda oq
[صلاح الدين خوجه بن علاء الدين] 1909.*

Ushbu baytda ham biz muallif ilmgaga chanqoq bo'lishga, kitobxonlarni ham ilm olishga ishtiyoqlarini oshirishga harakat qilayotganini sezish mumkin. Qo'shimcha baytlarga xos mazkur xususiyatlar ularning ma'rifiy funksiyasi mavjudligini, asar, asosan, lug'at vazifasini bajarish uchun yozilgan bo'lsa-da, muallif unda o'zining dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, falsafiy fikrlarini ham ifodalashga jiddiy e'tibor qaratganini ko'rsatadi. Yuqoridag baytda ham xuddi shu holatni kuzatish mumkin. Ma'lumki, hammom insonni jismoniy kirlardan xalos etib, uni toza qiluvchi joy. Unga kiruvchilarning maqsadi bitta – toza, ozoda bo'lish. Ushbu baytda hammom so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan bo'lib, agar inson ilm olishga harakat qilib, jiddi-jahd qilgan bo'lsa, u o'zidan johillik, bilimsizlikni yo'qtotishga harakat qilgan bo'ladi. Shoir o'quvchilarni tezroq bilim olishga ishtiyoqini oshirmoqda. Barchani ilmgaga olishga, nodonlik, johillikdan qochishga undash esa har bir adabiy manbaning eng muhim vazifalaridan sanaladi.

Asosiy matnga qo'shimcha so'zlar

Salohiddinxo'ja ushbu lug'atning asosiy matnida aks ettirolmay qolgan so'zlarini ham, ba'zan, hoshiyada yozib boradi. Ular ham arabcha, forscha va turkiy so'zlardir. Masalan, lug'atning birinchi bobining inson a'zolariga bag'ishlangan birinchi faslida turkiy tildagi (تکلای) tanglay, bet so'zlari va forsiy tildagi (چهرا) chehra so'zi hoshiyada ko'rsatilgan. Ushbu bobning to'rtinchi qarindosh-urug' otlariga bag'ishlangan faslida arab tilidagi (تِوام) tivam va turkiy tildgi (ایکیز) egiz so'zlari ham hoshiyada aks etgan. Asarning ikkinchi bobbi, qushlarga bag'ishlangan to'rtinchi faslida arab tilidagi (بط) batt so'zini qofiyaga putur yetmaslik uchun adib hoshiyada aks etirgan. Bundan tashqari xuddi shu faslda turkiy tildagi (باقوش) boyqush so'zi ham asosiy matnga kiritilmay hoshiyada qayd etilgan.

Ikkinchi bobning beshinchi faslida turkiy tildagi (بلبان) polapon va burga so'zları berilgan. Uchinchi bobning (نباتات) Nabotot deb nomlangan oltinchi faslida (قرالداغ) qizaldog' so'zi asosiy matnga qo'shimcha tarzida hoshiyada berilgan. Qizg'aldog' ayni paytda qizg'aldoq deya yoziladi va shunday talaffuz qilinadi. Hoshiyada berilgan so'zlarda har uch tildagi so'zlarning ketma-ketligini kuzatish ham mumkin. Masalan, uchinchi bobning to'rtinchi oziq-ovqatga

bag'ishlangan faslidagi arabcha (نخالة) *nuxola*, forsiy tildagi *sabus* va turkiy tildagi (كبک) *kepak so'zlari qizil siyoh bilan hoshiyada berilgan*. To'rtinchi bob, uchinchi faslida ham arab tilidagi (مشرقه) *mushriqa*, forsiy tildagi (آفتابکاه) *oftobgoh* va turkiy tildagi *kun chiqar* makon ma'nosini anglatuvchi so'zlari hamda arab tilidagi (قمراء) *qamrau*, forsiy tildagi (شعاء ماه) *shaa moh* va turkiy tildagi (آیین) *oydin* so'zlari ham asar hoshiyasida batartib qayd etilgan. Asarning beshinchi bob, birinchi faslida arab tilidagi (جزائر) *jazoir*, forsiy tildagi (بیبان) *biyobon*, turkiy tildagi (چوسلستان) *cho'liston* kabi so'zlar. Oltinchi bob, birinchi olmoshlarga bag'ishlangan faslida arab tilidagi (نعم) *na'am*, forsiy tildagi (أر) *ore*, turkiy tildagi (بو) *bova*, ya'ni tasdiq ma'nosidagi "ha" so'zlari berilgan. So'zlarning davomida "qozoq tilinda "hayya" ham der" – deya yozib qo'yilgan.

Ba'zi qoidalar

Hoshiyada uchrovchi muhim ma'lumotlarning bir turi tildagi grammatik qoidalardir. Masalan, asar oltinchi bobining "اسم عدد" , ya'ni "sonlar" deb ataluvchi beshinchi faslida sonlar birin-ketin keltiriladi. Va hoshiyada uchta tilda qanday qilib tartib sonlar yasalish qoidasi berilgan:

"عربه فاعل حرف الف بولور ثالث رابع خامس و كذا. فارسيده حرف ميم بولور سيوام چهaram پنجم. ايينچين تركيده حرف چي بولور اوچونچى تورتونچى بيشينچى. شنداغ قيلانور قيلنور.«.

Arabda foil harf alif bo'lur: solis, robi', xomis va kaza. Forsiyda harf mim bo'lur: sevvo'm, chahoro'm, panjo'm. Ìninchin turkiyda harf -chi bo'lur: uchunchi, to'rtinchi, beshinchi. Shundog' qiyos qilinur [صلاح 49 ,1909] الدين خوجه بن علاء الدين.

Bunda ko'rinish turibdiki, muallif o'quvchi tushunadigan til bilan osongina uch tilda tartib son yasalishini tushuntirmoqda. Ya'ni, arab tilida tartib sonlar sanoq sonlarnig birinchi harfidan keyin "alif" orttirish bilan hosil bo'ladi. Fors tilida esa sanoq sonning oxiriga "mim" harfini qo'shish bilan tartib son yasaladi. Turk tilida ham fors tili kabi sanoq son oxiriga qo'chimcha qo'shish, ya'ni -chi qo'shimchasini orttirib hosil bo'ladi. Hoshiyada grammatik qoidalarning berib borilishi lug'atning mukammallahuviga, ayni paytda, asar tabiatining o'ziga xoslik kasb etishiga sabab bo'lgan. Shu ma'noda aytish mumkinki, Salohiddin Toshkandiying mazkur asari faqat lug'at bo'lib qolmay, ayni paytda o'quvchilarga til qoidalariini

Xulosa

XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida turli xil sabab va ehtiyojlar, davr taqozosi bilan Turkistonda ikki tilli lug'atshunoslik rivoj topdi, o'nlab ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha lug'atlar, so'zlashgichlar tuzilib nashr etildi. Mazkur davrda yaratilgan lug'atlar sifatida -1914yil Mirzo Abdullo bin Abdulg'offor Tabiriziy muallifligi ostida chiqqan forscha-ruscha lug'at, Ali Sayyidining Istanbulda -1909yili chop etilgan لغات اجنبية asarini, Abdullo Shenosiyning -1916yilda chop etilgan tatar tilida yaratilgan lug'atini, N. Rovijning -1928yil حکمت طبیعیه (Mustafo Kamol posho esdaliklari) nomli tatarcha lug'ati, K. Yodoxinning -1927yilda chop etilgan نیسیده لکه ری کمال پاشا موصطفی اوزбекچه روس لغتى قىسىمچە asarlarini keltirishimiz mumkin.

Ushbu lug'atlar orasida biz tahlil etgan Salohiddinxo'janing uch tilli "Lug'oti salos" asari alohida ajralib turadi. Uning she'riy tarzda yozilgani asarning nafaqat leksikografik, lingvistik manba sifatida, balki uning adabiy manba sifatida ham ahamiyati yuqori ekanini ko'rsatadi. Muallif asarni maktab o'quvchilari va o'qituvchilari iltimosiga ko'ra yozilganini hisobga olsak, asar nima uchun saj' usulida yozilganini anglash qiyin bo'lmaydi. Tadqiqotimizning ushbu qismida XIX asarda yaratilgan ba'zi lug'atlar, ushbu lug'atlar ichida adabiy manba sifatida ahamiyatlari bo'lgan "Lug'oti salos" asari, uning muallifi Salohiddin Toshkandiy haqida ma'lumotlar berish bilan bir qatorda, asardan olingan ajoyib parchalari, chuqur ma'no ega bo'lgan, misralarida teran fikrlarni ifodalovchi baytlar va ularda foydalanilgan badiiy san'atlar tahlili bilan tanishdik. Shulardan kelib chiqqan holda, ushbu asar hozirda yaratilayotgan mazmuniy lug'atlarning yuzaga kelishiga asos bo'la oladi.

Maktabning boshlang'ich sinflariga lug'atlar tuzish uchun katta tajriba vazifasini bajara oladi. Chunki ayni davrimizda lug'atlar oddiy, tillarda uchrovchi so'zlarning ketma-ket muqobillarini keltirish bilan tuzilmoqda. Ushbu lug'at yurtimizda ijod qilayotgan shoirlarga yangi-yangi she'riy asarlar yaratishga turtki bersa ajab emas. Lug'atning she'riy tuzilishi maktab o'quvchilari til o'rganishlari uchun osongina qo'llanma bo'lish bilan birga, o'quvchini yoshlikdanoq adabiyotga, she'rga bo'lgan muhabbatini oshirishga xizmat qiladi, ularning estetik didini shakllanririshga yordam beradi. Bundan tashqari, ushbu mukammal lug'at arab, fors, turkiy tillar lug'atchiligi tarixini o'rganishda, mavzuviy guruhlash usulida lug'atlar tuzishda, arab, fors, o'zbek tillarining sinonimlari

lug'atini tuzishda, turkiy tillar tarixiy etimologik lug'atlarini tuzishda muayyan darajada xizmat qiladi. O'zbek tilida ham shunday she'riy lug'atlar tuzilishiga turtki beradi.

Adabiyotlar

صلاح الدين حوجه بن علاء الدين «لغات ثلاثي» غلامي مطبعسي ٩٠٩١/١٥
على سيدى «لغات أجنبية» استنبول، امنيت كتبخانسى ٠١٢/٩٠٩١
ك.بوداحين «قصه چه او زبيك روس لغتى» تاشكنت ٦١٨/٧٢٩١

- Акромов, А., Алимов Б. ва б. 2009. *Тошкент ентиклопедияси*. Тошкент:
Ўзбекистон миллий ентиклопедияси давлат миллий нашириёти.
- An-Naim arabcha-o'zbekcha lug'at.* 2003. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
- Am-myxfatuz- закиёяту фил-луғотим туркия.* 1968. Тошкент: Фан.
- Asher, A., Ahlwardt, W. 1894. *Die fladschriften – verzeichnisse der königlicher bibliothek Zuberlin.* Berlin.
- Ҳабибуллаев, А. 2000. *Адабий манбаунослик ва матнушунослик*.
Тошкент: ТошДШИ.
- Ҳакимжонов, М. 1994. *Маҳмуд Замаҳарийнинг "Муқаддимату-л-адаб"* асаридағи арабча-туркӣча сўзликнинг лексикографик таҳлили: докт. диссер. Тошкент.
- Исломов, З.К. 1968. Туркий тил (қипчоқ тили) ҳақида ноёб тухфа.
Тошкент: Ўзбекистон ССР Фан.
- Исломов, З. 1993. *Маҳмуд Замаҳарийнинг "Муқаддимату-л-адаб"* асаридағи туркӣ феъллар таҳлили: докт. диссер. Тошкент.
- Исломов, З. 1998. *Маҳмуд Замаҳарийнинг "Муқаддимату-л-адаб"* асарининг қўллэзма манбалари ва арабча-туркӣ феъллар сўзлигининг ийғма илмий-танқидий матни. Тошкент.
- Жузе, П.К. 1926. *Диванлуғатат-турк.* Известия Восточного факультета Азербайджанского Государственного университета. Баку.
- Маҳамадалиев, Х. 1998. *"Fuēc ал-Луғат"* ва ундаги қатлам: докт. диссер. Тошкент. Nosirov O., Yusupov M. ва б. 2014. *An-Na'im arabcha-o'zbekcha lug'at.* Namangan: Namangan.
- Малов, С. Е. 1951. *Памятники древнетюркской письменности.* Тексты и исследования. Москва-Ленинград.
- Matjonov, S., Sariyev, Sh. 2011. *Adabiyot.* Toshkent: Sharq.
- Mirtojiyev, M. 2000. *O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi.* Toshkent: Fan.
- Mehdixon, Mirzo. 2008. *Maboni al-Lug'at.* Forschadan Zikrillo Umarov tarjimasi. Toshkent: ToshDShI.
- Муҳаммад Юсуф, Шайх Муҳаммад Содик. 2011. *Васатия – ҳаёт йўли.*
Тошкент: Hilol nashr.
- Персидско-русский словарь. 1983. Том I-II. Москва.
- Сапоев, Р., Авеметов, Ш. 1996. *Ўзбек тилидаги арабча ва форсча сўзлар луғати.* Тошкент: Ўқитувчи.

- Сирожиддинов, Ш. 2011. Алишер Навоий манбаларнинг қиёсий типологик, текстологик таҳлили. Тошкент: Akademnashr.
- Убайдуллаев, А. 2011. "Луғати туркӣ"нинг лексикографик тадқиқи: докт. диссер. Тошкент.
- Ulug'bek, Sulton. 2011. *As-Sulton* (o'zbekcha-arabcha lug'at). Toshkent: Hilol nashr.
- Хасаний, М., Ҳабибуллаев, А. 2012. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. Тошкент: ТошДШИ.
- Хасанов, Б. 1981. Алишер Навоийнинг "Сабъати абхур" луғати. Тошкент: Фан.
- Хасанов, Б. 1989. Жавохирлар хазинаси. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. 2006. Toshkent: O'zbekiston milliy entiklopediyasi.
- Ғаниева, С., Содиков, Қ. 2013. Ёзув тарихи ва китобат санъати. Тошкент.
- Фофурова, С. 2014. "Тарихий луғатшуносликда "Луғати салос"нинг ўрни". Ўзбек тили ва адабиёти 3: 37 – 43.
- Shomuhamedov, Sh. 1977. *Alisher Navoiy she'riyatidan*. Toshkent:O'zbekiston.

O. Mahkamova

(Tashkent, Uzbekistan)
omahkamova@mail.ru

In The Late Nineteenth And Early Twentieth Centuries, The Progress Of Lexicography And The Position Of The Dictionary Titled "Lughati Salos" In The Lexicography

Abstract

Lexicography is one of the most important sections of linguistics the theme of this article aims to learn the book of "Lug'ati salosi" which is an essential instruction for Arabian and Persian learners Exploring this book properly enables us to study lexicography Turkic languages as well as making out classic works and the history of lexicography. This article is devoted to obtain: general information about "Lug'ati salos", information

about 19th century linguistics, brief information about Salokhiddin Toshkandi, to describe the literary aspects of the work, presentation of the introductory part of the work, information about the margin of the work, being familiar to its construction, analizing every section of the book.

Key words: “*Lughati salos*”, lexicography, old tirkic language, poetic method, *Salokhiddin Toshkandi*, *Tashkent*, “*Temurnama*”.

About the author: *Odina Mahkamova* – researcher, Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan.

Recommended citation: Mahkamova, Odina. 2020. “XIX asr oxiri XX asr boshlarida leksikografiya rivoji va unda “Lug’oti salos”ning tutgan o’rni”. *Oltin bitiglar* 1: 80—107.

References

- Akromov, A., Alimov B. va b. 2009. *Toshkent yentiklopediyasi*. Toshkent: O’zbekiston milliy yentiklopediyasi davlat milliy nashriyoti.
- An-Naim arabcha-o’zbekcha lug’at. 2003. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
- At-tuxfatuz- zakiyoyatu fil-lug’otit turkiya. 1968. Toshkent: Fan.
- Asher, A., Ahlwardt, W. 1894. *Die fladschriften – verzeichnisse der königlichen bibliothek Zuberlin*. Berlin.
- Habibullaev, A. 2000. *Adabi manbashunoslik va matnshunoslik*. Toshkent: ToshDShl.
- Hakimjonov, M. 1994. *Mahmud Zamahshariyning “Muqaddimatu-l-adab” asaridagi arabcha-turkiycha so’zlikning leksikografik tahlili*: dokt. disser. Toshkent.
- Islomov, Z.K. 1968. Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa. Toshkent: O’zbekiston SSR Fan.
- Islomov, Z. 1993. *Mahmud Zamahshariyning “Muqaddimatu-l-adab” asaridagi turkiy fellar tahlili*: dokt. disser. Toshkent.
- Islomov, Z. 1998. *Mahmud Zamahshariyning “Muqaddimatu-l-adab” asarining qo’lyozma manbalari va arabcha-turkiy fellar so’zligining yig’malilmay-tanqidiy matni*. Toshkent.
- Jyze, P.K. 1926. *Divan lug’at at-turk*. Izvestiya Vostochnogo fakulteta Azerbaydjanskogo Gosudarstvennogo universitet. Baku.
- Mahamadaliev, X. 1998. “*G’iyos al-Lug’at*” va undagi qatlam: dokt. disser. Toshkent. Nosirov O., Yusupov M. va b. 2014. *An-Na’im arabcha-o’zbekcha lug’at*. Namangan: Namangan.
- Malov, S. Ye. 1951. *Pamyatniki drevneyturkskoy pismennosti*. Teksty i issledovaniya. Moskva-Lelingrad.
- Matjonov, S., Sariyev, Sh. 2011. *Adabiyot*. Toshkent: Sharq.
- Mirtojiyev, M. 2000. *O’zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi*. Toshkent: Fan.

- Mehdixon, Mirzo. 2008. *Maboni al-Lug'at*. Forschadan Zikrillo Umarov tar-jimasi. Toshkent: ToshDShI.
- Muhammad Yusuf, Shayx Muxammad Sodiq. 2011. *Vasatiya – hayot yo'li*. Toshkent: Hilol nashr.
- Persidsko-russkiy slovar*. 1983. Tom I-II. Moskva.
- Sapoev, R., Avezmetov, Sh. 1996. *O'zbek tilidagi arabcha va forscha so'zlar lug'ati*. Toshkent: O'qituvchi.
- Sirojiddinov, Sh. 2011. *Alisher Navoiy manbalarning qiyosiy tipologik, tek-stologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.
- Ubaydullaev, A. 2011. "Lug'ati turkiy"ning leksikografik tadqiqi: dokt. disser. Toshkent.
- Ulug'bek, Sulton. 2011. *As-Sulton* (o'zbekcha-arabcha lug'at). Toshkent: Hilol nashr.
- Xasaniy, M., Habibullaev, A. 2012. *Adabiy manbashunoslik va matnshunosli-kning nazariy masalalari*. Toshkent: ToshDShI.
- Xasanov, B. 1981. *Alisher Navoiyning "Sabati abhur" lug'ati*. Toshkent: Fan.
- Xasanov, B. 1989. *Javoxirlar xazinasi*. Toshkent: Adabiyot va sanat.
- O'zbek tilining izohli lug'ati*. 2006. Toshkent: O'zbekiston milliy entiklopediyasi.
- G'anieva, S., Sodiqov, Q. 2013. *Yozuv tarixi va kitobat sanati*. Toshkent.
- G'ofurova, S. 2014. "Tarixiy lug'atshunoslikda "Lug'ati salos"ning o'rni". *O'zbek tili va adabiyoti* 3: 37 – 43.
- Shomuhamedov, Sh. 1977. *Alisher Navoiy she'riyatidan*. Toshkent: O'zbekiston.

A. Qurbanov

(*Namangan, O'zbekiston*)

akurbanov-57@mail.ru

San'atga aylangan taxallus

Abstrakt

Maqolada “Navoiy” taxallusi va unga asos bo'lgan “navo” so'zлari o'rtasidagi munosabat haqida so'z yuritilgan. Taxallus ulug' shoir uchun nafaqat adabiy nom, shu bilan birga, beqiyos poetik iqtidorini namoyon qilish uchun alohida imkoniyat ham bo'lgan. U o'z yuksak san'atkorlik mahoratini bu sohada ham, Bobur ta'biri bilan aytganda, “barchadan ko'p va xo'b” namoyish qilgan shoir. “Xamsa”, ayniqsa, “Xazoyin ul-maoniy” tarkibida Navoiy taxallusi bilan yaratilgan yuzlab yetuk va betakror baytlar bor. Bu baytlar “navo” yoki “Navoiy san'ati” deb atash mumkin bo'lgan yangi va alohida bir san'atning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Mazkur san'at asosida ham ulug' shoirning yuksak badiiylik haqidagi qarashlari yotadi. Shoirning uqtirishicha, har bir asar mukammal tanosub asosiga qurilishi, badiiylik unsurlari o'zaro, shuningdek, asar g'oyaviy mazmuni bilan shakl va ma'no jihatidan aloqador bo'lishi lozim. Maqolada shoir g'azallaridan keltirilgan qator baytlar tahlili orqali “Navoiy” va “navo”, “benavo”, “navoe” so'zlariga jo bo'lgan badiiy, tasavvufiy ma'nolar, bu so'zlar vositasi bilan yaratilgan bemisil poetik san'atlar ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *Navoiy, tanosub, navo, kuy, sayrash, benavo, ishq, hajr, vasl, fano, iyhom.*

Muallif haqida: Abdulhamid Qurbanov – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, *Namangan davlat universiteti*.

Tavsiya etiladigan havola: Qurbanov, Abdulhamid. 2020. “San'atga aylangan taxallus”. *Oltin bitiglar* 1: 108—126.

So'z san'atkorlari, ayniqsa, o'tmish qalam ahlini taxallusidan ayro tasavvur etish qiyin. Chunki taxallus shunchaki adabiy nom emas: unda ijodkor maslagi, orzu-umid va maqsad-muddaolari muayyan darajada o'z aksini topadi. Taxallusning asar badiiy to'qimasida tutgan o'rni ham beqiyos. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr"da yozishicha, taxallus, avvalo, shoirning o'z asariga bosgan "tamg'o"si – muhridir [Навоий 1991, 263]. Taxallus tatabbu'navislikda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi [Носиров ба 6. 1979, 17]. Bir xil vazn, bir xil qofiya, bir xil radif bilan yozilgan, ham mavzu, ham g'oya, ham mazmun jihatidan o'xshash she'rlarni bir-biridan ajratish oson emas. Bu holda faqat taxallusga qarabgina ishonch bilan "bu Sa'diy yo Nizomiyningdurur, Yo bu Xisravning, bu Jomiyningdurur" [Навоий 1991, 263] deb aytish mumkin.

Taxallus nafaqat "tamg'o", shu bilan birga, mahorat namoyishi uchun alohida imkoniyat ham. Otoiyning bir g'azalida taxallusiga "ot, oyim"ni qofiya qilib, tajnis san'atining nozik va nodir namunasini yaratgani ma'lum:

Desangkim: "Jon sipar qilg'il, Otoyim!"

Turubmen ushmunoq, o'ldur, ot, oyim! [Атойи 2008, 148].

Ammo hech bir ijodkor o'z taxallusiga Navoiy qadar e'tibor bilan qaragan emas. U bu sohada ham o'z yuksak san'atkorlik mahoratini, "barchadan ko'p va xo'b" namoyish qila olgan shoirdir. "Xamsa", ayniqsa, "Xazoyin ul-maoniy" tarkibida Navoiy taxallusi bilan yaratilgan yuzlab yetuk va betakror baytlar bor. Bu baytlar "navo" yoki "Navoiy san'ati" deb atash mumkin bo'lgan yangi va alohida san'atning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Mazkur san'at asosida ham ulug' shoirning yuksak tanosub haqidagi "tarhi toza" qarashlari yotadi. Navoiyning uqtirishicha, har bir asar tanosub asosiga qurilishi, badiiylik unsurlari o'zaro, shu bilan birga, asar g'oyaviy mazmuni bilan shakl va ma'no jihatidan aloqador bo'lishi lozim. Bu qoida taxallusga ham taalluqlidir. Shoir o'zbekcha asarlarida Navoiy, forscha asarlarida esa Foniy taxallusini qo'llagan. Ammo "Lison ut-tayr" bundan mustasno. Aslida, shoirning o'zi alohida ta'kidlaganidek, doston "turkiy uslub" bo'lgani, ya'ni turkiy tilda yozilgani uchun unda taxallus Navoiy bo'lishi lozim edi:

Munda ansab erdikim, tuzgoch navo,

Bo'lsa nazmimg'a Navoiydin ado [Навоий 1991, 263].¹

1 Keyingi parchalar ham shu bobga mansub.

Qolaversa, “Lison ut-tayr” qushlar haqidagi asar. Bu jihatdan ham Navoiy unga mos tushar edi, chunki *navo qushlar tili alhoni* — yoqimli sayrashidir:

*Kim navo qushlar tili alhonidur,
Dilkash afg'oni hazin dostonidur.*

Ammo, shunday bo'lsa-da, shoir dostonga Navoiy emas, Foniy deb “tamg'o” bosadi. Bu, albatta, g'ayrioddiy, kutilmagan bir hol edi. Shuning uchun shoirning o'zi bu holga maxsus izoh beradi. Uning ta'kidlashicha, avvalo, asardagi bosh masala *marja'* va *maod mayli* — ruhning asl manba, Haqqa qaytishidir: *Kim bu daftар nazmidin kуlli murod, Chunki marja' mayli erdi-yu maod,* – deb yozadi u bu haqda. “Marja” va “maod” fanodir, binobarin, foniy bo'lmay “marja” va “maod”ga qaytishning iloji yo'q: *Munda foniy bo'lmay ish o'lmas tamom.* Ikkinchidan, *Shayxi ma'naviy*, ya'ni Farididdin Attor masnaviysida tasvirlangan yetti vodiydan oxirgisining nomi ham “fano”dir. Shuning uchun bu ikki tanosub: “fano” holi-yu “fano” maqomiga Navoiydan ko'ra Foniy “ansab” — munosibroq edi:

*Garchi bu ikki tanosub yor edi,
Nazmima ham bu taxallus bor edi.
Gar taxallus munda Foniy ayladim,
Bu tanosublardin oni ayladim.*

Shunday qilib, shoirning ta'kidlashicha, taxallus asardagi yetakchi timsol va tushunchalar, eng avvvalo, g'oyaviy mazmun bilan yuksak darajada tanosub hosil qilmog'i lozim. Garchi “Lison ut-tayr”da qushlar navosi (sarguzashti) tasvirlanib, *navo* va *Navoiy* bu jihatdan bir-biriga mos tushsa-da, bu moslik bir muncha yuzaki bo'lib, *kulli murod* — *fano* tasviriga munosib emas: *fano* — *Navoiy*. Foniy esa *marja' mayli-yu maod*ning bevosita aks-sadosi, balki mo'jaz ifodasidir: *fano* — *Foni*.

Shu o'rinda alohida e'tibor qaratish lozimki, shoir tilga olgan tanosub yakka bir san'at emas, u nafaqat jinsdoshlik, balki o'zakdoshlikni ham o'z ichiga olgan keng tushunchadir. Aks holda, shoir *fano* va *Foni*, *navo* va *Navoiyni* tanosub deb atamagan bo'lar edi. Darhaqiqat, ulug' shoir ijodida tanosub birgina ishtiqoq emas, shu bilan birga, tashbeh, istiora, tazod va hatto tajnis va iyhom kabi san'atlarni ham o'z ichiga oluvchi uslubiy hodisadir. Bu san'atlar tanosub qonuniyatları asosida uyg'unlashib, badiiy tafakkurning

alohida ko'rinishi tarzida yuzaga chiqadi. Nazariy jihatdan asoslanib, amaliy jihatdan haddi a'losiga yetkazilgan bu uslubni *yuksak mutanosiblik* deb aytish mumkin [Курбонов 2016, 31–41].

Yuksak mutanosiblik nafaqat "Lison ut-tayr", balki Navoiy taxallusli boshqa asarlarda ham butun latofat va nafosati bilan namoyon bo'lgan. Ulug' shoir "Lison ut-tayr"da "fano"ga Foniyni tanosub qilgan bo'lsa, ularda Navoiyga "navo"ni hamohang aylab, rangin va serjilo, bemisl va betakror bir san'at yaratadi. "Hayrat ul-abror"dagi "Durrojning yolg'onni chin o'rnig'a ayturidin hodisa domig'a tushgonida, chin so'zni Sher yolg'on sog'inib, faryodig'a yetmagoni va ani balo domidin xalos etmagoni" sarlavhali hikoyatda kelgan quyidagi bayt bir misoldir:

*So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil,
Rost navo nag'mag'a tahsin degil* [Навоий 1991, 212].

Navoiyga tanosub so'z, avvalo, navo: *Navoiy — navo*. "Navo"ni baytdagi mazmuniy markaz deb aytish mumkin, barcha so'z va timsollar mazmunan u bilan aloqador. "Navo"ga mutanosib so'z, avvalo, *nag'ma*, chunki nag'ma ham navoning bir turi. "Rost" ham "navo" va "nag'ma" qatoridagi so'z, chunki "rost" mumtoz maqomlardan birining nomi bo'lib, "rost navo" ana shu maqomga ishoradir: *rost - navo — nag'ma*. Ammo "rost"ning *to'g'ri, chin* degan ma'nolari ham bor. Shoir birinchi misrada "chin so'z"ni olqishlab, ikkinchi misrada "rost navo" iborasini bejiz keltirmagan: u "chin so'z"ning istioraviy ifodasidir. Har ikkisining ma'nosi ham *to'g'rilik: chin so'z — rost navo*. Nihoyat, "rost navo" rostlik ta'riflangan o'ninchi maqolatga mos navodir. O'ninchi maqolat esa "Rostliq ta'rifida" deb nomlanib, mutafakkir adibning uqtirishicha, "vujud uyi shu tuz sutun bila barpoy". Ulug' shoir *Navoiy — navo — nag'ma — chin — rost* tanosublar silsilasi bilan shunday deydi: *Ey Navoiy, ey rost navo cholg'uchi, ne kuy kuylasang ham, rost bo'lzin, rost navogina tahsinga loyiq!*

Shu o'rinda diqqatga sazovar yana bir nuqta bor. U ham bo'lsa, "navo" so'zining ma'nosidir. "Navo"ning birlamchi ma'nosi "kuy" yoki "musiqa" ekanligi yaxshi ma'lum [Haqqul. 2016, 22–28]. Ammo uning, ulug' shoir "Lison ut-tayr"da ta'kidlaganidek, ikkinchi ma'nosi ham bor: "qushlar tili alhonii" — *qushlar sayrashi, qushlarning xush ovozi*. Bu ma'no Durroj "navo"siga ham begona emas. Zero, Durroj ham "Lison ut-tayr" qushlari kabi bir qush. Ammo u "rost navo" emas, "yolg'onni chin o'rnig'a aytur" qush. Bu ma'noda ham shoir

qissadan hissa qilib, o'ziga shunday deydi: *Ey Navoiy, ey rost navo qush, ne navo soz aylasang ham, u rost bo'lzin, rost navogina tahsinga loyiq!*

"Navodir ush-shabob"dan o'rin olgan quyidagi bayt timsollar tizimi bilan ham, ularning talqin tarzi bilan ham mazkur baytga hamohangdir:

*Kuyi azmida Navoiyg'a navo yetsa ne tong,
Kim qilur bulbul navo ohangi gulzor aylabon*

[Навоий 1989, 349].

Baytdagi yetakchi tanosublar, albatta, *Navoiy* va *navo*. Birinchi misrada shoir Navoiy va navo qatoriga "kuy" va "azm" so'zlarini qo'shadi: *Navoiy — navo — kuy — azm*. "Kuy"ning bu o'rindagi ma'nosi *ko'cha, maskan*, "azm"ning ma'nosi esa *niyat, qasd*. Ikkinchisi misrada bu timsollarga ma'nodosh bo'lgan majoziy timsollarni keltiradi: *bulbul — navo — gulzor — ohang*. "Ohang"ning bu qatordagi ma'nosi "azm" kabi *niyat, qasd*. Baytda tamsil san'ati yetakchi bo'lib, *bulbul* Navoiy, *navo* navo, *gulzor* kuy, *ohang* esa azmdan tamsildir. Tamsillar tili bilan shoir shunday deydi: yor kuyi gulzor, Navoiy bulbul, uning navosi esa bulbul navosidir. Shunday ekan, *bulbul gulzor tomon qasd aylagan chog'navo qilganidek, Navoiy ham yor kuyiga azm aylaganda (bulbuldek) navo qilsa, ajablanarli emas!*

Baytning "navolar" olami shundangina iborat emas, bayt mazmunida "kuy" va "ohang" so'zlarining ham alohida o'rni bor. "Kuy"ning bir ma'nosi *ko'cha* bo'lsa, bir ma'nosi *ohang*; "ohang"ning bir ma'nosi *qasd* bo'lsa, bir ma'nosi *kuy*. Ammo, aslini olganda, *kuy* ham, *ohang* ham navodan o'zga narsa emas. *Kuy* va *ohang* navo qatorida kelib, navoga aylanish barobarida, "navo"ning o'zini ham, qolaversa, baytning "navo"sini ham ham behad baland va serohang qilgan: *Navoiy yor kuyiga (ohangi, navosiga) azm aylagan chog'unga navo (kuy, ohang) yetsa, ajablanarli emas, zero, bulbul ham gulzor ohang (kuyi, navosi) qilgan chog'navo qiladi-da!* Baytdagi tanosub so'zlar: *Navoiy — navo — kuy — bulbul — ohang — gulzor*.

Nafaqat o'zaro aloqador, balki mutlaq "begona" so'zlarning ham bir-biriga bu tarzda mos va munosib bo'lib qolishi, ayni chog'da, navoning o'zidan ham o'zgacha navo taralishi quyidagi baytda ham o'zgacha ohang bilan namoyon bo'lgan:

Navosidin fano chun hosil o'lди, qilg'asen, ey ishq,

Navoiy rishtayi jonin mug'anniy udining tori

[Навоий 1988, 477].

Mug'anniy nag'magar, cholg'uchi, ud esa musiqa asbobidir. Udning ustma-ust tortilgan torlari bo'ladi, bu torlar chertilganda, ulardan mayin va yoqimli navo taraladi. Shoir ham tashbehi aks, ham tashbehi tasviyat san'atini ishga solib, o'z jonining rishtasini ud torlariga, ud torlarini esa jon rishtasiga qiyos qiladi, chunki jon rishtasi ud torlari, ud torlari jon rishtasidek nozik va ingichka. Baytda aytishicha, mug'anniy udi torlaridan taralgan navo fano boisidir. *Ey ishq*, — deydi shoir ishqqa murojaat qilib, — *mug'anniy udining tori navosidan fano hosil bo'lar ekan, shuning uchun Navoiy jonining rishtasini ham ud tori qilgaysan* (toki uning jon toridan ham ud rishtasidek fano navosi taralsin).

Fano, ulug' shoir o'z taxallusini izohlagan bobda ta'kidlaganidek, Haq yo'lining nihoyasi bo'lib, bu maqomda jon qushi Yor (Haq) vasliga oshno bo'ladi.

Sidqi ixlos birla ikkinchi fano

Yorni qildi alarga oshno, —

deb yozadi shoir bu maqom adosining tasvirida [Навоий 1991, 236]. Yorga oshnolik o'z-o'zidan hosil bo'lavermaydi, bu yo'lida Hudhud kabi bir piri dono ham kerak, toki u jon qushini fano yo'llaridan xabardor qilsin. "Mug'anniy" ana shunday orif pirdir. Fano yo'llari rango-rang bo'lsa-da, ular orasida barchasidan mahbub va marg'ub bir yo'l borki, bu ishq yo'lidir. Bu jihatdan baytda shoirning fanodan umidvor bo'lib, ishqqa murojaat qilishi ham besabab emas.

Shunday qilib, "mug'anniy" pir bo'lsa, "navo" ishq, "ishq" esa *fanoga yetkazuvchi yo'ldir*. Fanotalab shoir ishqqa murojaat qilib, deydiki: *Ey oshiqlarni fano, ya'ni Haq vasliga oshno qiluvchi ishq, mug'anniy udining navosidan, ya'ni piri komilning so'zlaridan fano hosil bo'lar ekan, Navoiyning jon rishtasini ham ud tori qilgaysan, ya'ni uni ham majlis ahli qatoriga qo'shgaysan* (toki u ham fano navosiga oshno bo'lsin).

Ko'rinaradiki, baytda ikki mazmuniy qatlama bo'lib, ularga muvofiq ikki qatlama tanosublar qatori bor: 1) zohiriy (adabiy): *mug'anniy — ud tori — navo — fano*; 2) botiniy (tasavvufiy): *piri komil — jon rishtasi — ishq — fano*.

Quyidagi bayt mazmuni bilan ham, timsollar silsilasi bilan ham mazkur baytga o'xshab ketadi:

*Navoiy, bo'lmayin zor-u zaif, o'lmas navo topmoq,
Bu ermish piri chang atvordin dayr ichra talqinlar*

[Навоий 1988, 142].

Bu baytda *ud sozi chang* bilan o'rin *almashgan*. *Chang* hammaga ma'lum musiqa asbobi. Lekin u, baytda tasvirlanishicha, oddiy *chang* emas, *piri chang* — keksa chang yoki changning keksasi. Bunday atalishiga sabab chang qaddining keksa kishi qaddidek egikligidir. Shoiring uqtirishicha, egik qad bois chang navo topgan, agar egik bo'limganda edi, u navo soz aylamas edi. Atvor xatti-harakat, ko'rinish. *Dayr esa aslan majusiylar ibodatxonasi*, ammo baytda bazmgoh ma'nosida kelgan. Piri changning egik qaddiyu, ammo yoqimli navosi shoir uchun ulug' ibrat, namuna bo'lgan. *Ey Navoiy*, — deydi u o'ziga yuzlanib, — *zor-u zaif bo'lmay, navo topmoq mumkin emas, piri changning bazm ichra ahvoli shundan nishon ermish*.

Ma'lumki, *pir* so'fiyona istiloh ham. Baytda uning sayri suluk rahnamosi, murshid degan ma'nolari ham nazarda tutilgan. Natijada changga qo'shilib boshqa so'zlar ham so'fiyona ma'no kasb etgan. Atvor so'fiylar tilida suluk ahlining roh-u ravishi, sayri suluk tarzi degani. *Dayr* pirning majlisi, *talqin* esa va'z, pirning suluk ahliga bergen sabog'idir. *Ey Navoiy*, — deb xitob qiladi shoir masalaning bu tomoniga ishora qilib, — *zor-u zaif bo'lmay, navo topmoq mumkin emas, piri murshidning majlis ichra bergen sabog'i shu emish*. Ammo piri changning sabog'i navo ham, suluk ahli navo sabog'iga muhtoj benavo ham emas. Sayri sulukdan maqsad Yor vasli, Yor vasliga esa zor-u zaif bo'lmay, ishq qiyinchiliklaridan qadni changdek egmay yetib bo'lmaydi. Bu holda *navoning* majoziy ma'nosи — *vasl, zor-u zaif*ning ma'nosи esa *riyozaт* — *vasl yo'lida suluk ahli yengib o'tishi lozim bo'lgan ranj, mashaqqat ekanligi ayon bo'ladi*. Binobarin, shoir baytda shunday tasavvufiy g'oyani ilgari surgan: *Ey Navoiy*, (visol talabida bo'lsang, shuni bilki,) *riyozaт chekmayin, Yor vasliga yetmoq mumkin bo'lmas, piri murshidning majlis ichra soliklarga bergen sabog'i shu emish*.

Bu baytda ham *Navoiy* va *navo* tanosublari zohiriy hamda botiniy qatlamlar tarzida namoyon bo'lgan:

1) zohiriy: *chang — zor-u zaif — navo — atvor — dayr — talqin;*

2) botiniy: *pir — riyozaт — vasl — roh-u ravish — majlis — saboq.*

Quyidagi baytda *Navoiy* va *navo* tanosubi o'zgacha ohang,

balki o'zgacha rang kasb etgan:

*Navoiyo, bu navolarki, kecha tortarmen,
Zuhal eshituru Xurshid eshitmas afg'onim*

[Навоий 1988, 325].

Bu baytning "navo"si avvalgi baytlardagi singari bulbulning xush ovozi ham, mug'anniy yoki piri changning yoqimli kuy yoki sozi ham emas. *Ey Navoiy, sen kechalar tortgan bu navolarni Zuhal eshitadi-yu, ammo Xurshid (Quyosh) eshitmaydi*, — deb navo chekadi shoir baytda. Ikkinchisiz misrada "navolar" "afg'on" bilan almashgan. Ma'lum bo'ladiki, shoir "kecha tortayotgan navolar" navo emas, balki "afg'on" — nola, faryoddir. Baytda *Navoiy va navoga kecha* — *Zuhal — Xurshid* — *afg'on so'zlari tanosub bo'lgan*. Bu qatordag'i markaziy so'z "kecha" bo'lib, u bois baytning mazmuni va badiiyati o'zgacha jilo, o'zgacha rang olgan. Kecha, ma'lumki, qorong'u, qorong'ulikning rangi esa qora bo'ladi: *qora kecha*. "Qora kecha" shoir navosini "afg'on"ga aylantirgan, balki o'zidek qora qilgan: *qora afg'on (mungli navo)*. O'z navbatida, "kecha" va "afg'on"ning rangi urib, "navo" ham kecha va afg'ondek qora bo'lib qolgan: *qora navo (mungli afg'on)*.

Zuhal, *Navoiy* davridagi yulduzlar ilmiga ko'ra, *Oy*, *Atorud*, *Zuhra*, *Quyosh*, *Bahrom*, *Mushtariy* kabi yetti samoviy sayyoraning biri bo'lib, uning maskani barcha sayyoralardan balandda, yettinchi osmonda bo'lgan. Bundan o'y lash mumkinki, shoirning qorong'u kechalarda tortkan "afg'oni" behad baland, shu qadar balandki, hatto yettinchi osmondag'i *Zuhal* ham eshitadi. Ammo *Zuhalni qora kecha, qora afg'on va qora navo* bilan tanosub qilgan uning o'rni emas, rangi. Zero, yetti sayyora yetti rang sohibi hamdir: *Oy yashil*, *Atorud* moviy, *Zuhra* oq, *Quyosh* zarhal, *Bahrom* qizil, *Mushtariy* jigarrang, *Zuhal* esa qora rang. Ma'lum bo'ladiki, *Zuhalning rangi ham "kecha", "afg'on" va "navo" singari qora ekan: qora Zuhal*.

Garchi *Xurshid* ham *Zuhal* singari bir sayyora bo'lsa-da, u — *Zuhal*, jumladan, "kecha" bilan hamrang emas, chunki *Xurshid zarhal Quyosh*. Kecha va *Quyosh* ranglarida yaqinlik emas, zidlik namoyishi bor: *kecha qorong'u, Quyosh esa yorug'*. Shuning uchun shoir "bu navolarki, kecha tortarmen, *Zuhal* eshitir-u *Xurshid* eshitmas afg'onim", deb nechog'li zorlanmasin, bari befoya. Chunki qorong'u kechada *Xurshidning o'zi bo'lmaydi*, buning uchun tong otib, *Quyosh* chiqishi kerak. Binobarin, "Zuhal eshitir-u *Xurshid* eshitmas".

Shunday qilib, *navo, kecha, Zuhal* va *afg'on* tanosublari o'rtasida rang jihatidan muvofiqlik, *ular* bilan *Xurshid* o'rtasida esa muqobillik bor: *kecha* (qora) — *Zuhal* (qora) — *afg'on* (qora) — *Xurshid* (yorug').

Quyidagi baytda ham *navo*, *may*, *navo naqshi* va *mutrib* o'rtasida ma'nolararo bog'lanish, *navo* va *may* bilan *benavolig'* o'rtasida esa ziddiyat zohir bo'lgan:

*Navoiy benavolig' birla doyim may ichar, bir kun
Navo naqshini davron mutribi bazmida cholg'ay deb*

[Навоий 1988, 72].

Garchi *mutrib* ham *mug'anniy* singari cholg'uchi bo'lsa-da, uning sozi va ovozida shodlik ohanglari ustuvor. Uni *mug'anniy*dan farqli o'laroq, "shodlik kuyini chaluvchi sozanda" deb ta'riflash mumkin. Baytdagi "navo naqshi" ham shu ma'noga dalolat qiladi. "Naqsh" ham "navo" singari kuy, ammo "navo"ga qaraganda bir muncha yengilroq kuy. Shu bilan birga, "navo naqshi" "rost navo" singari alohida kuyning nomi ham. *Davron mutribi bir kun tarab (shodlik) bazmida navo naqshini chaladi deb, Navoiy benavolik bilan doimo may ichadi*, — deydi shoir baytda benavolikdan shikoyat qilib.

Baytda *mutrib*, *navo naqshi* bilan birga, *benavo* va *may* mafhumlari ham Navoiy "navo"sigi jo'r bo'lgan. "Benavolik" "navo"ning ziddi, binobarin, uni *navosizlik* yoki *navoning yo'qligi* deb osongina izohlash mumkindek tuyuladi. Albatta, so'zning mazmuniy mundarijasida shunday ma'no ham yo'q emas. Xususan, shoir navosi o'zga qushlar (shoirlar) navosi bilan qiyoslanib, faxriya usuli: o'z ishqni va iste'dodi behad baland ekanligi, shu tufayli cheksiz iftixor tuyg'ularini tuyish ruhi bilan sug'orilgan quyidagi baytda "navo" *alhon* (qush sayrashi) yoki *nazm*, "benavolig'" esa *navosizlik (jim qolish)* yoki *xijil* ma'nosida kelgan:

*Bu gulshan qushlarig'a benavolig' kelturur lahni,
Navoiy har qachon o'z gulruxin istab navo cheksa*

[Навоий 1988, 433].

Ammo "navo" hamma vaqt *navo* bo'lмаганидек "benavolik" ham benavolik emas. "Navo"ning majoziy ma'nosи, avvalgi baytlardan ma'lum bo'ганидек, *ishq* yoki *vasl*. Zikr etilgan baytda ham shu ma'nolarda kelgan: *Navo naqshini davron mutribi bazmida cholg'ay deb*. Shunday ekan, u chog'da "benavolik"ning majoziy ma'nosи, "navo"ga zid o'laroq, *ishqsizlik*, ya'ni "hajr" bo'ladi. Baytda "may" bejiz "benavolik"ka qarshi qo'yilmagan: "benavolik", ya'ni "hajr"ning davosi "may"dir. Bu jihatdan "may"ning "navo"dan farqi yo'q, uning majoziy ma'nosи ham *ishq* yoki *vasl*. Quyidagi baytda bu holat yanada

aniqroq ko'zga tashlanadi:

*Hajrdin o'ldi Navoiy, soqiyo, tut jomi may,
Ey mug'anniy, sen navo ohangida qo'bsa¹ qo'buz*

[Навоий 1990, FK, 144].

Bayt tamsil san'atining yuksak namunasi va unda o'zaro juftlik hosil qiluvchi timsollar mavjud: *soqiyo — mug'anniy; may — navo*. Bu timsollar biri ikkinchisining ma'nosini aniqlab-to'ldirib keladi. Shoир birinchi misrada soqiya murojaat qilib deydiki: *Ey soqiyo, Navoiy Yor hajrida o'ldi, unga jom to'la may tut*, (toki uni ichib, qayta tirilsin, ya'ni Yor vasliga yetsin). Ikkinci misrada ham shu holat, shu murojaat ifodalangan, ammo unda "soqiyo" o'rnida *mug'anniy*, "navo" o'rnida esa *may* kelgan: *Ey mug'anniy*, (Navoiy Yor hajrida o'ldi), *sen navo ohangida qo'buz chal*, (toki uni eshitib, qayta tirilsin, ya'ni Yor vasliga yetsin).

Shunday qilib, "benavolik", ma'lum bo'ladiki, hajrdir. Baytning mazmunini yaxshiroq anglash uchun "hajr" mafhumining so'fiyona ma'nosiga ham nazar tashlash lozim. "Hajr (deb) xoh zohir, xoh botin yuzidan bo'lsin, dilning Mahbubi haqiqiyidan o'zga narsalarga iltifot va tavajjuh ko'rsatishiga aytilur" [Бертельс 1965, 177] — deb yozadi noma'lum muallif "Mir'oti ushshoq" nomli so'fiyona istilohlarning izohli lug'atida. *Navo va may ishq yoki vasl, benavolik esa ishq sizlik yoki hajr ekanligidan kelib chiqsak, baytda shoир aslida shunday degani ma'lum bo'ladi: Navoiy hajr aro qolgan bo'lsa ham, davron mutribi, ya'ni Mahbubi haqiqiy oxir-oqibat bir kun o'z vasliga vosil qiladi deb, umrini muttasil vasl umidi bilan o'tkazadi*. Baytdagi tanosublar: *Navoiy — benavo (hajr) — may (ishq) — navo naqshi (vasl) — mutrib (Mahbub)*.

Navoiy quyidagi baytda hijron holatini yana bir rangin timsol bilan ifoda etadi:

*Chu ketti barg-u gul, bulbul navodin qoldi, ko'rgilkim,
Navoiydekmish ul dog'i bebarg-u navo bo'lg'ach*

[Навоий 1990, 75].

Bulbul ishi gul va gulga oro bergen gulbarg shavqida tun-u kun tinmay navo qilish. Ammo, baytda aytilishicha, bulbul navodan qolgan, chunki gul ham, navo boisi gulbarg ham gulshanni tark etgan. Lekin "navodan qolgan" bir bulbul emas, shoirning o'zi ham

1 *Qo'bsa(moq)* va *qo'buz* so'zlarining o'zakdoshligi e'tiborni tortadi.

bulbuldek benavo, balki bebarg: *Navoiydek emish ul dog'i bebarg-u navo bo'lg'ach*. Dastlabki qarashda “bebarg”ning ma’nosи *bargsiz, yaproqsiz*, chunki u birinchi misrada gulga tanosub bo’lgan: *barg-u gul*. Biroq *barg* ketib, bulbulning navodan qolishi ishtiboh uyg’otadi, zero, *barg* gul kabi *bulbul* bilan bevosita aloqador emas. Buning ustiga, Navoiy ham o’zini *bebarg-u navo* deb ataydiki, uning bebargligini hatto tasavvur qilish imkonи ham yo’q. Chunki bebarglik gulga xos, Navoiy yoki bulbulga emas. Demak, *barg barg emas, bebarg bebarg* emas. Lug’atdan ma’lum bo’ladiki, *barg* ko’p ma’noli so’z bo’lib, bir ma’nosи *gulbarg*, bir ma’nosи esa *kuy* va *navo*. Demak, *barg* qо’sh ma’noli so’z, binobarin, *barg* bilan *gul*, *bulbul* va *navo* o’rtasida bir emas, ikki taraflama aloqadorlik bor ekan: u *gulbarg* ma’nosи bilan gulga, *navo* ma’nosи bilan ham bulbul, ham navoga tanosub bo’lgan: 1) (*gul)barg — gul*; 2) *barg (navo) — bulbul — benavo* (bulbul navodin qoldi).

“Barg”ning baytdagi poetik vazifasi bundan ko’ra ham kengroq. Agar “barg” bo’lmaganda edi, “navo” ikkinchi misrada “bebarg-u navo” bo’la olmas, binobarin, hijron tuyg’usi bu qadar ta’sirchan ifodalanmas edi. “Bebarg-u navo” o’z navbatida *benavo bulbul* uchun ko’zgu ham bo’lgan. Bu ko’zguda aks etgan bulbul nafaqat *benavo*, balki Navoiydek *bebarg-u navo* ham. Xullas, bulbul va Navoiy bir-biriga ko’zgu bo’lganidek, “bebarg”u “benavo” ham bir-biriga ko’zgu bo’lib, bu ko’zguda bebarg-u navolikning Navoiyvor manzaralari bor rangu ohangi bilan namoyon bo’lgan. Chunonchi, bulbul *bebarg-u begul* bo’lganidek, Navoiy ham *bebarg-u beguldir*; Navoiy *bebarg-u benavo* bo’lganidek, bulbul ham *bebarg-u benavodir*; bulbul *bebarg-u benavo* bo’lganidek, Navoiy ham *bebarg-u benavodir*, chunki *barg-u gul* Navoiy bog’ini qanday tark etgan bo’lsa, bulbul bog’ini ham shunday tark etgan.

Quyidagi baytda “benavo”lik talqini butunlay o’zgacha, u avvalgi baytlardagi kabi *ishqsizlik* yoki *hajr* emas:

*Xirqayi zuhdin Navoiy qildi rahn, ey mayfurush,
Qo’yma hush ilgida oni, benavo tutqil qadah*

[Навоий 1989, 81].

Baytda “may” “zuhd”ga, “benavo”lik “hush” (aql)ga zid qо’yilgan. *Zuhd* may kabi ishq yoki vasl yo’li emas, aksincha, ishqdan bexabarlik. Shuning uchun haqiqiy ishq ahli zuhdni rad etadi, undan xalos bo’lishga intiladi. *Xirqa zuhd* ahlining maxsus libosi, u *nafs* yoki *o’zlik* [Курбонов 2016, 81-101] pardasining ramzidir. *Rahn*

qilmoq garavga qo'ymoq, *mayfurush* may sotuvchi, u ham mug'anniy yoki mutrib singari piri komil. *Ey mayfurush, zuhd xirqasini garavga qo'ydim*, — deb unga murojaat qiladi Navoiy, — *endi meni hush qo'lida qoldirma, benavo bo'lsin deb bir qadah may tut*. Agar "benavo"ning avvalgi ma'nolaridan kelib chiqilsa, baytning mazmuni *Ey mayfurush, zuhd xirqasini garavga qo'ydim, endi Navoiyni hush qo'lida qoldirma, hijronga giriftor bo'lsin deb bir qadah may tut*, — degani bo'ladiki, bu na oshiq orzu-intilishlari, na ulug' shoirning ishq falsafasiga to'g'ri keladi.

Shoir falsafasiga ko'ra, *aql-u hush* ham *zuhd* kabi vasl yo'li emas, balki bu yo'ldagi ortiqcha yukdir. Shuning uchun may ichib, "hush ilki"dan qutulmoq kerak. "Hush ilkidan qutulmoq" rasvo bo'lmoq, rasvo bo'lmoq devonalik, devonalik esa ishq ahli erishmog'i mumkin bo'lgan eng ulug' maqom — fano yoki vasldir. Ma'lumki, "Ashraqat..." nafaqat shoir devoni, balki uning g'oyalar olamiga olib kiruvchi eshikning ham kalitidir. G'azal baytlaridan birida mayparast oshiq, balki shoirning o'zi soqiyya iltijo qilib undan jomi may so'raydiki, dayr aro tarki hush aylab, devona bo'lsin:

*Dayr aro hush ahli rasvo bo'lgali, ey mug'bacha,
Jomi may tut sang, meni devonadin qil ibtido*

[Навоий 1988, 25].

Endi bayt mazmunini shunday bayon qilish mumkin: *Ey piri komil, o'zlikni tark aylab, ishq yo'lini tutdim, meni nafs ilkida qoldirma, ishqdan saboq ber, toki Haq vasliga yetay*.

Shunday qilib, "hush ilkidan qutulmoq" — *benavolik*, "benavolik" esa *ishq tariqining nihoyasi* — *vaslyoki fanodir*. Shunday ekan, haqiqiy ishq egalari uchun navosizlik navo bilan barobar. Quyidagi baytda bu fikr oshiq tilidan qat'iy e'tirof bo'lib jaranglagan:

*Navo ma'shuqdin gar tutsa ushshoq,
Navoiyg'a navosizlig¹— navo bas* [Навоий 1990, 119].

Albatta, navo benavo, benavo navo bo'lishining o'z sabablari bor. E'tibor berilsa, baytda Navoiy o'zini "ushshoq" — *oshiqlar xayliga* zid qo'ygan: *ushshoq* ma'shuqdan navo — visol istaydi, ammo Navoiyga benavolik bas, chunki Navoiy uchun benavolik navodir. Shubha paydo bo'ladiki, yo ushshoq ushshoq emas yoki benavolik yuqoridagidek ishq yoki vasl emas. Benavolik ishq yoki vasl, ammo *ushshoq* chin *oshiqlar* emas. *Ushshoq* "Mahbub ul-qulub"da ta'riflangan oshiqlarning birinchi guruhiba mansub: *avom*. Avom Haq ishqqi va ma'rifatidan bexabar oshiqlar xayli, binobarin, ushshoqning navosi benavolik emas, aksincha, baytda aytiganidek,

1 Nashrda *navosozliq* bo'lib ketgan – xato.

navo, bu navo esa bu toifaga xos “lazzati jismoniy va shahvati nafsoniy”dir [Навоий 1998, 67]. Xavos avomning ziddi, binobarin, uning navosi “lazzati jismoniy va shahvati nafsoniy” emas, balki “pok ko’zni pok nazar bila pok yuzga solmoq va pok ko’ngil ul pok yuz oshubidin qo’zg’almoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz Mahbubi Haqiqiy jamolidin bahra olmoq” [Навоий 1998, 67]. Shunday ekan, *Navoiy navoli bo’ladimi yoki benavo* — farqi yo’q, chunki Haq oshiqlari uchun, baytda aytilganidek, *navosizlig’ navo bas*.

Ushshoq, ya’ni avom oshiqlarning ulug’ shoir ijodida nomlari ko’p — *barcha el, xaloyiq, ulus, jahon ahli, zag’an(lar), g’ayr, ahli ishq* deb atalgan xayl ham ushshoqdir. Quyidagi baytda zikr qilingan *tana’um ahli* ham ushshoqning bir toifasidir:

*Tana’um ahliy-u bazmi visol, ey dard-u hajr ahli,
Navoiydin siz ayrilmangki, zor-u benavodursiz*

[Навоий 1990, 150].

“Tana’um ahli” *rohat ahli, lazzat ahli* demak. Tana’um ahliga yashashdan maqsad visol bazmi, visol bazmida ma’shuq visoli. *Dard-u hajr ahlining* nasibasi esa, tana’um ahliga zid o’laroq, zor-u benavolik: *hajr uni Ma’shuq* (Haq) vasliga *zor, dard esa benavo* qiladi. Navoiy ham dard-u hajr ahlidan va dard-u hajr ahli kabi zor-u benavo. Shuning uchun ham shoir hamdardlik bilan deydiki: *Ey dard-u hajr ahli, tana’um ahlining ishi visol bazmi, siz Navoiydan ayrilmangki, siz ham men kabi zor-u benavodirsiz.*

Baytda *dard-u hajr ahli* va *zor-u benavo* Navoiy bilan aloqadorlik, *tana’um ahli* va *bazmi visol* esa zidlik asosida tanosub hosil qilgan: *Navoiy — dard-u hajr ahli — zor-u benavo — tana’um ahli — bazmi visol.*

“Sanga” radifli mashhur g’azalda ham ushshoq va *Navoiy, navo* va *benavo* timsollari ustuvor bo’lgan:

*G’ussa changidin navoe topmadim ushshoq aro,
To Navoiydek asir-u benavo bo’ldum sanga*

[Навоий 1988, 37].

Baytda *ushshoq — chang — navoe* bir taraf, *Navoiy — asir — benavo* bir taraf bo’lgan. Ushshoq qatoridan joy olgan chang piri changning ishq sadolari taraluvchi changi emas, u *g’ussa changi*. G’ussa ham oddiy g’am yoki anduh emas. G’ussa, g’am kabi, ulug’

shoir ijodida keng qo'llangan tasavvufiy atama. G'ussa, sodda qilib aytganda, Haqdan o'zga narsalar mehridir.¹ "Navoe"ning ma'nosi esa *bir navo*. Ikkinchisiga boshida kelgan "to" yordamchi so'z bo'lib, gapga -gach, -gandan beri, -gandan so'ng kabi grammatik ma'nolarni qo'shadi. Bayt mazmunini shunday ifoda qilish mumkin: (Ey Ma'shuq,) *Senga Navoiydek asir-u benavo bo'lganimdan so'ng* (yoki *Senga Navoiydek asir-u benavo bo'libmanki*), *ushshoq aro g'ussa changidan, ya'ni Haqdan o'zga narsalarga mehrdan bo'lak biror navo topmadim.*

Baytda nozik iyhom san'ati bor: "g'ussa changi" *g'am changali* degani ham. U *chang* ma'nosida *navoe* bilan, *changal* ma'nosida esa *asir* bilan tanosub hosil qilgan: ushshoq g'ussa changiga asir bo'lib, Haq ishqidan "navoe" — *bir navo* ham topmagan bo'lsa, Navoiy, aksincha, ishq (sen) changida asir bo'lib, "benavo"lik topgan. Baytda *ushshoq* — *g'ussa* — *chang* — *navoe* hamda *Navoiy* — *sen* (*Ma'shuq*) — *asir* — *benavo* so'zlari tanosub va ayni chog'da, tazod san'atlarining bag'oyat yetuk namunalariga aylangan. *Navoe* va *Navoiy* esa o'zaro tajnisdir, ularning arab harflari bilan yozilishida hech qanday farq yo'q: **نواي** (navoe) — **نواي** (Navoiy).

نواي (navoe) — **نواي** (Navoiy) tajnisi xattiy — aytishi turlicha bo'lsa ham, yozilishi bir xil tajnis. Tajnisning tajnisi bil-ishora — ishoraviy tajnis degan turi ham bor. Bu tur tajnisda shakldosh so'zlardan biri keltiriladi-yu, ikkinchisiga ishora qilinadi. Quyidagi baytda ulug' shoir o'z taxallusini tajnisning ana shunday noyob turiga aylantirgan:

*Navo ishq ichra sen top, ey Navoiy,
Ki bizga benavoliqlar navo bas* [Навоий 1989, 171].

Bayt mazmunidan seziladiki, ikkita Navoiy bor: *sen Navoiy, biz (men) Navoiy*. Bu ikki Navoiyning maqsadlari bir-biridan keskin farq qiladi. *Navo ishq ichra sen top, ey Navoiy*, — deb tilak bidiradi shoir *sen Navoiyga*. *Ki bizga benavoliqlar navo bas*, — deb o'z maqsadini oshkor qiladi *biz (men) Navoiy*. *Navo* va *benavoliq* ziddiyatidan ma'lumki, bu ikki tushuncha bir paytda kelganda, navo ushshoq yoki avom, benavolik esa dard-u hajr ahli yoki xavos timsolidir. Shoir bu ikki timsolni baytda bir so'zga jo qilgan, o'sha so'z — **Ey Navoiy** **نواي**. "Ey Navoiy" birinchi misrada *navo* qatorida kelgan: *navo* — *Ey Navoiy*. Demak, bu Navoiy, badiiylashtirib, qofiyalashtirib aytadigan

1 Bu timsol haqda to'laroq ma'lumot olish uchun qarang: A.Qurbanov. Navoiy ijodida ko'ngul talqini. // O'zbek tili va adabiyoti, №3, B. 36-44.

bo'lsak, *banavo Navoiy* (avom). Ikkinchisiz misrada "Ey Navoiy" *benavoliq* tanosubisi: *benavo — Ey Navoiy*. Ammo u ifodalanmagan, chunki "Ey Navoiy" *sen*, ayni paytda, *biz Navoiyga ham tegishlidir*. "Biz Navoiy" esa *benavo Navoiy* (xavos) dir.

Ulug' shoir "Navoiy"dan shu qadar sernavo kuy yaratganki, bu kuyning behad noyob sadolarini na sernaqsh "ilmi bade" risolalaridan, na o'zga shoirlar san'atxonasidan topib bo'ladi. Aslini olganda, topish mumkin ham emas. Chunki bu naqsh-u navolar, quyidagi baytdan taralgan munglig' ohanglardek, ulug' shoirning o'z bast-u bandi, o'z ixtiolaridir:

*Ko'rmasam qoshing, bo'lurmen turg'anim birla fig'on,
Voyiy erur, bas, chu bo'lmasa Navoiy birla nun*

[Навоий 1988, 366]

Baytda ayriliqning puralam, ammo behad noyob tasviri chizilgan. Bu ayriliq — Ma'shuq qoshidan ayriliq. *Agar qoshingni ko'rmasam, — deydi hijronzada oshiq, — turg'anim, ya'ni butun vujudim, bor bo'yim bilan fig'onga aylanaman. Fig'on, afg'onning bir shakli, afg'on esa avvalgi baytlardan ma'lumki, navo timsolidir*. Ikkinchisiz misrada shoir tashbehi izmor — yashirin tashbeh usuli bilan ma'shuq qoshini "nun"ga o'xshatadi: ڻ. Qosh "nun"dek, "nun" esa qoshdek egik. *Ey Ma'shuq, — deydi Navoiy qosh ishtiyoqida, — agar nun, ya'ni qoshing Navoiy bilan birga bo'lmasa, u turish-turmushi faqat voy-voy" deb nola qilishdan iborat voyiydan bo'lak kim ham bo'lar edi?!*

"Nun" faqat yor qoshigina emas, u ayni chog'da Navoiy "nun"i ham, chunki Navoiyning o'zida, ya'ni Navoiy so'zining yozilishida ham "nun" bor: نوای. *Voyiy erur, bas, chu bo'lmasa Navoiy birla nun*, der ekan, ulug' shoir shu "nun"ni ham nazarda tutadi. Hayratbaxsh holat: agar "nun" *Navoiy birla bo'lmasa*, ya'ni Navoiy so'zi "nun"idan ayrilsa, Navoiy emas, "Voyiy"¹ bo'lib qoladiki, bunga "nun"idan ayrilgan Navoiyning o'zi guvohdir: نوای = نوای = نوای // *Navoiy = (Na) voy = voyiy!*

Shoir devonlaridan birida Navoiy "nun"i bilan bog'liq yana bir go'zal san'at bor:

*Boshim uzra furqating toshini ko'rsang bilgasen,
Nuqta zohir aylamish go'yo Navoiy uzra nun* [Навоий 1989, 320].

1 Arab yozuvida voyiy ham, voyiham bir xil yoziladi: نوای.

Bu baytda ham iyhom san'ati bor. *Navoiy uzra nun* ikki ma'noda kelgan: 1) Navoiy jismi uzra "nun"; 2) Navoiy so'zi uzra nun: نوای (نۇاي). Birinchi misrada aytishicha, Navoiy boshi uzra paydar-pay furqat toshlari yog'iladi. Ikkinci misrada shoir o'z boshini "nun"ga, furqat toshini esa "nun" ustidagi nuqtaga o'xshatadi: *Nuqta zohir aylamish go'yo Navoiy uzra nun:* ئۇ. "Nun"ning tag qismi (و) go'yoki shoir boshidir, ustidagi nuqta esa (·) furqat toshidir.

Navoiy "navo"lari, *Navoiy va navo* tanosubi tahlilidan shunday xulosalarga kelish mumkin:

1) fano va Foniy tanosubida *bosh g'oya fano* bo'lsa, Navoiy va navo tanosubida *bosh g'oya navodir*. Ammo ularning yuzaga chiqishi turlicha. Agar *fano* — *Foniy* silsilasida shoir g'oyaga mos taxallus tanlagan bo'lsa, *Navoiy* — *navo* silsilasida, aksincha, *Navoiyga navo, navoe, benavo, navosiz* kabi so'zlarni tanosub qilib, taxallusga mos g'oya yaratadi;

2) *navo* aksariyat hollarda ikki ma'noda keladi: 1) *kuy, ohang; 2) sayrash*. *Kuy, ohang* bo'lganda, *Navoiy* — *navo* silsilasining uchinchi halqasi cholg'uchi bo'ladi: *Navoiy* — *navo* — *piri chang (mug'anniy, mutrib)*. *Sayrash* bo'lganda esa uchinchi halqa qushdir: *Navoiy* — *navo* — *qush (bulbul, Durroj, zag'an(lar);*

3) garchi muayyan baytda "navo"ning bir ma'nosi ustuvorlik qilsa-da, ko'pincha, ikkinchi ma'no ham nazardan qochirilmaydi. Shuningdek, "navo"ning tasavvufiy ma'nosi ham bor: *ishq* yoki *vasl*. Baytda bunday ma'nolarga ishora qiluvchi bir yoki ikki so'z bo'ladi: *kuy, ohang, barg; fano, piri chang, jon rishtasi*. Bunday baytlarda tanosub iyhom san'ati bilan vobasta holda yuzaga chiqadi;

4) *benavo* so'zining ma'nosi *navosizlik*, ammo u majozan "hajr", shu bilan birga, "hajr"ga mutlaq zid ma'nosi ham bor: *vasl*. Bu holda "benavo" "navo"ga, "dard-u hajr eli" "ushshoq"qa qaramaqarshi qo'yiladi. "Ushshoq" avom, "dard-u hajr eli" xavosdir, xavos uchun esa "navosizlik" "navo" bilan barobar;

5) "navo san'ati"da *navoe* so'zi, Navoiy "nun"i va "nun" nuqtasining ham alohida o'rni bor. Shoir mo'jizakor qalamining qudrati bilan ular *Navoiy va navo* tanosublar silsilasida betakror tajnis va tashbehga aylangan.

Adabiyotlar

- Абдуқодиров, А. 1996. *Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида ваҳдат ул-вужуд талқини*. Хўжанд.
- Атойи. 2008. *Девон*. Тошкент.
- Бертелс, Е. Э. 1965. *Миръоти ушишоқ. Суфизм и суфийская литература*. Москва.
- Ҳаққул, И. 2016. “Алишер Навоий тахаллусларининг маъни қиррала-ри ҳақида”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 5: 18 – 26.
- Имомназаров, М. 1988. “Ҳақиқат ва мажоз”. *Шарқ юлдози* 4: 176 – 181.
- Исҳоқов, Ё. 1983. *Навоий поэтикаси*. Тошкент.
- Жумахўжа, Н. 1996. *Сатрлар силсиласидаги сеҳр*. Тошкент.
- Комилов, Н. 2009. *Тасаввуф*. Тошкент.
- Куделин, А. Б. 1983. *Средневековая арабская поэтика*. Москва.
- Мусулманкулов, Р. 1989. *Персидско-таджикская классическая поетика X-XV вв.* Москва.
- Навоий, Алишер. 1987. МАТ. 20 томлик. 1-том. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 1988. МАТ. 20 томлик. 3-том. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 1988. МАТ. 20 томлик. 4-том. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 1990. МАТ. 20 томлик. 5-том. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 1990. МАТ. 20 томлик. 6-том. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 1991. МАТ. 20 томлик. 7-том. Тошкент.
- Навоий, Алишер. 1998. МАТ. 20 томлик. 14-том. Тошкент.
- Носиров, О. 1972. *Ўзбек адабиётида ғазал*. Тошкент.
- Носиров, О. ва б. 1979. *Ўзбек классик шеърияти жанрлари*. Тошкент.
- Олим, С. 2015. “Ийхомангиз санъатлар”. *Жаҳон адабиёти* 2: 132 – 141.
- Рафиддинов, С. 1995. *Мажоз ва ҳақиқат*. Тошкент.
- Рустамов, А. 1979. *Навоийнинг бадиий маҳорати*. Тошкент.
- Сирожиддинов, Ш. 2011. *Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сар-чашиналари*. Тошкент.
- Курбонов, А. 2016. “Фарҳод ва Ширин” сарлавҳалари бадиияти. Тош-кент.
- Курбонов, А. 2019. “Навоий ижодида кўнгул талқини”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 3: 36 – 45.
- Шайхзода, М. 1972. *Асарлар*. 6 томлик. 4-том. Тошкент.

A. Kurbanov

(*Namangan, Uzbekistan*)

akurbanov-57@mail.ru

The Pseudonym Which Turned Into The Art

Abstract

This article is devoted to the problem of the relation between Navoi and his pseudonym "Navo". For the great poet, pseudonym (taxallus) was not only a poetic name, but also was a special opportunity for the manifestation of his talent. As Babur said, Navoi was a poet who wrote "more and better than others." "Hamsa", especially "Hazoyin ul Maoniy", includes hundreds of perfect couplets. Due to these couplets are a new type of the art that can be called navo (melody) and Navoi art. On the basis of this lies Navoi's original point of view about high poetic symmetry. Navoi confirmed that every poetic work or a separate couplet must be created according to the rules of high symmetry; all poetic elements of the work must be related between poetic content both forms and meaning. The article considers the literary and Sufic meanings of Navoi, navo (melody), benavo, Navoe, through an analysis of a number of couplets from poet's work.

Key words: *Navoi, symmetry, melody, benavo, singing, love, parting, be reunited with love, frailty.*

About the author: *Abdulhamid Qurbanov – Doctor of Philosophy in Philology, Docent, Namangan State University.*

Recommended citation: Kurbanov, Abdulhamid. 2020. "San'atga aylangan taxallus". *Oltin bitiglar* 1: 108—126.

References

- Abduqodirov, A. 1996. *Alisher Navoiy va uning salaflari ijodida vahdat ul-vujud talqini. Xo'jand.* Atoyi. 2008. *Devon.* Toshkent.
- Bertels, Y. E. 1965. *Mir'oti ushshoq. Sufizm i sufijeskaya literatura.* Moskva.
- Haqqul, I. 2016. "Alisher Navoiy taxalluslarining ma'no qirralari haqida". *O'zbek tili va adabiyoti* 5: 18 – 26.
- Imomnazarov, M. 1988. "Haqiqat va majoz". *Sharq yulduzi* 4: 176 – 181.

- Is'hoqov, Y. 1983. *Navoiy poetikasi*. Toshkent.
- Jumaxo'ja, N. 1996. *Satrlar silsilasidagi sehr*. Toshkent.
- Komilov, N. 2009. *Tasavvuf*. Toshkent.
- Kudelin, A. B. 1983. *Srednevekovaya arabskaya poetika*. Moskva.
- Musulmankulov, R. 1989. *Persidsko-tadjikskaya klassicheskaya poetika X-XV vv*. Moskva.
- Navoiy, Alisher. 1987. MAT. 20 tomlik. 1-tom. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1988. MAT. 20 tomlik. 3-tom. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1988. MAT. 20 tomlik. 4-tom. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1990. MAT. 20 tomlik. 5-tom. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1990. MAT. 20 tomlik. 6-tom. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1991. MAT. 20 tomlik. 7-tom. Toshkent.
- Navoiy, Alisher. 1998. MAT. 20 tomlik. 14-tom. Toshkent.
- Nosirov, O. 1972. *O'zbek adabiyotida g'azal*. Toshkent.
- Nosirov, O. va b. 1979. *O'zbek klassik she'riyati janrlari*. Toshkent.
- Olim, S. 2015. "Iyhomangiz san'atlar". *Jahon adabiyoti* 2: 132 – 141.
- Rafiddinov, S. 1995. *Majoz va haqiqat*. Toshkent.
- Rustamov, A. 1979. *Navoiyning badiiy mahorati*. Toshkent.
- Sirojiddinov, Sh. 2011. *O'zbek mumtozadabiyotining falsafiysarchashmalar*. Toshkent.
- Qurbanov, A. 2016. "Farhod va Shirin" sarlavhalari badiiyati. Toshkent.
- Qurbanov, A. 2019. "Navoiy ijodida ko'ngul talqini". *O'zbek tili va adabiyoti* 3: 36 – 45.
- Shayxzoda, M. 1972. *Asarlar*. 6 tomlik. 4-tom. Toshkent.

MAQOLANI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – milliy merosimiz, umumturkiyadabiyot va madaniyat, o’zbek adabiyoti va madaniyati, umuman, Sharq adabiyoti va madaniyati namunalarini, ular mualliflari hayoti va ijodining hali o’rganilmagan qirralarini manbashunoslik, matnshunoslik va matnchilik hamda adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik mezonlari, xalq og’zaki ijodi namunalarini to’plash va o’rganish, o’zbek adabiy tili taraqqiyotida badiiy matn va matbuotning o’rni va ahamiyati asosida tadqiq etgan mualliflar ilmiy xulosalarini chop etishga qabul qiladi.

1. Umumiy ma’lumotlar

- Qo’lyozmalarga qo’yiladigan talablar

- 1) Qo’lyozmalar yil davomida istalgan vaqtida topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma nashrdan kamida besh oy oldin taqdim etilishi kerak.
- 2) Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitik@gmail.com) elektron pochtasiga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va ishoratlar bo'yicha MS Word menejerini qo'llash lozim.
- 3) Barcha qo’lyozmalar elektron pochta manzili, pochta adresi hamda muallif(lar) haqida qisqacha ma’lumot beruvchi ilova xat bilan yuboriladi.

2. Qo’lyozma formati

- 1) Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 12 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.
- 2) Maqolalar *The Chicago Manual of Style*, 16th Edition formatida shakllantirilishi lozim.
- 3) Iqtiboslar matnda katta qavs ichida beriladi.
- 4) Maqola odatda 9000 so’zdan oshmasligi kerak. Bundan tashqari,
 - 150-200 so’zdan iborat 2 (ingliz, o’zbek) tilda abstrakt va 7-10 kalit so’z;
 - adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak;
 - jadvallar, chizmalar, agar mavjud bo’lsa.
- 5) Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi kerak. Taqrizning formati:
 - sarlavha: Kitob nomi, muallif(lar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi. Narhi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova).
 - taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.Sh., ish joyi, pochta manzili
- 6) Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish 4 darajadan ortmasligi kerak:
 - 1-daraja. Maqola nomi – katta harflarda, quyuq, 14 hajm.
 - 2-daraja. Maqola bo’limlari – yotiq, 14 hajm.
 - 3-daraja. Maqola bo’limlari fasllari – normal, 12 hajm.
 - 4-daraja. Maqola bo’limlari fasllarining fasllari – normal, 11 hajm.

3. Maqolada boshqa maqolalardan foydalanish uslubi

1) Tarjima

- boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalardan qilingan tarjima kim tomonidan tarjima qilinganligi aniq ko’rsatilish kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo’lsa, u holda “o’z tarjima” shaklida beriladi;
- maqola muallifi tarjima qilingan matnda asosiy kalit so’zlarni saqlab qolishi kerak;
- rasmiy nashr qilingan tarjimadan ko’chirma yoki parcha tahrir qilinmaydi. Biroq, tahririyat muallif taqdim qilgan tarjimadagi kalit so’z yoki iboralarni o’zgartirishi mumkin.
- zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakrtik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin;
- tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha (qaysi tilda bo’lsa) beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

2) Ismlar va atamalar

- joy nomlari (xorijiy):

Biror mintaqaga tegishli joy nomlari tarjima qilinish kerak.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

3) Biror davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

4. Ko'chirma yoki havola berish

1) Ko'chirma:

- manbadan olingen ko'chirma parcha satr oralig'i 2, chap tomondan satr boshidan yoziladi.

Ko'chirmaning ikkinchi abzasi ham satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrif, 10 hajm, normal shaklda beriladi.

5. Boshqa ma'lumotlar

1) Jumla tugagandan keyin doim 1 oraliq tashlanadi.

2) Jumla oxiridagi qavs, qo'shtirnoq va havola raqamlari nuqtadan keyin qo'yiladi.

3) Qavs ichidagi qavslar uchun katta qavs qo'llaniladi ([]).

6. Havola berish

Matnda katta qavs ichida beriladi.

KITOBLAR UCHUN

Kitobni bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzasdan yoziladi):

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Pollan, Michael. 2006. *Dillema Omnivore: Oziq-ovqatning qanday rivojlanishining tabiiy tarixi*. Nyu York: Pengvin.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Pollan 2006, 99-100]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzasdan yoziladi):

Familiya, Ism, Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitobning nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Vard, Geofferey va Ken Burn. 2007. *Urush: Yaqin Tarix 1941-1945*. New York: Knopf.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Ward va Burns 2007, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Barnes va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzasdan yoziladi):

Familiya, ism. Nashr yili. «Maqola nomi.» Kitobda *Kitob yoki to'plam nomi*, Familiya Ism, Familiya Ism muharrirligida, maqola sahifa raqamlari. Shahar: Nashriyot nomi.

Kelli, Jon. 2010. "Nablyudat krasniy svet: Mao-feteshizm, Paks-Amerikano i ix moralnaya ekonomika." V knige *Antropology*, red. John Kelly, John Marshall, Abigail

Adamas, i Mickey Spillane, 67-83. Chikago: Izdanie Chikagskogo universiteta.

Matnda kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Kelly 2010, 77]

Original kitobning qayta nashrini bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzasdan yoziladi):

Familiya, ism. Nashr yili. «Original matn nomi.» Kitobda *Kitob yoki to'plam nomi*, Familiya Ism, Familiya Ism muharrirligida. Jild raqami, matn sahifalari raqami. Shahar: Nashriyot nomi. Original nashr: Ism Familiya. *Kitob nomi*, jild raqami (Shahar: Nashriyot nomi, nashr yili).

Cicero, Quintus Tullius. 1986. "Konsullik uchun ovoz berish yo'rinqomalari". Kitobda *Rim: Kech Respublika va Boshqaruv*, Walter Emil Kaegi Jr. va Peter White muharrirligida. 2-jild, 33-46. Chikago: Chikago universiteti nashri. Original matn sifatida nashr qilingan: Evelyn Shuckburgh. *The Letters of Cicero*, 1-jild (London: George Bell and Sons, 1908).

Matnda kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Cicero 1986, 35]

ELEKTRON SHAKLDA NASHR QILINGAN KITOBLAR UCHUN

Agar elektron shaklda nashr qilingan kitobning bir necha formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanylган format ko'rsatiladi. Online kitoblar uchun internet adres (URL) hamda manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzasdan yoziladi):

Familiya, Ism. nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi. Elektron nashriyot nomi. Austen, Jane. 2007. *Gordost i predubejdenie*. Nyu York: Pengvin Klassiks. Izdanie Kindel.

Matnda kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Austen 2007, 101]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzasdan yoziladi):

Familiya, Ism, Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitobning nomi*, Shahar: Nashriyot nomi. Kitob olingan sana, internet adres (URL)

Kurland, Philip va Ralph Lerner. 1987. *Osnovateli Konstitutsii*. Chikago: Izdanie Chikagskogo universiteti. Kitob olingan sana 28.02.2010, <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Kurland va Lerner, 10 Bob, 19 hujjat]

JURNAL MAQOLASI UCHUN

Nashr qilingan jurnal maqolasi uchun

Jurnal maqolasini bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzasdan yoziladi):

Familiya, Ism. nashr yili. «Maqola nomi.» *Jurnal nomi* jurnal soni:maqola sahifalari. Weinstein, Joshua. 2009. "Rinok Platonskoy respublik." *Classical Philology* 104:439–58.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Weinstein 2009, 440]

Online jurnal uchun

Online jurnal uchun uning DOI adresi ko'rsatiladi. Agar DOI adres bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> adres.

Online jurnal maqolasini bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzasdan yoziladi):

Familiya, Ism. nashr yili. «Maqola nomi.» *Jurnal nomi* jurnal soni:maqola sahifalari. DOI adres.

Kossinets, Gueorgi. 2009. "Rivojlanayotgan ijtimoiy tarmoqdagi gomofilyaning kelib chiqishi" *Amerika sotsiologiya jurnali* 115:405-50. doi:10.1086/599247.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Kossinets 2009, 411]

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Sherl Stolberg i Roberta Pearning 27.02.2010 yildagi "New York Times" dagi maqolasida aytilganidek ...); odatda bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi.

Agar online maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet adresi (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak. Maqolaning muallifi nomalum bo'lsa, maqolaning sarlavhasi havolada keltiriladi.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzasdan yoziladi):

Familiya, Ism. Nashr yili. «Maqola nomi.» *Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Mendelsohn, Daniel. 2010. "Men haqimda yetarlicha." *New Yorker*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mendelsohn 2010, 68]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish (birinchi qatordan boshqa barcha qatorlar bir tekisda abzasdan yoziladi):

Familiya, Ism. Nashr yili. «Maqola nomi.» *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres

Stolberg, Sheryl Gay i Robert Pear. 2010. "Ostorojno, politiki" *New York Times*, 27.02.

<http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Stolberg i Pear 2010, 68]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar lotin yozuviga transkripsiya qilinishi lozim:

Баранов, Харлампий. 1958. *Арабско – русский словарь*. Москва: Наука.

Baranov, Kharlampiy. 1958. *Arabsko – russkiy slovar*. Moskva: Nauka.

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko’chasi 103-uy.

e-mail: oltinbitiklar@inbox.ru

Tel.: +99891 166-31-38

Bosishga 00. 00 2019-yilda ruxsat etildi

Qog’oz bichimi 70x100 1/16/.

nashriyot bosma tabog‘i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O’zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi
tomonidan № 0940 raqami bilan ro’yxatdan o’tgan.

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.

Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.

Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77, +99894
659 94 62

2020 Vol.1

www.navoiy-uni.uz